

№ 1 (17) 2026

ISSN 2181-1822

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI



AXBOROTNOMASI

ILMIY-AMALIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY VA SIYOSIY-HUQUQIY JURNAL

**KUCH – BILIMDA,
SHARAF –
A'LO XIZMATDA!**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

AXBOROTNOMASI

№ 1 (17) 2026

Toshkent – 2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR
VAZIRLIGI MALAKA OSHIRISH INSTITUTI



AXBOROTNOMASI

Ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy va
siyosiy-huquqiy jurnal

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

Maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida,
lotin, kirill yozuvida chop etiladi.
Maqolalarda keltirilgan iqtiboslar,
dalillar, raqamlar va ma'lumotlarning
aniqligi uchun muallif javobgardir.
Jurnaldan ko'chirib olingan manba
ko'rsatilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka
oshirish instituti Axborotnomasi O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 20-mayda №1630-sonli guvohnoma bilan
ro'yxatdan o'tgan.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasi O'zbekiston
Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
“Malaka oshirish institutining Axborotnomasi”
ilmiy-amaliy jurnali 2023-yil 15-iyunda
OAK Rayosatining 339/6-son hamda
2024-yil 28-iyundagi OAK Rayosatining 356/5-son
qarorlariga asosan yuridik va tarix, siyosiy va
falsafa, pedagogika va texnika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) va fan doktorlari (DSc) ilmiy
darajasiga talabgorlarning dissertatsiya
ishlari asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilganligini ma'lum qiladi.

Muassis:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI

Bosh muharrir:

Olimjon AXMEDOV

Nashr uchun mas'ul:

Bahodir JOVLIYEV

Jamoatchilik

Kengashi tarkibi:

Nuriddin NORMATOV
Bahodir MATLYUBOV
Diyorbek SATTAROV
Umidbek NURULLAYEV

Hay'at a'zolari:

Olimjon AHMEDOV
Ulug'bek RASULEV
Karim NORMATOV
Jo'raboy TOSHQULOV
Farhod XATAMOV
Muzaffar TOJIBOYEV
Mehmonali SUVANQULOV
Erkinjon MARUPOV

Tahririyat:

Mas'ul muharrir:

Karim NORMATOV

Musahhih:

Nurafshon XATAMOVA

Sahifalovchi-dizayner:

Zafar RO'ZIYEV

Bosishga ruxsat etildi: 3.04.2026.

Buyurtma № 181

Qog'oz bichimi 60x84 1/32. Shartli b. t.-7,8.

Adadi 100 nusxada chop etildi.

100213, Toshkent shahar, Bektemir tumani,
H.Boyqaro ko'chasi, 27a-uy.



MUNDARIJA

MUHARRIR MINBARI

Olimjon AXMEDOV. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti ustuni.....	6
---	---

SIYOSIY FANLAR

Zokir ZAMONOV. O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlashda ichki ishlar organlari va ijtimoiy institutlar hamkorligini rivojlantirish zaruriyati	8
--	---

YURIDIK FANLAR

Abdijabbor ABJALOV. Transmilliy jinoiy guruhlarining shakllanishi va ularga qarshi kurashishning o'ziga xos jihatlari	12
Gulsanam RO'ZIYEVA. Raqamli makonda huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning zamonaviy va samarali mexanizmlari	16
Furqat XIDIROV. Mahalla huquq-tartibot maskanlarida xizmat olib boruvchi xodimlarning o'zaro hamkorligi: vazifalar taqsimoti va mas'uliyat	20

Zuxriddin MUXAMMADALIYEV.

Yangi O'zbekistonda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda xorijiy tajriba asosida idoralararo hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish.....	24
---	----

Zafar KUVONDIKOV.

Yo'l harakati xavfsizligi va huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish: milliy qonunchilik va xalqaro standartlarning qiyosiy-huquqiy tadqiqi	27
---	----

Umidbek ZAMONBEKOV.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda aholi huquqiy ongi va madaniyatini zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali yuksaltirish.....	31
---	----

Abduqodir ABDIBOSITOV.

Singapurning korrupsiyadan holi jamiyat barpo etish tajribasi va huquqiy asoslari.....	34
--	----

Muhiddin JO'RAYEV.

Manfaatlar to'qnashuvi – korrupsiyaning ildizi	38
---	----

Alisher KHIDOYATULLAEV.

Comparative analysis of judicial enforcement mechanisms in central asia	42
---	----

Pulatbek SHAGILOV.

Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbuzarliklarga qarshi ma'muriy-huquqiy choralarning samaradorligi: muammolar va takomillashtirish istiqbollari	45
---	----

KIBERXAVFSIZLIK

Umiddjon XAMRAKULOV.

Alisherjon ASHURALIYEV. Kodni qayta ishlatish kiberhujumlarini intelektual yumshatish tizimlarini ishlab chiqish	50
--	----

Умиджон ТАЛЛИБАЕВ.

Сабина ТУРСУНОВА. Роль гис в обеспечении безопасности критически важной инфраструктуры	56
---	----

PEDAGOGIKA FANLARI

To'liqin G'OZIBEKOV.

Ichki ishlar organlarining
voyaga yetmagan shaxslar tarbiyasida
keng jamoatchilikni o'rni..... 60

Дилшод ГИЯСОВ.

Повышение показателей
эффективности стрельбы обучаемых
на основе оценок летальности,
мобильности и стабильности 64

Джалолиддин ДЖУМАБОЕВ.

Профессиональный патриотизм
как основа подготовки будущих
сотрудников органов внутренних дел..... 70

Nargiza MIRJALOLOVA.

Tibbiy madaniyatning mazmuni,
mohiyati va yondashuvlari..... 74

Sardor SAKIYEV.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimida
rahbar faoliyatining kompayns nazorati:
mazmuni, ahamiyati va samaradorligi 79

Miraziz RAUFOV.

Huquqshunoslar uchun chet tilini
o'qitishning dolzarb muammolari 83

Ziyoda KAMALOVA.

Chet tilini o'qitishda
ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning
lingvistik va pedagogik muammolari 86

Shaxloxon KAMALOVA.

Talabalarning og'zaki nutq
ko'nikmalarini shakllantirishda sun'iy
intellektdan foydalanish: muammolar va
yechimlar 89

Mavluda SHUHRATOVA.

Chet tilini boshlang'ich sinf o'quvchilariga
o'rgatishda rasmi lug'atlardan foydalanish:
xorij va O'zbekiston tajribasi 91

Ayzada ARZIEVA.

Chet tilini bilish darajasini aniqlovchi
imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishning samarali
metodlari va ularning pedagogik asoslari..... 94

Komiljon EGAMBERDIYEV.

Yurist talabalarga chet tilini o'qitishda roli
o'yinlarning roli 97

Feruza ZAKIROVA.

Tibbiyot pedagogikasini tashkil
etishning metodik asoslari 100



YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI USTUNI

Assalomu alaykum, aziz jurnalxonlar, hurmatli hamkasblar, ilm-fan asosida mamlakatimiz rivoji, xalqimiz istiqboli va dunyo taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish maqsadida fidokorona mehnat qilayotgan muhtaram ziyolilar!

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida amalga oshirilayotgan strategik islohotlarda barcha sohalar qatorida ichki ishlar organlari tizimida ham keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, sohani professional, yetuk mutaxassis-kadrlar bilan ta‘minlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Zero, “Inson qadri” tamoyili asosida olib borilayotgan tub islohotlar ro‘yobida huquq-tartibot organlarida ona Vatani va xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga qasamyod qilgan vatanparvar va sadoqatli soha xodimlarining kasbiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir mutaxassisning kasbiga fidoyiligi asnosida ilmiy-intellektual, ma‘rifiy-madaniy salohiyati hal qiluvchi omillardan hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan har bir sohaga ilmiy-amaliy yondashuvning zarurligi, bu borada jamiyatning tayanch qatlami bo‘lgan olimlar va ziyolilarni faol qo‘llab-quvvatlash, fanning barcha sohalarida ilmiy tadqiqot uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, olimlarni va yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash sari amaliy harakatlar olib borilmoqda. Zero, uchinchi Renessans – Uyg‘onish davriga mustahkam poydevor qo‘yayotgan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyotiga ham ta‘lim-tarbiya va ilm-fan asos bo‘lishi shubhasiz.



Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda amaliyotga tatbiq etilgan ichki ishlar organlari uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimida xodimlarning ilmiy salohiyati va ma‘naviy kamolot hamda kasbiy mahoratiga ko‘ra xizmat bo‘yicha o‘shirishni ta‘minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlar intellektual va professional salohiyatiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5076-son qarori asosida IIV Malaka oshirish instituti tashkil etilganligiga 5 yil to‘ldi.





O'ziga xos tarixiy solnomalarga boy bo'lgan o'tgan davrda ta'lim dargohida yuz ming nafardan ortiq safdor va ofitserlarning zamonaviy o'quv dasturlari asosida tajriba va mahoratlarini oshirib, el-yurtimizga sadoqat bilan xizmat qilishiga munosib hissa qo'shganidan faxrlanamiz!

Aslida barcha sohalarida amaliy tajribalarning yangi nazariy bilim va xalqaro mahorat darslari bilan mustahkamlanib borishi har bir soha xodimlari faoliyati samaradorligini kafolatlovchi muhim vositadir.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti Axborotnomasi ichki ishlar tizimi xodimlari, shuningdek, huquq-tartibot, siyosat, tarix va falsafa, texnika hamda pedagogika sohalaridagi eng so'nggi yangilik va ilg'or tajribalarni ommalashtiruvchi nashr sifatida Sizga o'quv kurslaridan so'ng ham ko'makdosh bo'lish maqsadida yangi formatda e'lon qilinmoqda.



Nashrning elektron tarzda tayyorlanishi bejiz emas, albatta. Zero, endi Siz xizmat vazifasini o'tayotgan yoki uydan chiqmagan holda ham ilmiy nashrda e'lon qilinayotgan yangi ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy materiallar bilan tanishgan holda o'z kasbiy salohiyatingiz va bilimlaringizni oshirib borish imkoniga ega bo'lmoqdasiz. Bu esa, Sizga o'zingizga muhim sohadagi yangilik va ilg'or tajribalardan doimiy boxabar bo'lib, kasbiy mahoratingizni muntazam oshirib borishga sharoit yaratadi. O'z navbatida, Siz ham siyosat, yuristprudensiya, falsafa, texnika va pedagogika sohalaridagi ilg'or va innovatsion yondashuvlarga asoslangan maqola hamda ishlanmalariningizni ommalashtirishingiz mumkin.

Barchani ilmiy-ijodiy hamkorlikka chorlaymiz!

Olimjon Tursunboyevich AXMEDOV,
Malaka oshirish instituti boshlig'i,
polkovnik



Zokir ZAMONOV,
O'zDJTU Ijtimoiy fanlar kafedra mudiri,
s.f.f.d. (PhD), dotsent

O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINI TA'MINLASHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI VA IJTIMOY INSTITUTLAR HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitning barqarorligiga erishish, jamiyat a'zolarida mafkuraviy-ma'naviy immunitetni mustahkamlash hamda ijtimoiy, ham ma'naviy, ham siyosiy faoliyatini takomillashtirish borasidagi islohotlarda ichki ishlar organlari va ijtimoiy institutlar hamkorligini rivojlantirish orqali fuqarolarning "ijtimoiy-nazorat institutlari" faoliyatida ishtirokini amalga oshirish bilan bog'liq mulohazalar berib o'tilgan.

Аннотация: в данной статье изложены соображения, связанные с достижением устойчивости социально-духовной среды в обществе, укреплении идеологического и духовного иммунитета у членов общества, а также совершенствованием их социальной, духовной и политической активности. Особое внимание уделяется развитию сотрудничества между органами внутренних дел и социальными институтами в ходе проводимых реформ, а также обеспечению участия граждан в деятельности "институтов общественного контроля".

Annotation: this article presents considerations related to achieving stability in the socio-spiritual environment of society, strengthening the ideological and spiritual immunity of its members, and improving their social, spiritual, and political activity. It also emphasizes the development of cooperation between internal affairs bodies and social institutions within ongoing reforms, as well as enhancing citizens' participation in the activities of "social oversight institutions".

Mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida, avvalo, ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat yuritish yo'li tanlandi. Jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlashda davlat organlari, xususan, ichki ishlar organlari va ijtimoiy-ma'naviy institutlar faoliyatini takomillashtirish, ularga keng sharoit yaratib berish borasida qator islohotlar amalga oshirila boshlandi.

Siyosatshunos olim A.Axmedov ta'kidlaganidek, davlat siyosatining ma'naviy hayotning ustuvor qonunlariga amal qilishi, jamiyatning bu sohadagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Ayni shu jarayonda barcha siyosiy va ma'naviy qadriyatlarga e'tibor qaratiladi, siyosiy jarayonlarning samaradorligiga erishiladi. Aks holda ma'naviy hayot qoidalari ham, siyosat tamoyillari ham samarasiz bo'lib qoladi. Ular o'z ahamiyati va ta'sirini to'la-to'kis namoyon qila olmaydi.

Zero, dunyodagi har qanday xalq, davlat va jamiyatning taraqqiyot va jamiyat a'zolarining ijtimoiy-ma'naviy faolligi "ijtimoiy nazorat instituti" bo'lmish ichki ishlar organlari va ijtimoiy-ma'naviy institutlar faoliyatining real amalga oshirilishi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda davlat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etayotgan davlat organlari, xususan, ichki ishlar organlari va ijtimoiy institutlarning faolligi va pragmatik ahamiyati ortib bormoqda. Bu singari tashkilotlar o'z faoliyatlarida ijtimoiy-siyosiy va huquqiy soha bilan bir qatorda, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolarini bartaraf etish

borasidagi samarali say-harakatlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etishmoqda. Bu jarayonda ichki ishlar organlari bilan jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining noyab institutlari bilan hamkorligi davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakat barqaror taraqqiyoti o'z-o'zidan ta'minlanadigan jarayon emas albatta, barqarorlikni ta'minlash jamiyat a'zolarining milliy o'zlikni anglash va u orqali qadriyatlarga sodiqlik va ijtimoiy-siyosiy faollikni amalga oshirish va ma'naviy muvozanatni saqlash talab etiladi. Holbuki, jamiyatda ma'naviy muvozanatni saqlash va ustuvorligini ta'minlash davlat iqtisodiy-siyosiy asoslari bilan ijtimoiy-ma'naviy asoslarini ham rivojlanishini amalga oshirib boradi.

Bugun ichki ishlar organlari faoliyati doim sezilarli darajada ishlarni amalga oshirayotganligi, bundan keyin ham ularning ochiq faoliyatini xalqqa ko'rsatish tashabbuslari hisobga olinishi jamiyat a'zolarining fuqarolik jamiyati bo'lgan ishonchini yanada oshishiga muhim turtki bo'lishi tabiiy.

Vaholanki, jamiyat a'zolarining ko'pchilik qismi fuqarolik jamiyati tom ma'noda amal qilishi uchun ichki ishlar organlari va fuqarolik jamiyati institutlari birgalikda harakat qilishi o'z samarasini beradi, buning uchun mazkur institutlarning hamkorligi davlat ijtimoiy siyosati darajasiga ko'tarilib, inson manfaatlarini borasidagi amaliy tashabbuslarni kengaytirish o'z samarasini

berishi kundek ravshan. Shuningdek, hamkorlikni takomillashtirish masalalarini rivojlantirish, ko'plab targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish, jamiyatni modernizatsiyaga undovchi tashabbuslarni ilgari surishlari kerak. Zero, jamiyatning rivoji ham ularning ta'sirchanligiga bevosita bog'liq.

Bunday tizimlar yordamida muayyan hududlarda jinoyat sodir etish xavfi, shuningdek, ijtimoiy muammolarning kelib chiqish sabablari va ularning kuchayish ehtimoli oldindan aniqlanadi. Natijada xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash, profilaktik chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish va manzilli yechimlar ishlab chiqish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa ichki ishlar organlari va ijtimoiy-ma'naviy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqib, jamiyatda qonun ustuvorligi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Hududlarda amaliy tadbirlarni ko'paytirish ham kutilgan natijani beradi. Xususan, mahallalarda infografik ma'lumotlar bilan huquqiy va ma'naviy treninglar tashkil etish; hayotiy misollar bilan kengaytirish, yangicha metodik uslubiy qo'llanmalarni ko'paytirish, jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy va ta'limiy ijtimoiy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan yo'nalishlarni kiritish, ma'naviy tadbirlarni kuchaytirish, ya'ni fuqarolar o'rtasida ma'naviyatni rivojlantiruvchi kitoblarni o'qishni jadallashtirish, namunali fuqaro, faol ichki ishlar xodimi ko'rsatkichlarini e'lon qilib borish orqali odamlarni ishontirish va qiziqtirish lozim. Bunda, muammolarga yuzaki tadbirbozlik tarzida qaramaslik, uning amaliy ahamiyatini oshirish samara beradi, shuningdek, har bir tashkilot va o'quv muassasalarida faol targ'ibotchi shaklida faoliyatini takomillashtirish, davlat ularga keng yo'l ochib berishi lozim, bu muammoni ko'proq fuqarolar o'zaro hal qilgani ma'qul. Qolaversa, aniq maqsadga yo'naltirilgan nazorat samaradorligini oshirish, insonga naf keltiruvchi ma'naviy tadbirlar ko'paytirish, aholini qiziqishini, umuman, fikrini o'rganish lozim, yana ayrimlari esa, ochiklik va hamjihatlilik, ijtimoiy o'zaro yordam mexanizmlarini takomillashtirish, aholining ma'naviy-siyosiy bilimlarini oshirish chora-tadbirlarini ko'paytirish, ruhiyatni ma'naviy oziqlantirilishi borasidagi muammolar yechimida amaliy tashabbuslarni ilgari surish zarur.

Qolaversa, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni, talab doirasida ishlasa o'zi yetarli, amaliy harakatlarida qat'iylik, xalqimiz bilan muloqotni ko'proq uyushtirish, ularni muammoli yechimlariga munosib yechim topib yuzasidan davra suhbatlarini ko'proq tashkil etish hamda ularning samarali faoliyat yurtishi, ochiklik, erkinlik, shaffoflik va asosiysi qonuniylikka asoslanishi ular faoliyati samaradorligini yanada oshirishga hissa qo'shadi.

Demak, ularning ham ijtimoiy, ham ma'naviy, ham siyosiy faoliyatini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlarni kengaytirish, birinchi navbatda, fuqarolarning mazkur xalqchil institutlarga bo'lgan ishonchini oshirsa,

shuning barobarida, fuqarolarning ijtimoiy-nazorat institutlari faoliyatiga keng ishtirokini amalga oshirishda qo'l keladi.

Zotan, fuqarolik jamiyati, o'z navbatida, demokratik jamiyatdir. To'g'rirog'i, yetarlicha rivojlangan institutlariga ega bo'lgan jamiyat. Bunday jamiyatda davlat va jamiyat hayotining barcha muhim masalalari hal etilishi asosiy maqsad qilib olinadi. Ularning maqsad va vazifalari bevosita xalq tomonidan yoki ularning keng va faol ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati huquqiy jamiyat, ya'ni qonun ustuvor bo'lgan, insonning tabiiy huquqlari tan olingan va ta'minlangan, huquqiy qonunlar amal qiladigan jamiyatdir. Bunday holatda jamiyat o'z faoliyatida qonun bilan bog'langan huquqiy davlatga tayanadi. Boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyati qonun ustuvorligi amalga oshishi kerak bo'lgan jamiyatdir.

Bugungi islohotlar, davlat bosh dasturlari va asosiy hujjatlarida jamiyatda ma'naviy asoslarni rivojlantirish, umuman, jamiyat barqarorligiga erishishning yetakchi yo'llari va omillarini amaliy faoliyatda qo'llash borasida samarali va tizimli ishlar qilinayotganligiga qaramasdan, yaratilgan natijadorlikka erishish oson ketmayotir.

Ayni shu maqsaddan kelib chiqib, xususan, bugunga kunda yoshlar o'rtasida muntazam va surunkali avj olayotgan mavjud ijtimoiy-ma'naviy muammolar, erta tug'ruq, erta nikoh, jinoyatchilik va ma'rifatdan uzoqlashish, xotin-qizlar o'rtasidagi bezorilik, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik, ma'naviy bozorning rivojlanishi, odam savdosi, "ommaviy madaniyat" va boshqa shu kabi sotsial illatlarning avj olishini cheklash va bunga qarshi tizimli pragmatik choralarni qo'llashni yoqlab chiquvchi zarur milliy konsepsiyani ishlab chiqish va amaliy jarayonlarga qo'llash zarur hisoblanadi.

Xususan, "Oila – ta'lim muassasalari – mahalla – yoshlar tashkilotlari – xotin-qizlar faoliyatini yoqlab chiquvchi muassasalar – ichki ishlar organlari" formulasi asosida jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorligi erishish, bunda avvalo, yoshlarda ma'naviy, huquqiy va siyosiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan, shuningdek, ma'naviy-mafkuraviy tashqi va ichki tahdidlarning oldini olish va unga qarshi kurashishning yangi ma'naviy-siyosiy texnologiyasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadigan, Adliya vazirligidan ro'yxatidan o'tadigan "Jamiyat barqaror taraqqiyotni ta'minlashda ijtimoiy-ma'naviy asoslarni rivojlantirishning milliy konsepsiyasi"ni yaratish zarur. Konsepsiyaning zarurligi quyidagilar bilan izohlanadi:

– mamlakatimizda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash, xususan, xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, qonun

ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadidan kelib chiqadi;

– jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar bo'lmish mamlakat va jamiyat taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, korrupsion holatlar, milliy qadriyatlarga nisbatan bepisandlik holatlariga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqishni nazarda tutadi;

– dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur o'rganish va jamiyat barqaror taraqqiyotini izdan chiqarishga qaratilgan boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish maqsadida davlat va fuqarolik jamiyatining institutining hamkorligi asosidagi chora-tadbirlar kuchaytiriladi;

– shonli tariximiz, milliy ma'naviy meros, milliy urfodatlar va an'alarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha amaliy loyiha va targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiqishni nazarda tutish;

– ma'rifiy targ'ibotni kuchaytirish, xususan, yoshlar o'rtasida jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini rivojlantirishning qadriyatini va zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish, bunda davlat boshqaruv tashkilotlari bilan ma'naviy-madaniy mussasalar ma'rifiy hamkorligini kuchaytirish choralari ko'rishni nazarda tutadi.

Bu, o'z navbatida, jamiyat ijtimoiy-siyosiy texnologiyasi sifatida mamlakat barqaror rivoji uchun muhim asoslarga ega bo'lgan konsepsiya sifatida amal qilishiga olib keladi.

Qolaversa, konsepsiya ma'naviy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish: ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash;

ijtimoiy adolat va tenglikni ilgari surish; madaniyat va ma'rifatni rivojlantirishni yoqlab chiqish; milliy birdamlik, hamjihatlik va o'zaro hurmatni rivojlantirish; ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash; yoshlar faolligi va faol fuqarolikni yuzaga chiqarish; ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga erishishni maqsad qilib oladi.

Jamiyatning ijtimoiy va axloqiy o'zgarishlarga chidamliligini, madaniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlashni, shuningdek, tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlashni anglatadi. Barqaror ma'naviy muhit, faqat iqtisodiy yoki siyosiy barqarorlik bilan cheklanmay, shaxslarning axloqiy kompaslarini ham muhofaza qiladi. Bu muhit jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun asosiysi hisoblanadi.

Ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik, aholi salomatligi va psixologik holatiga ham bog'liq. Aholining salomatligini yaxshilash, sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish va psixologik xizmatlarni kengaytirish zarur.

Bundan konsepsiyaning ishlab chiqilib, qabul qilinishi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida fuqarolik jamiyatining rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash va bohalash, davlat va jamoat tashkilotlari, ijtimoiy-ma'naviy va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining huquqiy asoslari va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash (grantlar, subsidiyalar, ijtimoiy buyurtmalar, ijtimoiy-ma'rifiy ishlanmalar va ularni tijoratlashtirish masalalari), davlat va jamiyat a'zolari o'rtasidagi legitimlikni rivojlantirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, fuqarolarning qaror qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish, oila instituti, yoshlar tashkilotlari, mahalla tizimi va xotin-qizlar birlashmalarining o'zaro hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish, ijtimoiy nazorat va ma'naviy institutlarni raqamlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va



ularning media makondagi faolligini oshirish kabi istiqbol rejalarini tizimli ishlab chiqib, uning amaliy asoslarini yo'lga qo'yishda zarur hisoblanadi.

Xususan, Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida, jumladan, Strategiyaning 71-maqsadida ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari” g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish maqsad qilib keltirilgan. Bu o'rinda “Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish, aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy ma'rifiy tadbirlarni halqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish choralarini ko'rish va boshqa vazifalar ko'rsatib o'tilgan. Mazkur tashabbus va maqsadlarni amalga oshirish nafaqat jamiyatning barqaror taraqqiyotga erishish darajasini belgilab olishda, bundan tashqari, ijtimoiy davlat kategoriyasining sifat ko'rsatkichlarini tizimlashtirgan holda “faol fuqarodan faol jamiyat sari” konsepsiyasini yuzaga chiqarishga asos bo'ladi.

Zero, bugun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitusiyaviy, iqtisodiy-ijtimoiy va ma'naviy-mafkuraviy islohotlar ham oxir-oqibat shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar uyg'un va samarali bo'lishini ko'zlaydi. Demak, inson taraqqiyotining muhim manbalari sirasiga samarali mehnat, barqaror taraqqiyot turar ekan bunday sharoitda jamiyat hayotiga tegishli masalalar sirasiga ijtimoiy-siyosiy faoliyatni rivojlantirish masalasi ham o'z dolzarbligini va ahamiyatini hamon oshirib boraveradi. Bunda davlat organlari, xususan, ichki ishlar organlari va ijtimoiy-ma'naviy institutlar tajribasi va amaliy harakatlaridan samarali foydalanish zarur hisoblanadi.

Har qanday siyosiy faoliyat jamiyatning ijtimoiy hayot tarzidan, insonlarning jamiyat yetarli mavqe va ijtimoiy o'ringa ega bo'lishi bilan ham belgilanadi. Ya'ni, “O'zbekistonning yangi ma'naviy qiyofasi” tushunchasi nafaqat bugungi kundagi islohotlar natijasida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar va yangilanishlarning natijasi, balki xalqimizning asrlar davomidagi tabiiy tarixiy rivojlanishi, tafakkur tarzi, hayotiy tamoyillari, madaniy merosi, umumetnik omillar, mezonlar ta'sirida shakllangan fenomendir. Vaholanki, bugungi jadal islohotlar jarayonida mamlakatning taraqqiyot yo'nalishlari, ijtimoiy siyosat yuritish strategiyalari, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy rivojlanishning o'ziga mos yo'nalishlarida tizimli ishlar kechayotganligini ta'kidlab o'tish lozim. Bu jarayonlarning tizimli kechishida ichki ishlar organlari bilan ijtimoiy-ma'naviy institutlar o'rtasidagi hamkorlik jamiyat barqarorligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish va aholi xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olganda o'zaro hamkorlik umummilliy masalaga aylanmoqda. Ushbu hamkorlikning istiqboli, avvalo, uning zamonaviy talablar asosida takomillashib borishi, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalar bilan boyitilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Holbuki, bugungi kunda ichki ishlar organlari va ijtimoiy-ma'naviy institutlarning hamkorlikdagi faoliyatini raqamli tizimga o'tkazish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada ichki ishlar organlari va ijtimoiy-ma'naviy institutlar faoliyatida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, elektron hamkorlik platformalarini yaratish, aqli tahlil (smart analytics) tizimlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bunday faoliyatni yo'lga qo'yish orqali raqamli yechimlar yuzaga chiqib, jinoyatchilik holatlari, ijtimoiy muammolar va xavfli tendensiyalarni real vaqt rejimida kuzatish imkoni yaratiladi. Natijada, ijtimoiy faoliyatda tizimli ishlash, progmatik targ'ibot texnologiyalarni qo'llash samaradorligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедов Х. Ўзбекистонда жамият маънавий ҳаётидаги ўзгаришлар динамикаси (ижтимоий-сиёсий таҳлил). Сиёс.фан.док... дисс. – Т.: 2018. – Б. 35.
2. Qarang: Актуальные проблемы теории государства и права: учеб. пособие / Н.А.Пьянов. 2-е изд., перераб. и доп. – Иркутск: Изд-во ИГУ, 2011. –С. 92–93.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон)
4. А.Эркаев. Орзудаги фозил жамият. “Тафаккур” ижтимоий-фалсафий, маънавий-маърифий журнал. 2022, №4 (113). – Б. 16.
5. Э.Б.Хайтов. Жамият маънавий юксалишида инновацион сиёсатнинг ўрни. Сиёс.фан.бўй.фалс.докт. (PhD) ...дисс.автореф. – Т.: 2021. – Б. 18.

Abdijabbor ABJALOV,

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Maxsus-kasbiy fanlar kafedrası professori, s.f.b.f.d. (PhD),
dotsent, podpolkovnik*

TRANSMILLIY JINOIY GURUHLARNING SHAKLLANISHI VA ULARGA QARSHI KURASHISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida transmilliy uyushgan jinoyatchilikning shakllanishi, uning iyerarxik tuzilishi hamda o'ziga xos kriminologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kiberjinoyatchilik va "Darknet" kabi zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashishda xalqaro konvensiyalar va ikki tomonlama bitimlarning huquqiy ahamiyati ko'rib chiqilib, tezkor-qidiruv hamda profilaktik tadbirlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *transmilliy jinoyatchilik, uyushgan jinoiy guruh, iyerarxiya, globallashuv, kiberjinoyatchilik, Darknet, xalqaro hamkorlik, profilaktika, huquqiy yordam, jinoiy submadaniyat.*

Аннотация: в данной статье анализируются формирование, иерархическая структура и специфические криминологические особенности транснациональной организованной преступности в условиях глобализации и развития цифровых технологий. В исследовании рассматривается правовое значение международных конвенций и двусторонних соглашений в борьбе с современными угрозами, такими как киберпреступность и «Даркнет», а также выдвигаются научно-практические рекомендации по совершенствованию оперативно-розыскных и профилактических мероприятий.

Ключевые слова: *транснациональная преступность, организованная преступная группа, иерархия, глобализация, киберпреступность, Даркнет, международное сотрудничество, профилактика, правовая помощь, криминальная субкультура.*

Annotation: this article analyzes the formation, hierarchical structure, and specific criminological characteristics of transnational organized crime in the context of globalization and the development of digital technologies. The study examines the legal significance of international conventions and bilateral agreements in combating modern threats such as cybercrime and the "Darknet," and puts forward scientific and practical recommendations for improving operational-search and preventive measures.

Key words: *transnational crime, organized criminal group, hierarchy, globalization, cybercrime, Darknet, international cooperation, prevention, legal assistance, criminal subculture.*

Globallashuv davrida transmilliy uyushgan jinoyatchilik nafaqat alohida davlatlar, balki butun insoniyat xavfsizligiga tahdid soluvchi yangi chaqiriqqa aylandi. Jinoiy guruhlarining an'anaviy chegaralardan chiqib, xalqaro miqyosda tarqalishi ularning iyerarxik tuzilishi va moliyaviy manfaatdorlikka asoslangan strategiyalari bilan bog'liqdir. Zamonaviy texnologiyalar va raqamli infratuzilmalarning rivojlanishi jinoiy uyushmalarga masofadan turib harakat qilish va o'z faoliyatini konspiratsiya asosida yuritish imkonini bermogda. Bunday sharoitda jinoiy tuzilmalarning shakllanishini o'rganish va ularga qarshi keskin huquqiy choralarni belgilash davlat boshqaruvi hamda xalqaro barqarorlikni ta'minlashning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Transmilliy uyushgan jinoiy guruhlarining tarkibiy tuzilishi va iyerarxik shakllanish qonuniyatlarini anglash, bugungi kunda xavfsizlik tizimini to'g'ri yo'naltirishning bosh omili hisoblanadi. Jinoiy tuzilmalar o'z tabiatiga ko'ra doimiy rivojlanishda bo'lgan tirik ijtimoiy organizm kabi harakat qiladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, jinoiy guruhlarining rivojlanishi oddiy shakldagi guruhlardan murakkab jinoiy uyushmalarga qarab bosqichma-bosqich amalga oshadi. Bu jarayonda guruhlar oraliq va o'tish bosqichlarini bosib o'tadi va har doim ham qonunda belgilangan klassik turlarga aniq tushmasligi mumkin [6]. Shuni ta'kidlash joizki, jinoiy guruhning oddiy sheriklikdan professional tashkilotga aylanishi uning muvaffaqiyatli jinoiy faoliyati va ichki evolyutsiyasi bilan bevosita bog'liqdir.

Jinoiy guruhlarining murakkablashishi jarayonida eng muhim formallashgan mezon bu iyerarxik bo'g'inlarning sonidir. V.A. Brsoyan va A.A. Kryukovlarning tahlillariga ko'ra, uyushgan jinoiy guruhni jinoiy uyushmadan ajratib turuvchi asosiy belgi – iyerarxik zanjirning kamida uch bo'g'inli bo'lishidir [6].

Birinchi bo'g'in – strategik qarorlar qabul qiluvchi va yakuniy so'zga ega bo'lgan rahbar yoki yetakchi hisoblanadi. Ikkinchi bo'g'in esa rahbarga eng yaqin bo'lgan va muayyan yo'nalishlar (masalan, ta'minot yoki kadrlarni tanlash) uchun mas'ul bo'lgan o'rinbosarlardan

iborat bo'ladi. Uchinchi bo'g'in – bevosita ijrochilar bo'lib, ular o'z faoliyati bo'yicha faqat o'zlariga birlashtirilgan o'rinbosarlarga hisob beradilar. Bundan kelib chiqadiki, uch bo'g'inli tizim rahbari bevosita jinoyat maydonidan uzoqlashtiradi, bu esa guruhning nafaqat xavfsizligini, balki uning jamiyatning yuqori qatlamlariga kirib borish imkoniyatini ham oshiradi.

Jinoiy tuzilmaning barqarorligini ta'minlovchi ichki omil bu rollar taqsimoti va qat'iy intizomdir. V.V. Denisovichning fikricha, jinoiy uyushmalar ichidagi strukturaviy bo'linmalar hududiy yoki funksional jihatdan ajratilgan bo'lishi lozim. Ilmiy qarashlariga ko'ra, bunday bo'linmalar faqat butun uyushmaning umumiy maqsadlari va manfaatlari yo'lida harakat qiladi [7]. Bundan ko'rinadiki, har bir ijrochi o'z vazifasini aniq bilishi va undan tashqariga chiqmasligi tizimning yaxlitligini ta'minlaydi.

Yana bir tadqiqot ishida ta'kidlanishicha, jinoiy uyushma kamida ikkita nisbatan mustaqil bo'lgan uyushgan guruhning birlashishidan iborat bo'lishi va ular yagona boshqaruv organi orqali muvofiqlashtirilishi kerak [8]. Demak, murakkab jinoiy tizimlarda guruhlar ichida ham o'ziga xos iyerarxiya mavjud bo'lib, bu ularning keng ko'lamli operatsiyalarni o'tkazish qobiliyatini belgilaydi.

Guruh ichidagi intizom masalasida V.V. Denisovich qat'iy qoidalar va jazo tizimining mavjudligini alohida qayd etadi. Uning qarashlariga ko'ra, intizomni buzgan ishtirokchilar nafaqat guruhdan chiqarib yuboriladi, balki ularga nisbatan jismoniy va moddiy sanksiyalar qo'llaniladi [7]. Shuni ta'kidlash joizki, jinoiy iyerarxiyada shaxsiy munosabatlarning ishbilarmonlik va jinoiy manfaatlarga asoslangan aloqalar bilan almashishi guruhning ichki jipsligini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 29-moddasida uyushgan guruh va jinoiy uyushma tushunchalari aniq mustahkamlangan bo'lib, unda ishtirokchilarning oldindan birlashishi va faoliyatning tizimliliigi asosiy mezon sifatida ko'rsatilgan [2]. Jinoiy guruhning oddiy sheriklikdan murakkab uyushmaga o'tishi faqat son jihatidan emas, balki ushbu bo'g'inlarning sifat jihatidan shakllanishi va mas'uliyatning aniq taqsimlanishi bilan izohlanadi. Zero, jinoiy tizim qanchalik ko'p bo'g'inli bo'lsa, uning ijtimoiy xavfliligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi transmilliy jinoyatchilikning mazmun va shakl jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi. Zamonaviy sharoitda jinoiy faoliyat endilikda muayyan bir davlat sarhadlari bilan cheklanib qolmasdan, global axborot tarmoqlari orqali dunyoning istalgan nuqtasiga kirib bormoqda.

BMTning "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyasiga muvofiq, jinoiy harakat agar u bir nechta davlatlarda sodir etilsa yoki bir davlatda sodir etilib, uni rejalashtirish va boshqarishning muhim qismi boshqa davlatda

amalga oshirilsa, transmilliy xususiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, jinoiy guruhlar o'z faoliyatini bir davlatda amalga oshirib, uning asosiy oqibatlarini boshqa davlatda yuzaga keltirishi mumkin [5]. Shu bois, zamonaviy jinoyatchilik "eksterritorial" xarakterga ega bo'lib, davlat chegaralari jinoyatchilar uchun to'siq bo'lolmay qolmoqda.

Raqamli makondagi eng xavfli maydonlardan biri bu Darknet tizimidir. A.R. Arslanovanning ilmiy qarashlariga ko'ra, Darknet – bu internetning yashirin segmenti bo'lib, unda aloqa zanjiri shifrlangan holda va maxsus brauzerlar yordamida o'rnatiladi. Muallifning fikricha, bu tizim jinoyatchilarga anonimlik va izlarni yashirish uchun ideal internet-maydon taqdim etadi [9]. Demak, Darknet imkoniyatlari nafaqat narkotik va qurol savdosini, balki odam savdosi va ekstremistik g'oyalarni tarqatishni ham nazoratsiz qoldirmoqda.

Shu bilan birga, kiberjinoyatchilikning o'sish sur'atlari global xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Tahlillarga ko'ra, kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlar soni yuqori darajada ortib bormoqda [10]. Tadqiqotchi kiberjinoyatchilikni kompyuter tizimlari va ma'lumotlarining maxfiyligi hamda yaxlitligiga qarshi yo'naltirilgan harakatlar sifatida ta'riflaydi. Texnologik innovatsiyalar jamiyatga nafaqat qulaylik, balki "raqamli viktimizatsiya" xavfini ham olib keldi.

Jinoiy faoliyatning yana bir muhim jihati bu noqonuniy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishdir. Tadqiqotlarda Darknetdagi to'lovlar asosan, kriptovalyutalarda amalga oshirilishi va bu mablag'larni naqdashtirishning maxsus sxemalari mavjudligi ta'kidlangan [9]. Uyushgan jinoyatchilik o'z daromadlariga legallashtirish uchun tadbirkorlik subyektlaridan foydalanadi va iqtisodiy tizimga chuqur kirib boradi. Jinoiy daromadlarni yuvishning zamonaviy usullari virtual aktivlar va qonuniy biznes tuzilmalarini birlashtirgan holda murakkab moliyaviy zanjirlarni hosil qilmoqda. Fikrimizcha, transmilliy jinoiy harakatlarning texnologik rivoji huquqni muhofaza qiluvchi organlardan nafaqat jismoniy, balki yuqori texnik tayyorgarlikni va xalqaro axborot almashinuvini kuchaytirishni talab etadi.

Globallashuv sharoitida jinoyatchilikning masofaviy va konspirativ xususiyatlarini jilovlash uchun yagona raqamli nazorat mexanizmlarini yaratish obyektiv zaruriyatdir.

Xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslari va ikki tomonlama bitimlarning amaliy ahamiyati transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy poydevori hisoblanadi. Bugungi kunda jinoiy guruhlarining faoliyati chegara bilmasligi sababli davlatlarning o'zaro huquqiy yordam ko'rsatishi va vakolatli organlarning bevosita aloqalarini yo'lga qo'yishi obyektiv zaruriyatga aylandi.

Bu boradagi global huquqiy asos sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2000-yil 15-noyabrdagi "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyasi alohida ahamiyat kasb

etadi. Mazkur xalqaro hujjat uyushgan jinoiy guruh tushunchasini va jinoyatning transmilliy xususiyatlarini aniq belgilab bergan [1]. Konvensiya davlatlar uchun jinoyatchilikka qarshi kurashda yagona terminologiya va standartlarni joriy etish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan tuzgan ikki tomonlama bitimlari hamkorlikning amaliy mexanizmlarini belgilab beradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Saudiya Arabistoni Podshohligi Hukumati o'rtasidagi terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim vakolatli organlar o'rtasida axborot almashinuvini ko'zda tutadi. Bitimga ko'ra, tomonlar jinoyatlarni sodir etish usullari va ta'qib ostidagi shaxslar haqida ma'lumot almashadilar [3]. Bundan kelib chiqadiki, tezkor ma'lumotlarning bevosita almashinuvi jinoyatlarni issiq izidan fosh etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Vyetnam Sotsialistik Respublikasi Hukumati o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim hamkorlikning keng qamrovli shakllarini belgilaydi. Ushbu hujjatda nafaqat axborot almashish, balki ekspertlar guruhlarini almashish va huquq-tartibot organlari xodimlarini tayyorlash bo'yicha ko'mak berish mexanizmlari ham aks etgan [4]. Fikrimizcha, bunday kelishuvlar davlatlararo ishonchni mustahkamlab, jinoyatchilikning yangi turlariga qarshi birgalikda tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi.

Bitimlarda huquqiy yordam ko'rsatish mexanizmlari ham aniq belgilangan. Masalan, Vyetnam bilan tuzilgan bitimning 6-moddasida so'rov asosida axborot berish tartibi va so'rovnoma bo'lishi lozim bo'lgan majburiy rekvizitlar ko'rsatilgan. Shu bilan birga, Saudiya Arabistoni bilan bitimda axborotning maxfiyligini ta'minlash va uni uchinchi tomonga bermaslik kafolatlari mustahkamlangan. Shu bois, xalqaro hamkorlik nafaqat jinoyatchilarni tutish, balki davlat sirlari va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillariga ham asoslanadi.

Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda tezkor-qidiruv va profilaktik choralarni takomillashtirish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan zaruriyatidir. Transmilliy jinoiy guruhlarining faoliyati tobora murakkablashib borayotgan bir sharoitda, an'anaviy kurash usullarini yangicha taktik yondashuvlar va texnologik yechimlar bilan to'ldirish lozim.

Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning eng muhim yo'nalishlaridan biri jinoiy guruh yetakchilarining javobgarligini kuchaytirish masalasidir. Jinoiy tuzilma rahbarlari ko'pincha bevosita jinoyat maydonidan uzoqda bo'lganliklari sababli ularning jinoiy faoliyatini isbotlash va tegishli jazoga tortish murakkab jarayon hisoblanadi. Ilmiy tahlillarga asosan, jinoiy guruhni tashkil etish va unga rahbarlik qilish faktining o'zi mustaqil jinoyat tarkibi sifatida qat'iy sanksiyalar bilan jazolanishi kerak [6]. Shuni ta'kidlash joizki, jinoiy iyerarxiyaning yuqori bo'g'inini zaiflashtirish orqali butun tuzilmaning

faoliyatini falaj qilish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, qonunchilikda uyushma yetakchilari uchun jazo choralarini maksimal darajada oshirish jinoyatchilikning ildiziga bolta urish bilan barobardir.

Tezkor-qidiruv faoliyatining samaradorligini oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik bazasini mustahkamlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. V.S. Kuvshinovanning tahlillariga ko'ra, kiberjinoyatchilik va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lami ortib borayotgan bir paytda, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining texnik savodxonligini oshirish va maxsus texnik uskunalar bilan ta'minlanishi strategik vazifadir [10]. Tadqiqotchining fikricha, jinoyat olami ilm-fan yutuqlaridan foydalanayotgan ekan, davlat organlari bu borada ulardan bir qadam oldinda yurishi shart. Demak, zamonaviy raqamli laboratoriyalar va kriminalistik texnika vositalarisiz transmilliy guruhlariga qarshi muvaffaqiyatli kurashib bo'lmaydi.

Shuningdek, xalqaro miqyosda tan olingan nazorat ostida yetkazib berish kabi maxsus taktikalarni qo'llash yuqori natija beradi. O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Vyetnam Sotsialistik Respublikasi Hukumati o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitimda ushbu usulning ahamiyati alohida qayd etilgan. Ushbu taktika noqonuniy muomaladagi tovarlarni (masalan, giyohvandlik vositalarini) nazorat ostida manzilga yetib borishiga yo'l qo'yish orqali butun jinoiy zanjirni va uning ijrochilarini aniqlash imkonini beradi. Shuni ta'kidlash joizki, faqatgina bitta kuryerni ushlab bilan cheklanmay, balki yukni qabul qilib oluvchi va uni jo'natuvchi asosiy shaxslarni fosh etish uchun bunday taktik amaliyotlar ko'lamini kengaytirish lozim.

Profilaktik choralar doirasida yoshlar orasida jinoiy submadaniyat tarqalishining oldini olish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ilmiy qarashlarga ko'ra, uyushgan jinoiy guruh vakillarining hashamatli hayot tarzi va ko'cha yechimlari orqali muammolarni hal qilishi yoshlarda noto'g'ri qadriyatlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Yoshlarning jinoyat olamiga kirib qolishining oldini olish uchun ularda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish zarur [5]. Demak, jinoiy to'dalarga taqlid qilishning salbiy oqibatlarini tushuntirish nafaqat huquqbuzarliklarning, balki kelajakda yangi jinoiy guruhlar shakllanishining oldini oladi.

Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishni takomillashtirish uchun jazoning muqarrarligini ta'minlash bilan birga, yuqori texnologiyalarga asoslangan tezkor qidiruv usullarini joriy etish va yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Faqatgina kompleks yondashuv transmilliy jinoiy xavf-xatarlarni bartaraf etish va jamiyat barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, transmilliy uyushgan jinoyatchilik globallashtirish va raqamli inqilob davrida o'zining yangi, yanada xavfli qiyofasini kasb etmoqda. Jinoiy guruhlarining murakkab iyerarxik tuzilmasi va masofaviy harakat qilish imkoniyatlari ularga davlat



chegaralarini mensimasdan faoliyat yuritish imkonini bermogda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday guruhlar nafaqat moddiy manfaat ko'rishni, balki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy asoslariga raxna solishni maqsad qilgan. Ushbu tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun faqatgina milliy choralar yetarli emas. BMT Konvensiyasi va ikki tomonlama xalqaro bitimlar axborot almashinuvi hamda tezkor hamkorlik uchun zarur huquqiy bazani ta'minlaydi. Biroq, amaliy natijalarga erishish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik bazasini

muntazam yangilab borish, Darknet va kripto-aktivlar kabi zamonaviy vositalarni jilovlash taktikalarini o'zlashtirish lozim.

Shu bilan birga, profilaktika masalasi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida jinoiy submadaniyatga nisbatan immunitetni shakllantirish strategik ahamiyatga ega. Faqatgina qat'iy qonunchilik, yuqori texnologik imkoniyatlar va keng ko'lami xalqaro hamkorlikning uyg'unligi transmilliy jinoiy tuzilmalar faoliyatiga chek qo'yish va jamiyat xavfsizligini kafolatlashning yagona yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2000-yil 15-noyabrdagi "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Saudiya Arabistoni Podshohligi Hukumati o'rtasida 2011-yil 30-avgustdagi "Terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga, shuningdek, boshqa jinoyatlarga qarshi kurash sohasida hamkorlik to'g'risida"gi bitim.
4. O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Vyetnam Sotsialistik Respublikasi hukumati o'rtasida 2010-yil 10-sentabrdagi "Terrorizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik va jinoyatning boshqa turlariga qarshi kurashda va ularning oldini olishda hamkorlik qilish to'g'risida"gi Bitim.
5. Qushboqov Shohrux Xasan O'g'li, Botirov Anvar Husan O'g'li Uyushgan jinoyatchilik tushunchasi va unga qarshi kurashishning o'ziga xos xususiyatlari // CAJMRMS. 2024. №8.
6. Брсоян Славик Астирбекович, Крюков Александр Андреевич Уголовно-правовые меры борьбы с организованной преступностью // Сибирский юридический вестник. 2004. №3.
7. Денисович Вероника Владимировна Понятие и признаки организованной преступности // Вестник Челябинского государственного университета. Серия: Право. 2021. №2.
8. Мондохонов А. Преступное сообщество (преступная организация): понятие, признаки и проблемы квалификации//Рос. Юстиция. 2003. №11. С.38.
9. Албина Ринатовна Арсланова Даркнет как площадка для совершения преступлений // Закон и право. 2022. №7.
10. Кувшинова В. С.Криминологическая характеристика кибер-преступности // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2020. №5-4.

Gulsanam RO'ZIYEVA,

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi dotsenti, s.f.b.f.d. (PhD), podpolkovnik

RAQAMLI MAKONDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY VA SAMARALI MEXANIZMLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada raqamli makonda huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning huquqiy va texnologik mexanizmlari, xususan, qonunchilik asosida vakolatli organlarning strategik vazifalari hamda muhim axborot infratuzilmasi ob'ektlarini himoya qilish masalalari tizimli tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mahalla darajasida profilaktika inspektorlarining faoliyatini raqamlashtirish, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari yordamida kiberjinoynatlarni prognoz qilish hamda aholining viktimologik himoyasini ta'minlashning zamonaviy istiqbollari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kiberxavfsizlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, raqamli patrul, muhim axborot infratuzilmasi, sun'iy intellekt, Big Data, blokcheyn, kiberviktimologiya, raqamli mahalla.

Аннотация: в данной статье проводится системный анализ правовых и технологических механизмов организации профилактики правонарушений в цифровом пространстве, в частности, стратегических задач компетентных органов на основе законодательства и вопросов защиты объектов критической информационной инфраструктуры. Наряду с этим, научно обоснованы современные перспективы цифровизации деятельности инспекторов профилактики на уровне махалли, прогнозирования киберпреступлений с помощью технологий искусственного интеллекта и Big Data, а также обеспечения виктимологической защиты населения.

Ключевые слова: кибербезопасность, профилактика правонарушений, цифровой патруль, критическая информационная инфраструктура, искусственный интеллект, Big Data, блокчейн, кибервиктимология, цифровая махалля.

Annotation: this article provides a systematic analysis of the legal and technological mechanisms for organizing crime prevention in the digital space, specifically focusing on the strategic tasks of competent authorities based on legislation and the issues of protecting critical information infrastructure objects. Furthermore, it scientifically substantiates modern prospects for digitalizing the activities of prevention inspectors at the mahalla level, forecasting cybercrimes using Artificial Intelligence and Big Data technologies, and ensuring the victimological protection of the population.

Key words: cybersecurity, crime prevention, digital patrol, critical information infrastructure, artificial intelligence, Big Data, blockchain, cyber-victimology, digital mahalla.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Biroq virtual makon kengaygani sari kiberjinoynatchilikning yangi va murakkab turlari ham jadal rivojlanmoqda. So'nggi yillarda dunyo miqyosida, xususan, O'zbekistonda ham bank kartalari va masofaviy xizmatlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar soni sezilarli darajada oshdi. Bu holat nafaqat iqtisodiy zarar yetkazadi, balki jamiyatning ijtimoiy va siyosiy barqarorligiga ham jiddiy xavf soladi. Endilikda an'anaviy profilaktika usullari raqamli tahdidlarga qarshi yetarli bo'lmay qoldi. Shu bois zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt va tizimli huquqiy mexanizmlarni qo'llagan holda kibermakonda xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va jamiyat hayotining barcha sohalariga raqamli vositalarning kirib kelishi kibermakonda xavfsizlikni ta'minlash masalasini davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. O'zbekiston Respublikasida bu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy poydevor sifatida O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi "Kiberxavfsizlik

to'g'risida"gi O'RQ-764-sonli qonuni xizmat qilmoqda. Ushbu hujjat kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishning yaxlit tizimini yaratishga qaratilgan.

Kiberxavfsizlik sohasidagi yagona davlat siyosati bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi [1]. Bu esa sohaning strategik ahamiyati naqadar yuqori ekanligini va umumdavlat miqyosidagi boshqaruv tizimiga ega ekanligini anglatadi. Davlat va jamiyat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim shartidir. Raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat qulaylik yaratadi, balki davlatning boshqaruv funksiyalarini himoya qilish bo'yicha yangi mas'uliyat yuklaydi. Demak, kiberxavfsizlik raqamli iqtisodiyotning xavfsizlik kamari bo'lib, usiz barqaror rivojlanishga erishib bo'lmaydi.

"Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi sifatida belgilangan. Vakolatli organ sifatida ushbu tuzilma sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish,

kiberxavfsizlik hodisalari yuzasidan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish va kiberhujumlarning oldini olish kabi keng qamrovli vazifalarni bajaradi.

Tadqiqotlarga ko'ra, huquqni muhofaza qilish organlari kiberjinoyatchilikning dinamik o'sishiga mos ravishda o'z usullari va vositalarini muntazam takomillashtirib borishlari lozim [8]. Darhaqiqat, kibertahdidlarning transchegaraviy va o'ta o'zgaruvchan tabiati vakolatli organlardan nafaqat kuzatuvchi, balki texnologik jihatdan bir qadam oldinda bo'luvchi islohotchi rolini talab qiladi. Bundan ko'rinadiki, Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatlari faqat ma'muriy nazorat bilan cheklanmay, sohaning ilmiy-texnik rivojini belgilab beruvchi strategik markaz vazifasini ham o'taydi.

Davlat siyosatining yana bir muhim jihati bu kiberxavfsizlik tizimini yaratishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokining ustuvorligidir. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunining 8-moddasida davlat organlari uchun tovar va xizmatlar xarid qilishda mahalliy mahsulotlarga ustuvorlik berilishi mustahkamlab qo'yilgan. A.A. Gadjiyevaning ilmiy qarashlariga ko'ra, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda jinoiy-huquqiy instrumentlardan samarali foydalanish va qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirish lozim [9]. Bundan xulosa qilish mumkinki, texnologik suverenitetga erishish va mahalliy dasturiy ta'minotlarni qo'llab-quvvatlash kiberxavfsizlikning huquqiy himoyasi bilan uyg'unlashishi kerak. Tashqi texnologik bog'liqlikni kamaytirish davlatning raqamli barqarorligini ta'minlashning eng samarali yo'lidir.

Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi ham strategik ahamiyatga ega. Qonunchilikda O'zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlikni ta'minlashda xalqaro hamkorlik uchun ochiqligi prinsipi alohida qayd etilgan [1]. Tadqiqotlar ham shuni ko'rsatadiki, jahon kiberjinoyat indeksida (WCI) mamlakatlarning o'rini o'rganish va xorijiy tajriba asosida qonunchilikni doimiy takomillashtirib borish zarur [4]. Demak, milliy xavfsizlikni ta'minlashda faqat ichki resurslarga tayanish kifoya emas, xalqaro axborot almashinuvi va global kiberxavfsizlik standartlariga integratsiyalashuv davr talabidir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-sonli qonuni kibermakondagi huquqbuzarliklarning oldini olishda boshqa davlat organlari, jumladan, Ichki ishlar vazirligi va boshqa tuzilmalarning ham o'zaro hamkorlik qilishini nazarda tutadi [2]. Profilaktika inspektorlarining raqamli jinoyatlarni aniqlashdagi roli jamiyatda kiber-madaniyatni shakllantirish bilan bevosita bog'liq. Kiberxavfsizlikning huquqiy mexanizmi nafaqat yuqori texnologik himoyani, balki quyi bo'g'indagi ijrochilarning huquqiy va raqamli savodxonligini ham ta'minlashi shart.

Kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy islohotlar faqatgina bitta qonun bilan cheklanib qolmay, barcha davlat idoralarning tizimli hamkorligini va milliy manfaatlarni

xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Davlat siyosatining qat'iy belgilangani esa raqamli kelajakning ishonchli himoyasini kafolatlaydi.

Zamonaviy raqamli makonda davlatning barqarorligi bevosita muhim strategik va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tizimlarning himoyalanganlik darajasiga bog'liq. Qonunchilik hujjatlarida muhim axborot infratuzilmasi tushunchasiga aniq ta'rif berilgan bo'lib, u davlat boshqaruvi, mudofaa, bank-moliya, energetika va sog'liqni saqlash kabi hayotiy muhim sohalarida qo'llaniladigan axborot tizimlari majmuini anglatadi [1].

Ushbu tizimlarni himoya qilishning birinchi va eng muhim bosqichi ularni toifalash hisoblanadi. Muhim axborot infratuzilmasi obyektlari o'z ahamiyatiga ko'ra yuqori, o'rta va past darajadagi toifalarga bo'linadi. Vakolatli davlat organi ushbu obyektlarni toifalash mezonlarini belgilaydi va ularning haqqoniyligini tekshiradi. R.R. Alimovanning fikricha, axborot tizimlarini muhimlik darajasiga ko'ra ajratish resurslarni to'g'ri taqsimlash va eng zaif nuqtalarga e'tibor qaratish imkonini beradi [7]. Darhaqiqat, barcha tizimlarni bir xil darajada himoya qilish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lishi mumkin. Demak, toifalash mexanizmi xavfsizlikni tizimli va manzilli tashkil etishning poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Toifalash jarayoni yakunlangach, obyektlar muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining yagona reestriga kiritiladi. Ushbu reestr vakolatli davlat organi tomonidan yuritiladi va undagi ma'lumotlar doimiy ravishda yangilab boriladi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, yagona reestrning mavjudligi davlat miqyosidagi kibertahdidlarni monitoring qilish va ularga tezkor javob qaytarish uchun markazlashgan ma'lumotlar bazasini yaratadi [10]. Bundan kelib chiqadiki, reestr nafaqat ro'yxatga olish vositasi, balki milliy kiberhimoya tizimining xaritasi vazifasini ham bajaradi. Bu esa inqirozli vaziyatlarda qaysi obyektlarga birinchi navbatda yordam berish zarurligini aniqlash imkonini beradi.

Kiberhimoyaning tashkiliy mexanizmida texnik vositalarni majburiy sertifikatlash alohida o'rin tutadi. Qonunchilikka binoan, muhim axborot infratuzilmasi obyektlarida qo'llaniladigan apparat va dasturiy vositalar majburiy tartibda sertifikatlashtirilishi shart [1]. Sertifikatlanmagan yoki xorijiy maxfiy imkoniyatlari bo'lgan qurilmalardan foydalanish texnologik tuzoqqa aylanishi mumkin. Shubhasiz, texnik vositalarning xavfsizlik talablariga muvofiqligini tekshirish tizimning ichki zaifliklarini minimallashtiradi. Demak, sertifikatlash jarayoni tizimga begona va zararli elementlar kirib qolishining oldini oluvchi filtr vazifasini o'taydi.

Kiberaudit va attestatsiya tizimi esa obyektning amaldagi himoyalanganlik holatini baholashning tashkiliy mexanizmidir. Muhim axborot infratuzilmasi obyektlari muntazam ravishda kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertiza va attestatsiyadan o'tkazilishi lozim. A.A. Gadjiyevanning fikricha, kiberaudit jarayoni faqatgina texnik ko'rik emas, balki tizimdagi tashkiliy

choralarning samaradorligini sinovdan o'tkazishdir [9]. Demak, texnik ko'rsatkichlar qanchalik yuqori bo'lmasin, ularni boshqaruvchi personalning malakasi va ichki siyosatning sifati muhim ahamiyatga ega. Bundan xulosa qilish mumkinki, muntazam baholash va attestatsiya tizimi muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini doimiy ravishda takomillashib borishga va yangi turdagi tahdidlarga tayyor turishga undaydi.

Muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini toifalash, reestrga kiritish va texnik vositalarni sertifikatlash milliy kiberxavfsizlikning tashkiliy asosini tashkil etadi. Ushbu mexanizmlarning izchil amal qilishi davlatning muhim tizimlarini tashqi va ichki raqamli tajovuzlardan himoya qilishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalarning jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi huquqni muhofaza qilish organlari, xususan, profilaktika inspektorlari zimmasiga yangi vazifalarni yuklamoqda. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-sonli qonuniga muvofiq, ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu faoliyatning eng muhim yo'nalishi – "raqamli mahalla" konsepsiyasini joriy etish va profilaktika inspektorlarini kibermakondagi o'ziga xos patrulga aylantirishdir.

Profilaktika inspektorlarining aholi bilan ishlashdagi roli endilikda faqat bevosita muloqot bilan cheklanmaydi. Tadqiqotlarga asosan, kiberjinoyatchilikning oldini olishda profilaktika inspektorlari nafaqat jismoniy joylarda, balki virtual muhitda ham faol ishtirok etishlari zarur [3]. Demak, inspektorning o'z mahallasidagi ijtimoiy tarmoq guruhlarida bo'lishi va aholi bilan elektron aloqa tizimlari orqali muloqot qilishi zamonaviy profilaktikaning ajralmas qismidir. Bundan kelib chiqadiki, "mahallabay" ishlash tizimi raqamli makonga ko'chishi kerak, chunki aksariyat firibgarlik va boshqa jinoyatlar aynan shu yerda boshlanadi.

Hududiy dasturlarni raqamlashtirish profilaktika tizimining samaradorligini oshiruvchi asosiy omildir. Qonunchilikda mahalliy davlat hokimiyati organlariga huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha hududiy dasturlarni tasdiqlash vakolati berilgan [2]. Kiberxavfsizlikni ta'minlashda huquqni muhofaza qilish tizimini raqamlashtirish, xususan, mahalla darajasidagi ma'lumotlar bazalarini yagona tizimga integratsiya qilish zarur. Shubhasiz, raqamlashtirilgan hududiy dasturlar profilaktika inspektoriga o'z hududidagi kriminogen vaziyatni masofadan tahlil qilish va potensial xavflarni barvaqt aniqlash imkonini beradi. Demak, raqamli patrul – bu faqat texnik vosita emas, balki ma'lumotlarga asoslangan strategik boshqaruv usulidir.

Kiberviktimologiya, ya'ni fuqarolarning kiberjinoyat jabrlanuvchisiga aylanib qolishining oldini olish choralari bugungi kunda eng dolzarb masaladir. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 44-moddasida viktimologik profilaktika chora-tadbirlari sifatida aholiga

nizolarni hal etish usullarini o'rgatish va jabrlanuvchilarni himoya qilish belgilangan. T. Mirzoyevning ta'kidlashicha, kiberjinoyatlarning oldini olish strategiyalarida aholining raqamli savodxonligini oshirish va kibergigiyena qoidalarini singdirish markaziy o'rin tutishi lozim [5]. Darhaqiqat, aksariyat fuqarolar oddiy xavfsizlik qoidalarini bilmasligi tufayli firibgarlar tuzog'iga tushmoqda. Demak, profilaktika inspektori har bir xonadonda bank kartasi kodini kimgadir berish – bu uy kalitini o'g'riga berish bilan teng ekanligini tushuntirishi shart. Bundan ko'rinadiki, viktimologik profilaktika bu kibermakondagi eng mustahkam qalqondir.

"Raqamli mahalla" konsepsiyasini joriy etish esa barcha yuqoridagi elementlarni birlashtiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, profilaktika inspektorlari faoliyatidagi yangi yondashuvlar zamonaviy axborot tizimlaridan foydalangan holda aholi xavfsizligini kafolatlashi lozim [6]. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-sonli qonuni va O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'RQ-764-sonli qonuni doirasida profilaktika inspektorlarining vakolatli organlar bilan kibertahdidlar bo'yicha axborot almashishi yo'lga qo'yilishi kerak. Profilaktika inspektorining faoliyati nafaqat mahalla ko'chalarida, balki raqamli makonda ham izchil davom etishi shart. Faqatgina "raqamli patrul" tizimi va viktimologik profilaktika choralarining uyg'unligi fuqarolarni zamonaviy kibertahdidlardan ishonchli himoya qila olishi mumkin.

Zamonaviy kibertahdidlarning murakkablashib borishi huquqni muhofaza qilish organlaridan nafaqat an'anaviy usullarni, balki eng ilg'or innovatsion texnologiyalarni qo'llashni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunida kiberxavfsizlikni ta'minlashda yagona davlat tizimini joriy etish va zamonaviy texnik vositalardan foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (Big Data) va blokcheyn texnologiyalari kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy vositalariga aylanib bormoqda.

Sun'iy intellekt yordamida axborot oqimlarini monitoring qilish va kiberhujumlarni oldindan prognoz qilish tizimning proaktiv himoyasini ta'minlaydi.

A. Eshqobilov va F.T. G'aniyevlarning fikricha, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari yordamida kiberjinoyatchilarni aniqlash va ularning harakatlarini oldindan bashorat qilish mumkin [3]. Darhaqiqat, AI algoritmlari tarmoqdagi millionlab tranzaksiyalar va ma'lumotlar almashinuvini soniyalar ichida tahlil qilib, shubhali faollikni inson aralashuvisiz aniqlash imkoniga ega. Demak, sun'iy intellekt nafaqat hujumni qaytarish, balki uning yuzaga kelish ehtimolini minimallashtirishda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bundan kelib chiqadiki, kelajakda kiberxavfsizlik tizimi to'liq avtonom ravishda o'zini o'zi himoya qiladigan intellektual mexanizmga aylanadi.

Big Data texnologiyasi esa kiberjinoyatchilik tendensiyalarini tahlil qilishda keng imkoniyatlar ochadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, katta ma'lumotlar yordamida profilaktika inspektorlari va vakolatli organlar kiberjinoyatlarning dinamikasini kuzatish va kelgusida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni prognoz qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar [9]. Kibermakonda axborotni to'plash va tahlil qilish jarayoni jinoyatlarni sodir etish sabablarini chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi. Shubhasiz, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali jinoyatchilarning raqamli izlarini topish va ularning sxemalarini fosh etish ancha osonlashadi. Demak, Big Data bu faqat statistik to'plam emas, balki kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning strategik razvedka vositasidir.

Blokcheyn texnologiyasini xavfsizlik tizimiga integratsiya qilish esa ma'lumotlarning yaxlitligi va o'zgarmasligini ta'minlashning eng istiqbolli yo'lidir. R.R. Alimovning ta'kidlashicha, kibertahdidlarga qarshi turishda blokcheyn texnologiyasidan keng foydalanish zarur. Blokcheynning markazlashtirilmagan tabiati ma'lumotlarni soxtalashtirish yoki ruxsatsiz o'zgartirish imkonini deyarli yo'qqa chiqaradi [7]. Fikrimizcha, blokcheyn texnologiyasini davlat reestrlari va muhim axborot infratuzilmasi obyektlariga joriy etish inson omili bilan bog'liq xavflarni keskin kamaytiradi. Zero, blokcheyn zanjiridagi ma'lumotni buzish uchun butun tizimni ishdan chiqarish talab etiladi, bu esa kiberjinoyatchilar uchun texnik jihatdan imkonsizdir.

Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda kadrlar salohiyatini rivojlantirish ham muhimdir. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi

qonunining 32-moddasida kiberxavfsizlik sohasida ilg'or texnologiyalarni joriy etish va kadrlar tayyorlashga ko'maklashish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi belgilangan. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining AI va Big Data vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini oshirish kiberjinoyatchilardan bir qadam oldinda bo'lishning asosiy shartidir. Demak, texnologiya qanchalik mukammal bo'lmasin, uni boshqaruvchi mutaxassisning malakasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qolaveradi. Sun'iy intellekt, Big Data va blokcheyn texnologiyalarining uyg'unlikda qo'llanilishi O'zbekistonning raqamli suverenitetini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu istiqbolli mexanizmlar nafaqat kibermakondagi huquqbuzarliklarni aniqlash, balki ularni ildizi bilan bartaraf etish uchun mustahkam texnologik zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli makonda huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish kompleks yondashuvni talab qiladigan ko'p qirrali jarayondir. Mustahkam huquqiy asoslarning yaratilishi, muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining toifalanishi va Davlat xavfsizlik xizmatining muvofiqlashtiruvchi roli ushbu tizimning poydevorini tashkil etadi. Shu bilan birga, mahalla darajasida profilaktika inspektorlarining "raqamli patrul" sifatidagi faoliyati va aholining viktimologik himoyasi jinoyatchilikning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt, Big Data va blokcheyn kabi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish esa tahdidlarni barvaqt aniqlash va texnik suverenitetni ta'minlash imkonini beradi. Faqatgina zamonaviy texnologiyalar, malakali kadrlar va xalqaro hamkorlikning uyg'unligi O'zbekistonning kibermakondagi xavfsizligini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'RQ-764-sonli qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-sonli qonuni.
3. Abdulla Eshqobilov, Farrux G'aniyev Profilaktika inspektorlarining kiberjinoyatchilikni oldini olish faoliyati // CAJMRMS. 2025. №6.
4. Shokirov Bekzod Sherzod O'g'li, Kiberjinoyatchilik sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirish // EJLFAS. 2024. №6.
5. Mirzoyev T. "Kiberjinoyatchilik va uning oldini olish strategiyalari". — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va huquq instituti nashriyoti, 2021.
6. Mustafayev R. "Profilaktika inspektorlari va ularning faoliyatidagi yangi yondashuvlar". — Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИБ академияси нашриёти, 2022.
7. Рената Равилевна Алимова Борба с киберпреступностью в Республике Узбекистан. Киберпреступность как вид мошенничества // CARJIS. 2022. №2.
8. Усачев С. И., Алиев Т. Ф. Киберпреступность: современное состояние и актуальные способы противодействия // Искусство правоведения. The art of law. 2023. №1 (5).
9. Гаджиева Айша Ансаровна Современная киберпреступность и проблемы ее профилактики // Проблемы экономики и юридической практики. 2023. №2.
10. Осипенко А.Л. Об участии органов внутренних дел в системе обеспечения кибербезопасности Российской Федерации // Общество и право. 2018. No 3 (65). С. 35–43.

Furqat XIDIROV,
Malaka oshirish instituti
maxsus-kasbiy fanlar kafedrası dotsenti, podpolkovnik

MAHALLA HUQUQ-TARTIBOT MASKANLARIDA XIZMAT OLIB BORUVCHI XODIMLARNING O‘ZARO HAMKORLIGI: VAZIFALAR TAQSIMOTI VA MAS’ULIYAT

Annotatsiya: ushbu maqolada mahalla huquq-tartibot maskanlarida xizmat olib boruvchi turli ichki ishlar organlari vakillarining o‘zaro hamkorligi, ularning vazifalari taqsimoti va mas’uliyat chegaralari tahlil qilingan. Xizmatlararo hamkorlikning tashkiliy va funksional asoslari, amaliy tajriba va mavjud muammolar ko‘rib chiqilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot maskanlar faoliyatining samaradorligini oshirishda xizmatlararo integratsiyaning huquqiy, tashkiliy va axborotiy jihatlarini mustahkamlash zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: mahalla huquq-tartibot maskanlari, xizmatlararo hamkorlik, vakolatlar taqsimoti, jamoat xavfsizligi, profilaktika, axborot almashinuvi, muvofiqlashtirish, huquqiy tartibot.

Аннотация: в данной статье проанализировано взаимодействие сотрудников различных подразделений органов внутренних дел, осуществляющих службу в махаллинских пунктах правопорядка, а также распределение их обязанностей и границы ответственности. Рассмотрены организационные и функциональные основы межслужебного взаимодействия, практический опыт и существующие проблемы, разработаны предложения по их устранению. Исследование обосновывает необходимость укрепления правовых, организационных и информационных основ межслужебной интеграции для повышения эффективности деятельности махаллинских пунктов правопорядка.

Ключевые слова: махаллинские пункты правопорядка, межслужебное взаимодействие, распределение полномочий, общественная безопасность, профилактика, информационный обмен, координация, правопорядок.

Annotation: this article analyzes the interaction of employees from various divisions of internal affairs bodies serving in mahalla law enforcement centers, as well as the distribution of their responsibilities and boundaries of accountability. The organizational and functional foundations of inter-service cooperation, practical experiences, and existing problems are examined, along with proposals for their resolution. The study substantiates the necessity of strengthening the legal, organizational, and informational foundations of inter-service integration to enhance the effectiveness of mahalla law enforcement centers.

Key words: mahalla law enforcement centers, inter-service cooperation, distribution of powers, public safety, prevention, information exchange, coordination, rule of law.

O‘zbekiston Respublikasida ichki ishlar organlari tizimida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jamoat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan yangi mexanizmlarni shakllantirishni taqozo qilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–1-sonli qaroriga asosan joriy etilgan mahalla huquq-tartibot maskanlari tizimi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini hududiy darajada muvofiqlashtirish va birlashtirishda muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu maskanlar jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va fuqarolarning huquqiy himoyasini ta‘minlashda birlamchi bo‘g‘in sifatida xizmat qilmoqda.

Maskanlar tarkibida turli xizmat yo‘nalishlari — profilaktika inspektorlari, yo‘l harakati xavfsizligi (YPX) xodimlari, patrul-post (PPX) xizmatlari, probatsiya

inspektorlari hamda tezkor-qidiruv xizmati vakillari faoliyat yuritadi. Bunday murakkab tuzilmada har bir xizmatning o‘z funksional vazifalari, vakolatlari va mas’uliyat chegarasi mavjud bo‘lib, ularning samarali ishlashi aynan o‘zaro hamkorlik darajasiga bog‘liqdir.

Aynan xizmatlararo hamkorlikning kuchliligi maskan faoliyatining muvaffaqiyatini belgilaydi. Bu hamkorlik orqali jinoyatga moyil shaxslar haqida tezkor ma‘lumot almashiladi, muvofiqlashtirilgan reydlar o‘tkaziladi va hududdagi huquqbuzarlik xavfini kamaytirishga erishiladi. Biroq amaliyotda turli xizmatlar o‘rtasida funksional ziddiyatlar, vakolatlarning chalkashligi, yuklamaning nomutanosib taqsimlanishi kabi muammolar ham uchrab turadi.

Mazkur maqolada aynan maskanlar tarkibida xizmat olib boruvchi xodimlarning o‘zaro hamkorlik mexanizmlari, vazifalar taqsimoti va mas’uliyat chegaralari tahlil qilinadi. Shu orqali faoliyatdagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga oid

takliflar ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

Mahalla huquq-tartibot maskanlari O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutuvchi hududiy birlik hisoblanadi. Ular ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inlari sifatida mahallalarda faoliyat olib boradi va aholiga eng yaqin profilaktik tuzilma bo'lishi bilan ajralib turadi. Ushbu maskanlarning faoliyati O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i asosida tashkil etilgan.

Mazkur me'yoriy hujjatlarda maskanlar jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bevosita amaliy chora-tadbirlarni qo'llovchi tuzilma sifatida belgilangan. Maskanlar asosan jinoyatchilik darajasi yuqori, kriminogen vaziyati murakkab bo'lgan mahallalarda tashkil etiladi va faoliyati joylardagi aholining zichligi, jinoiy holat va infratuzilma imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

Tashkiliy jihatdan maskanlar quyidagi xizmat yo'nalishlari vakillaridan iborat bo'ladi:

Profilaktika katta va kichik inspektorlari – hududda huquqbuzarliklarning oldini olish, aholi bilan tushuntirish ishlari olib borish, ijtimoiy xavfli shaxslar ustidan nazorat o'rnatish vazifasini bajaradi;

Patrul-post (PPX) xizmati inspektori – jamoat joylarida doimiy patrullik olib boradi, jamoat tartibi buzilishining oldini oladi;

Yo'l patrul xizmati (YPX) xodimi – maskanga biriktirilgan ko'chalarda harakat xavfsizligini ta'minlaydi, qoidabuzarliklarning oldini oladi;

Probatsiya xizmati inspektori – jazoni ijro etishdan ozod etilgan shaxslar bilan ishlaydi, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qiladi;

Tezkor-qidiruv xodimi – jinoyatga moyil shaxslar bo'yicha ma'lumot yig'adi, tezkor kuzatuv olib boradi;

Xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektor – ayollar va voyaga yetmaganlar bilan ishlashga ixtisoslashgan faoliyatni olib boradi¹.

Maskan faoliyatiga rahbarlikni profilaktika bosh inspektori amalga oshiradi. U xizmatlararo hamkorlikni muvofiqlashtiradi, maskan faoliyati samaradorligi yuzasidan tegishli hisobotlar tayyorlaydi va mavjud muammolarni hal qilishda tashkiliy boshqaruvni olib boradi².

Shuningdek, maskanlar ichki ishlar organlari bilan bir qatorda, mahalla fuqarolar yig'inlari, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa davlat organlari bilan ham o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Ular maskan hududida joylashgan bo'sh turgan binolarda yoki maxsus barpo etilgan inshootlarda faoliyat yuritadi. Ularning moddiy-texnik ta'minoti va infratuzilmasi mahalliy byudjet hamda IIVning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi³.

Mahalla huquq-tartibot maskanlarida xizmat olib borayotgan har bir xodim o'zining funksional vazifalari doirasida aniq belgilangan vakolatlariga ega bo'lib, bu vakolatlar hamkorlikda olib boriladigan faoliyatda o'zaro bog'liqlikda va muvofiqlikda amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, maskanlar tarkibidagi har bir xizmat xodimining mas'uliyat sohasi huquqiy jihatdan belgilab qo'yilgan bo'lishi lozim. Aks holda, vakolatlar chalkashuvi yoki ortiqcha yuklama sababli xizmatlararo ziddiyatlar, noto'g'ri qarorlar va huquqbuzarliklar yuzaga kelishi mumkin.

Vakolatlar chegarasini belgilashda "funksional taqsimlash" tamoyiliga asoslaniladi. Bu tamoyilga ko'ra, profilaktika inspektori jinoyatga moyil shaxslarni aniqlash va nazorat ostida saqlash, YPX inspektori yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, probatsiya xodimi ijtimoiy nazoratdagi shaxslar bilan ishlash uchun javobgardir. Biroq real hayotda bu vazifalar ko'p hollarda bir-biriga tutashgan bo'ladi. Masalan, sud hukmi bilan jazodan ozod etilgan va yo'l harakati qoidalarini buzgan shaxslar bilan kim ishlashi kerak degan masala ko'ndalang qo'yiladi. Bunday hollarda xizmatlar o'rtasida mas'uliyatli muvofiqlashtirish va aniq chegara belgilanmasligi muammolar keltirib chiqaradi⁴.

Shu sababli maskanlarda xizmat olib borayotgan barcha xodimlarning mas'uliyati "tartibga solingan hamkorlik" shaklida yo'lga qo'yilishi lozim. Bu degani, xizmatlar o'rtasida vakolatlar bo'yicha rasmiy yo'riqnoma, ichki nizomlar va operativ topshiriqlarning aniqligi ta'minlanishi kerak. Masalan, profilaktika bosh inspektori xizmatlar o'rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirib, har bir xodimning kunlik vazifalari va hisobot berish tartibini belgilab beradi⁵.

Mas'uliyat chegarasining belgilanishi nafaqat ichki nizolarni bartaraf etadi, balki xizmatlarning hisobdorligini

1 O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i

2 O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori

5 O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i

oshiradi. Har bir xodim faqat o'z vakolatlari doirasida harakat qilsa, natijaviylikka erishish osonlashadi. Shu bilan birga, maskan faoliyatining natijalari monitoring qilinayotganda ham mas'uliyat kimga tegishli ekani aniq bo'ladi.

Ayni paytda xizmatlararo mas'uliyatlarni muvofiqlashtirishning kuchsizligi – ya'ni kim nimaga javobgar ekani to'liq aniq bo'lmagani – amaliyotda eng ko'p uchraydigan muammolardan biri hisoblanadi. Buni bartaraf etish uchun xizmatlararo vazifalarning aniq chegarasini belgilash, umumiy xizmat hujjatlari muvofiqlikni kuchaytirish lozim⁶.

Mahalla huquq-tartibot maskanlari tomonidan joylarda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatga moyil shaxslar bilan ishlash, jamoat tartibini saqlash va aholining xavfsizligini ta'minlash borasida muhim amaliy tajribalar to'plangan. Ayni vaqtda mazkur tuzilmalar ko'plab ijobiy natijalarga erishayotgan bo'lsa-da, ularning faoliyatida qator tashkilotchilik, muvofiqlashtirish va huquqiy jihatdan yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, maskanlar faoliyati natijasida ayrim hududlarda jinoyatchilik ko'rsatkichlari kamaygan, profilaktik hisobdagi shaxslar bilan olib borilayotgan ishlar samaradorligi oshgan. Shuningdek, "qonunbuzarlikka nisbatan murosasizlik" tamoyili asosida o'tkazilayotgan reydlar, targ'ibot tadbirlari va qo'shma nazorat tadbirlari o'z natijasini bermoqda⁷. Biroq bu jarayonda xizmatlararo integratsiya darajasining har doim ham yetarli bo'lmasligi samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Birinchidan, xizmatlararo axborot almashinuvi sust. Ko'plab maskanlarda xizmatlar o'rtasida tezkor ma'lumotlar almashinuvi tizimi yo'lga qo'yilmagan yoki qo'lda yuritiladi. Bu esa huquqbuzarlikka moyil shaxslar bo'yicha ma'lumotlar kechikib uzatilishiga sabab bo'ladi⁸.

Ikkinchidan, vakolatlar chalkashuvi va ortiqcha yuklamaning mavjudligi. Profilaktika inspektorlari ko'pincha boshqa xizmatlarga tegishli vazifalarni ham bajarishga majbur bo'lmoqda, bu esa ularning asosiy funksiyalariga e'tiborni kamaytiradi⁹.

Uchinchidan, moddiy-texnik ta'minotdagi tafovutlar. Ayrim maskanlar yaxshi jihozlangan bo'lsa, boshqalari minimal infratuzilmaga ega. Natijada xizmat xodimlari

birgalikda faoliyat olib borishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda¹⁰.

To'rtinchidan, o'zaro ishonch va hisobdorlikning yetarlicha shakllanmaganligi. Xizmatlararo munosabatlarda ayrim hollarda mas'uliyatsizlik kayfiyati kuzatiladi. Bu esa maskanlar faoliyati samaradorligiga jiddiy putur yetkazadi.

Beshinchidan, muvofiqlashtiruvchi boshqaruvning zaifligi. Profilaktika bosh inspektorining xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirishdagi vakolat va imkoniyatlari ayrim hollarda huquqiy jihatdan noaniq bo'lib qolmoqda. Bu esa xodimlar o'rtasida boshqaruv intizomini susaytiradi¹¹.

Shuningdek, mavjud amaliy holatlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, maskanlar faoliyatida ijtimoiy xavfli holatlarga nisbatan tahliliy va monitoring yondashuvi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Hududiy kriminogen vaziyatni baholash, jinoyatga moyil muhitni aniqlash va unga qarshi oldindan choralar ko'rish imkoniyatlari xizmatlararo rejalarda yetarlicha aks ettirilgan¹².

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, maskanlar faoliyatida mavjud ijobiy tajribalar bilan bir qatorda tizimli muammolar ham mavjud bo'lib, ular hal qilinmasa, xizmatlararo hamkorlik to'laonli natija bermaydi. Ayniqsa, xizmatlararo o'zaro ishonch, aniq vakolat chegaralari va axborot oqimining muvofiqlashtirilganligi maskanlarning huquq-tartibotni saqlashdagi roli samaradorligini belgilovchi omillar sirasiga kiradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mahalla huquq-tartibot maskanlarida turli xizmatlar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish va umumiy jamoat xavfsizligini ta'minlashda faoliyatni tizimli asosda takomillashtirish zarurati kundan kunga ortib bormoqda. Quyida keltiriladigan takliflar aynan amaliyotda kuzatilgan muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan bo'lib, xizmatlararo hamkorlikni institutsional va tashkiliy jihatdan mustahkamlashni ko'zda tutadi:

Xizmatlararo mas'uliyatlar chegarasini ishlab chiqish. Har bir xizmat vakilining aniq vazifalari, chegara vakolatlari va hisobdorlik mexanizmlarini o'z ichiga olgan chegara asosida kundalik faoliyatni tashkil qilish zarur. Bu orqali xizmatlararo ziddiyatlar, ortiqcha yuklama va

6 Sadullayev, Timur Shavkatovich. "Jamoat xavfsizligini ta'minlashda milliy gvardiya bo'linmalari hamda ichki ishlar organlari o'zaro hamkorligining ayrim jihatlari" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, vol. 2, no. 2, 2022, pp. 287-298.

7 O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori

9 O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i

10 Sadullayev, Timur Shavkatovich. "Jamoat xavfsizligini ta'minlashda milliy gvardiya bo'linmalari hamda ichki ishlar organlari o'zaro hamkorligining ayrim jihatlari" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, vol. 2, no. 2, 2022, pp. 287-298.

11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori

12 Farrux G'Aniyev, Gulardon Ganiyeva, and Nozima Boymuradova. "Biriktirilgan hududda kriminogen vaziyatni tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari" *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, vol. 1, no. 16, 2024, pp. 112-114.

vakolatlar chalkashuvi oldi olinadi;

Raqamli axborot almashinuvi tizimini joriy etish. Maskanlar doirasida xizmatlararo tezkor axborot almashinuvi, birgalikda hisobot shakllarini yuritish va umumiy ma'lumotlar bazasidan foydalanishni ta'minlovchi zamonaviy dasturiy platformani joriy etish lozim. Bu xizmatlar o'rtasida real vaqtda monitoring imkonini beradi;

Muvofiqlashtiruvchi boshqaruv vakolatlarini qonuniy mustahkamlash. Profilaktika bosh inspektorining xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirishdagi vakolatlarini aniq belgilab beruvchi normativ-huquqiy asoslarni ishlab chiqish zarur. Shu orqali boshqaruv intizomi va xizmatlararo mas'uliyat kuchaytiriladi;

Xizmatlararo o'quv va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish. Har bir xizmat vakili boshqa xizmatlarning faoliyat sohasi, chegarasi va uslublarini yaxshi bilishi uchun umumiy o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish foydalidir. Bunda simulyatsion mashg'ulotlar, senariyli amaliy darslar samarali bo'ladi¹³.

Ijtimoiy sheriklik asosida mahalliy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish. Mahalla fuqarolar yig'ini, xotinqizlar qo'mitasi, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari, profilaktika kengashlari bilan birgalikda muvofiqlashtirilgan faoliyat olib borish xizmatlararo integratsiyani mahalliy

darajada mustahkamlaydi¹⁴.

Monitoring va baholash tizimini joriy etish. Har bir xizmat faoliyatining maskan miqyosidagi o'ziga xos ko'rsatkichlari asosida natijadorlikni baholash tizimi ishlab chiqilishi zarur. Bu tizim orqali xizmatlararo hamkorlikda samaradorlik, o'zaro yondashuvlar va muvofiqlik baholanadi.

Ushbu takliflar asosida maskanlardagi xizmatlararo hamkorlik kuchayadi, faoliyatda natijaviylik va sifat oshadi. Ayniqsa, raqamli axborot almashinuvi va aniq vakolatlar chegarasi bilan ishlash tizimi maskanlarni yanada funksional tuzilma sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Mahalla huquq-tartibot maskanlari zamonaviy huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida muhim o'rin egallaydi. Xizmatlararo muvofiqlashtirilgan hamkorlik maskanlar samaradorligini belgilovchi asosiy omildir. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, aniq vakolatlar, axborot almashinuvi, boshqaruv intizomi va ijtimoiy sheriklik kuchli bo'lsa, maskanlar o'z funksiyasini to'liq ado etadi. Shu bois xizmatlararo hamkorlikni tashkil etish va takomillashtirish tizimli yondashuvni talab qiladi. Taklif etilgan mexanizmlar maskanlarni samarali huquq-tartibot markaziga aylantirishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

13 Farrux G'Aniyev, Gulandon Ganiyeva, and Nozima Boymuradova. "Biriktirilgan hududda kriminogen vaziyatni tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari" *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, vol. 1, no. 16, 2024, pp. 112-114. doi:10.5281/zenodo.14245381

14 Norboyeva Elnura Farxod Qizi, and G'aniyev Farrux Taxirjanovich. "Mahalla huquq-tartibot maskanida boshqa davlat organlari xodimlari bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtirish faoliyati ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari" *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 109-113.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarori;
3. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2025-yil 15-fevraldagi "Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i;
4. Farrux G'Aniyev, Gulandon Ganiyeva, and Nozima Boymuradova. "Biriktirilgan hududda kriminogen vaziyatni tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari" *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, vol. 1, no. 16, 2024, pp. 112-114.
5. Norboyeva Elnura Farxod Qizi, and G'aniyev Farrux Taxirjanovich. "Mahalla huquq-tartibot maskanida boshqa davlat organlari xodimlari bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtirish faoliyati ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari" *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, vol. 2, no. 1, 2025, pp. 109-113.
6. Sadullayev, Timur Shavkatovich. "Jamoat xavfsizligini ta'minlashda milliy gvardiya bo'linmalari hamda ichki ishlar organlari o'zaro hamkorligining ayrim jihatlarini" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, vol. 2, no. 2, 2022, pp. 287-298.

Zuxriddin MUXAMMADALIYEV,
Namangan viloyati IIB xodimi, kapitan

YANGI O‘ZBEKISTONDA YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHDA XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA IDORALARARO HAMKORLIKNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash jarayonida idoralararo hamkorlikning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar asosida ulardagi huquqiy bo‘shliqlar solishtirilib, huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, “Jamoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi yangi qonun qabul qilish, aholi huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu maqolada xalqaro tajriba o‘rganilib, amaldagi yo‘l harakati xavfsizligini strategik asosda ta‘minlash uchun tizimli yondashuv zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: huquqiy asoslar, yo‘l harakati xavfsizligi, idoralararo hamkorlik, normativ-huquqiy hujjatlar, jamoat xavfsizligi, “Vision Zero” konsepsiyasi, huquqiy ong va huquqiy madaniyat

Аннотация: в данной статье проанализированы правовые основы межведомственного сотрудничества в процессе обеспечения безопасности дорожного движения в Новом Узбекистане. На основе национальных и международных нормативно-правовых актов сопоставлены существующие правовые пробелы, а также разработаны научные предложения по дальнейшему совершенствованию правовых механизмов, принятию нового закона «О общественной безопасности» и повышению правовой культуры населения. В статье также изучен международный опыт и обоснована необходимость системного подхода к стратегическому обеспечению безопасности дорожного движения.

Ключевые слова: правовые основы, безопасность дорожного движения, межведомственное сотрудничество, нормативно-правовые акты, общественная безопасность, концепция «Vision Zero», правосознание и правовая культура.

Annotation: this article analyzes the legal foundations of interagency cooperation in ensuring road traffic safety in New Uzbekistan. Based on national and international legal and regulatory documents, existing legal gaps are compared, and scientific proposals are developed to further improve legal mechanisms, adopt a new Law “On Public Safety,” and enhance the legal culture of the population. The article also examines international experience and substantiates the need for a systematic approach to ensuring road traffic safety on a strategic basis..

Key words: legal framework, road traffic safety, interagency cooperation, regulatory legal acts, public safety, “Vision Zero” concept, legal awareness and legal culture.

Dunyoda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy-huquqiy jarayon bo‘lib, u nafaqat ichki ishlar organlari (police), balki mahalliy hokimiyat, transport va yo‘l xo‘jaligi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari kabi turli idora va tashkilotlar o‘rtasida samarali hamkorlikni talab etadi. Hozirgi davrda yurtimizda transport vositalari sonining ortishi, yo‘l infratuzilmasining rivojlanishi, yo‘l transport hodisalarining oldini olish va harakat xavfsizligini ta‘minlash mas‘ul tashkilotlar o‘rtasidagi idoralararo hamkorlikka bog‘liqligi aniq bo‘lib bormoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi hisobotiga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 1,2 million kishi yo‘l-transport hodisasi halokatlari qurboniga aylanmoqda va 50 mingga yaqin odam turli darajada tan jarohati olyapti¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2022-yil 11-fevral kuni bo‘lib

o‘tgan yig‘ilishda “Bu masalani oxirgi besh yilda biror rahbar, birorta tashkilot jiddiy va tahliliy muhokama qilmagan. Bu soha bo‘yicha qonunlar, ishlar mutlaqo qoniqarsiz. Yo‘l harakati xavfsizligi masalasi izdan chiqib ketgan. Bu odamlarning e‘tiroziga sabab bo‘lyapti. Mamlakatimizda 2021-yilda 10 mingdan ziyod avariya sodir etilib, ularda 9 mingdan ortiq fuqaro jarohatlandi. Eng achinarlisi, 2,5 mingga yaqin odam, shu jumladan 263 nafar bola halok bo‘lgani katta fojia. Bir yil ichida 10 mingdan ziyod avariya sodir bo‘lib, 2,5 mingdan ortiq odam halok bo‘lyapti. Bu biz uchun katta fojia emasmi?” deb, shuningdek mazkur yig‘ilishda davlatimiz rahbari yo‘l-transport hodisalarining 45 foizi haydovchilarning qoidalarni mensimasligi, 10 foizi haydovchilarning tajribasizligi, 25 foizi yo‘l holati va infratuzilmasi talabga javob bermasligi va 20 foizi piyodalarning qoidalarga amal qilmasligi oqibatida kelib chiqayotganligiga alohida urg‘u berib o‘tgan² edilar.

¹ <https://gov.uz/oz/ssv/news/view/95143>

² <https://president.uz/oz/lists/view/4977>

Bugungi kunda mamlakatda aynan yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda idoralararo hamkorlikning huquqiy asoslari sifatida quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarni sanab o'tishimiz mumkin:

Asosiy milliy normativ-huquqiy hujjatlarga: **“Yo'l harakati to'g'risida”gi Qonuni³ (2024-yil, 19-yanvar)**. Ushbu qonun yo'l harakati ishtirokchilari – piyodalar, haydovchilar, yo'l sohasi tashkilotlari va nazorat organlarining huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Qonunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi, IIV, Transport vazirligi, mahalliy hokimiyatlar va boshqa idoralar o'z vakolatlari doirasida yo'l harakati xavfsizligiga mas'ul hisoblanadi. Shuningdek, ushbu qonundagi muhim jihat yo'l harakati sohasida idoralararo muvofiqlikni belgilagani bilan, amaldagi mexanizmlar yetarlicha aniq ishlab chiqilmagan va javobgarlik to'liq belgilanmagan. Shu bois, uni takomillashtirish bugungi kun talabidir.

2. “Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”⁴. Ushbu dastur Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, har besh yilda qayta ko'rib chiqiladi. Dasturda:

- yo'l infratuzilmasini takomillashtirish;
- haydovchilarni tayyorlash tizimini yaxshilash;
- elektron nazorat va foto-video qayd etish tizimlarini joriy etish;
- davlat idoralari o'rtasida axborot almashish tizimini tashkil qilish nazarda tutilgan.

Shuningdek, ushbu hujjatning ahamiyati shundaki, bu dastur idoralararo hamkorlikni amaliy bosqichga ko'chiradigan muhim harakat rejasidir.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabr kunidagi PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”⁵ bo'lib, unda idoralararo hamkorlik tamoyillari belgilab berilgan. Shuningdek, mazkur konsepsiyada yo'l harakati xavfsizligi jamoat xavfsizligining bir qismi sifatida belgilanib, quyidagi asosiy tamoyillar ilgari suriladi:

- davlat organlari o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash;
- har bir idoraning hisobdorligi va samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash;
- jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- axborot texnologiyalari asosida yagona nazorat tizimini yaratishdir.

Shuningdek, mazkur farmonda idoralararo hamkorlik strategik vazifa sifatida belgilangan.

Xalqaro hujjatlarni o'rganadigan bo'lsak:

BMTning Yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha 2020–2030 yillarga mo'ljallangan o'n yillik harakat dasturidir⁶. Ushbu dastur BMT Bosh Assambleyasining 74-sessiyasida qabul qilingan. Uning maqsadi —

yo'l-transport hodisalari oqibatida halok bo'lish va jarohatlanish holatlarini **50%ga kamaytirishdir**. Mazkur hujjatning asosiy yo'nalishlariga:

- har bir davlatda integral xavfsizlik strategiyasini shakllantirish;

- davlat idoralari o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash;

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sog'liqni saqlash va ta'lim sohaslarini jalb qilish;

- ma'lumotlar bazasi va statistika tizimini takomillashtirish.

Daniya, Finlyandiya, Germaniyada qabul qilingan Vision Zero (hech qanday o'lim – maqsad sifatida) konsepsiyalari⁷;

Vision Zero – bu davlat siyosatida yo'ldagi o'limni mutlaqo qabul qilib bo'lmaydigan holat sifatida qabul qilishdir. Konsepsiya 1997-yilda Shvetsiyada qabul qilingan, keyinchalik ko'plab Yevropa mamlakatlari tomonidan joriy etilgan.

Uning asosiy tamoyillariga:

- yo'l tizimi inson xatolari va o'zliklarini inobatga olgan holda loyihalash kerak;

- barcha idoralar mas'uliyatni bo'lishadi;

- hukumat, mahalliy hokimiyat, politsiya, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport operatorlari – barchasi hamkorlikda harakat qiladi.

WHO (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti) va UNESCAP (Osiyo va Tinch okeani uchun Iqtisodiy va ijtimoiy komissiya) tavsiyalari:

WHO 2023 yilda “Global Plan for Road Safety” dasturini ishlab chiqdi, unda davlatlarga idoralararo muvofiqlashtirilgan harakatlar tavsiya etildi;

UNESCAP yo'l harakati xavfsizligini transchegaraviy masala sifatida baholab, transport siyosatlarida regional muvofiqlikni ta'minlashga chaqirmoqda.

Ushbu yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda idoralararo hamkorlik munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni mazmun jihatidan tahlil qilar ekanmiz, yurtimizdagi yo'l harakati xavfsizligiga oid normativ-huquqiy hujjatlarda quyidagi huquqiy bo'shliqlar mavjudligini kuzatish mumkin:

- *birinchidan*, “Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida”gi Qonunda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi markaziy organ belgilanmagan;

- *ikkinchidan*, hududiy darajadagi idoralararo hamkorlik mexanizmlari mavjud emas;

- *uchinchidan*, “Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi” huquqiy majburiyat yuklamaydi va uni amalga oshirish bo'yicha hisobot berish va nazorat mexanizmi yo'q;

3 Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси // <https://lex.uz/docs/-6764454>

4 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Йўл ҳаракати хавфсизлиги соҳасини илмий-методик таъминлаш, йўللarda эксплуатация-монтаж фаолиятини тартибга солиш ҳамда «Хавфсиз йўл» индексини юритиш амалиётини жорий этиш тўғрисида”ги қарори // <https://lex.uz/ru/docs/6136750>

5 <https://lex.uz/docs/-5749291>

6 Resolution adopted by the General Assembly on 31 August 2020 // <https://docs.un.org/-en/A/RES/74/299>

7 https://ru.wikipedia.org/wiki/Vision_Zero

– *toʻrtinchidan*, Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi deklarativ⁸ xususiyatga ega boʻlib, undan kelib chiqadigan vazifalar qonunchilikdamustahkamlanmagan.

Shuningdek, har bir idoraning vazifalari va hisobdorlik chegarasi huquqiy majburiyat shaklida belgilanmagan;

– *beshinchidan*, Oʻzbekistonda “Vision Zero” konsepsiyasini milliy qonunchilik mazmuniga integratsiya qilinmagan.

Yuqoridagi oʻrganilgan xorijiy davlatlarning normativ-huquqiy hujjatlarida yoritilgan ilmiy nazariy qarashlar mazmunidan kelib chiqib, yangi Oʻzbekistonda yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash sohasida idoralararo hamkorlikni mustahkamlash maqsadida quyidagi muammolar yuzasidan ilmiy asoslangan takliflarni milliy qonunchilikka joriy etish taklif etiladi. Bularga:

– ***birinchi muammo!*** bugungi kunda yangi Oʻzbekistonda amalda boʻlgan “Yoʻl harakati xavfsizligi toʻgʻrisida”gi Qonunda davlat organlarining vazifalari umumiy mazmunda qisqa qilib belgilangan ammo, aniq mexanizm hamda hududiy muvofiqlashuv koʻzda tutilmagan:

Birinchi muammo yuzasidan taklif, yangi Oʻzbekistonda amalda boʻlgan “Yoʻl harakati toʻgʻrisida”gi Qonunni institutsional hamkorlikka mos ravishda qayta koʻrib chiqib, Qonunga “Idoralararo hamkorlik va muvofiqlashuv” deb nomlangan alohida bob kiritish. Shuningdek, mazkur bobda har bir manfaatdor organning (*IIIV, Transport vazirligi, mahalliy hokimiyatlar, Sogʻliqni saqlash, Taʼlim muassasalari*) aniq huquqiy vazifa va javobgarligi keng mazmunda

belgilanishi kerak;

– ***ikkinchi muammo!*** bugungi kunda yangi Oʻzbekistonda jamoat xavfsizligining bir qismi boʻlgan yoʻl harakati xavfsizligi faoliyatini oʻzida qamrab olgan “Jamoat xavfsizligi toʻgʻrisida”gi qonun qabul qilinmagan.

Ikkinchi muammo yuzasidan taklif, “Jamoat xavfsizligi toʻgʻrisida”gi qonunni qabul qilish shuningdek, mahalla, tuman va shahar darajasida jamoat xavfsizligini taʼminlash uchun idoralararo operativ guruhlar faoliyatini huquqiy asosga ega qilish;

– ***uchinchi muammo!*** bugungi kunda yangi Oʻzbekistonda Fuqarolar va haydovchilar oʻrtasida huquqiy madaniyat darajasi pastligi.

Uchinchi muammo yuzasidan taklif, yangi Oʻzbekistonda aholining huquqiy ong va madaniyatni oshirishni huquqiy vazifa sifatida belgilash. Xususan:

har bir davlat idorasi uchun aholi oʻrtasida targʻibot va taʼlim faoliyati yuritish majburiyatini qonun bilan belgilash;

OAVda ijtimoiy reklama va profilaktika kontentini joriy etish majburiy vazifa sifatida qonunchilikda belgilash;

maktab va OTMlarda “Yoʻl harakati madaniyati va huquqiy bilimlar” fanini integratsiya qilish.

Oʻzbekiston Mudofaasiga koʻmaklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotida mavjud moddiy bazalardan samarali foydalanish maqsadida, umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilari uchun yoʻl harakati mashgʻulotlarini amaliy oʻrgatish.

Ushbu takliflar, yoʻl harakati xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatini strategik va tizimli asosda rivojlantirish uchun muhim huquqiy islohotlar yoʻnalishini belgilab beradi.

⁸ Deklarativ hujjat – bu davlat siyosatining asosiy maqsadlari, ustuvor yoʻnalishlari va tamoyillarini belgilab beradi. Shuningdek, kelgusi qonunlar, qarorlar va dasturlar uchun yoʻnalish koʻrsatadi. Bundan tashqari, maqsad, tamoyil va umumiy vazifalar aks ettiriladi. Lekin ijro etuvchi organlarga majburiyat yuklamaydi. Bu esa ijro tartibi, muddat, mablagʻ manbalari, javobgarlik choralari aniq belgilanmagan boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://gov.uz/oz/ssv/news/view/95143>
2. <https://president.uz/oz/lists/view/4977>
3. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси // <https://lex.uz/docs/-6764454>
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъжмасынинг “Йўл ҳаракати хавфсизлиги соҳасини илмий-методик таъминлаш, йўлларда эксплуатация-монтаж фаолиятини тартибга солиш ҳамда «Хавфсиз йўл» индексини юритиш амалиётини жорий этиш тўғрисида”ги қарори // <https://lex.uz/ru/docs/6136750>
5. <https://lex.uz/docs/-5749291>
6. Resolution adopted by the General Assembly on 31 August 2020 // <https://docs.un.org/en/A/RES/74/299>
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Vision_Zero



Zafar KUVONDIKOV,
*Ichki ishlar vazirligi Toshkent mintaqaviy
 o'quv Markazi "Huquqiy fanlar" sikli boshlig'i, kapitan*

YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI VA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO STANDARTLARNING QIYOSIY-HUQUQIY TADQIQI

Annotatsiya: mazkur tadqiqot yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va sohadagi huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bazasi BMTning yo'l harakati to'g'risidagi konvensiyalari va xalqaro standartlar bilan qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Muallif tomonidan yo'l-transport hodisalarining oldini olishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi, raqamli texnologiyalarni joriy etishning huquqiy jihatlari va ma'muriy javobgarlik tizimining samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqot yakunida milliy qonunchilikni xalqaro normalarga muvofiqlashtirish va sohadagi profilaktik choralarning ta'sirchanligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *yo'l harakati xavfsizligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, milliy qonunchilik, xalqaro standartlar, qiyosiy tahlil, Vision Zero, Safe System, yo'l xavfsizligi auditi, jarima ballari tizimi, telematika, sug'urta, himoyaga muhtoj yo'l harakati ishtirokchilari.*

Аннотация: данное исследование посвящено вопросам совершенствования правовых механизмов обеспечения безопасности дорожного движения и профилактики правонарушений в этой сфере. В статье проведен сравнительно-правовой анализ национальной законодательной базы Республики Узбекистан с конвенциями ООН о дорожном движении и международными стандартами. Автором изучен передовой опыт зарубежных стран в предотвращении дорожно-транспортных происшествий, правовые аспекты внедрения цифровых технологий и эффективность системы административной ответственности. По итогам исследования выдвинуты научно обоснованные предложения и рекомендации по гармонизации национального законодательства с международными нормами и повышению эффективности профилактических мер в данной области.

Ключевые слова: *безопасность дорожного движения, профилактика правонарушений, национальное законодательство, международные стандарты, сравнительный анализ, Vision Zero, Safe System, аудит дорожной безопасности, система штрафных баллов, телематика, страхование, уязвимые участники дорожного движения.*

Annotation: this research is dedicated to the issues of improving legal mechanisms for ensuring road traffic safety and preventing offenses in this field. The article conducts a comparative legal analysis of the national legislative framework of the Republic of Uzbekistan in relation to UN road traffic conventions and international standards. The author examines the advanced experience of foreign countries in preventing road traffic accidents, the legal aspects of implementing digital technologies, and the effectiveness of the administrative liability system. Based on the results of the study, scientifically grounded proposals and recommendations are put forward to harmonize national legislation with international norms and to increase the impact of preventive measures in this area.

Keywords: *road traffic safety, offense prevention, national legislation, international standards, comparative analysis, Vision Zero, Safe System, road safety audit, demerit points system, telematics, insurance, vulnerable road users.*

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va sohadagi huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini transformatsiya qilish strategik ahamiyatga molik ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1 va PQ-2-sonli Prezident qarorlarining qabul qilinishi sohada "xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan mutlaqo yangi

institutsional tizimni boshlab berdi¹. Ushbu normativ hujjatlar jinoyatchilikni, xususan, yo'l-transport hodisalarini jilovlashda "ilmiy xulosa – tavsiya – natija" tamoyili asosida manzilli profilaktika ishlarini tashkil etishning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda". Bunda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash nafaqat ma'muriy jazo qo'llash, balki huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablarini mahallabay tahlil qilish, kriminogen

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026-йил 5-январдаги "Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳит яратиш йўналишида манзилли иш олиб боришнинг яхлит тизimini жорий этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-1-сон Қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.01.2026-й., 07/26/1/0001-сон. // <https://lex.uz/uz/docs/7973611>

omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishning manzilli mexanizmlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi². Ayniqsa, PQ–1-son Qarorga muvofiq, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish bo'yicha *“mahalla yettligi”* vakillarining mas'uliyati oshirilib, ularga yo'l harakati qoidalarini buzishga moyil shaxslar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazish va hududlardagi yo'l infratuzilmasidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha vazifalar yuklatilgan³.

Yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi islohotlarning dolzarbligini belgilovchi asosiy omillardan biri bu – inson kapitalini asrash va iqtisodiy zararlarni kamaytirishdir. Tahlillarga ko'ra, yangi O'zbekistonda yo'l-transport hodisalari natijasida kelib chiqadigan iqtisodiy zarar mamlakat Yalpi ichki mahsulotining (*YalM*) taxminan 3% qismini tashkil etadi, bu esa yiliga o'rtacha 2 milliard AQSh dollariga teng demakdir⁴. Bu mablag'lar sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlariga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan salmoqli resurslardir. Bundan tashqari, PQ–2-son Qaror doirasida mahallalarda jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha barvaqt profilaktika ishlarini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, xususa, *“Quiz bot”* kabi elektron resurslar orqali mahalla faollarining bilim va ko'nikmalarini oshirish, *“poytaxt tajribasi”* va *“Chilonzor namunasi”* asosida xavfsiz muhit yaratish choralari ko'rilmoqda⁵. Bu jarayonda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash umumiy jamoat xavfsizligining ajralmas qismi sifatida qaraladi va mahallalardagi yo'l infratuzilmasini yaxshilash, piyodalar o'tish joylarini xavfsiz holatga keltirish va yoritish tizimini takomillashtirish ishlarini qamrab oladi⁶.

Shu o'rinda, yo'l harakati xavfsizligi va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi ilmiy qarashlar dunyoning turli mintaqalarida o'ziga xos evolyutsion yo'lni bosib o'tgan. Ushbu qarashlarni mintaqaviy kesimda tahlil qilish milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan ilmiy bazani shakllantirish imkonini beradi. Xususan, *S.M. Otaboyev* esa yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda ma'muriy-huquqiy rejimlarni qo'llash samaradorligini oshirish

va sohada davlat xizmatlarini raqamlashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni ilgari surgan⁷. *M.X. Rustambayev* o'z ilmiy asarlarida aynan transport vositalarini boshqarish bilan bog'liq jinoyatlar va huquqbuzarliklarning kvalifikatsiya qilish muammolari, ayniqsa *“ehtiyotsizlik”* va *“qasd”* chegarasini huquqiy belgilash bo'yicha fundamental qarashlarni ilgari surgan⁸. *I. Ismoilov* yo'l harakati sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasining kriminologik asoslarini tadqiq etib, *“huquqbuzarning shaxsi”*ni o'rganish orqali manzilli profilaktikani amalga oshirish tizimini taklif etgan⁹.

Shuningdek, qozog'istonlik olimlardan *B.Sh. Aliyev* esa yo'l harakatini boshqarishda *“Intellectual transport tizimlari”*ning (ITS) huquqiy maqomini belgilash va avtomatlashtirilgan nazorat sharoitida ma'muriy ish yuritishni soddalashtirish nazariyasini ilgari surgan bo'lsa, *G.A. Axmedova* bo'lsa yo'l harakati ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini shakllantirishda *“psixologik-huquqiy ta'sir”* vositalaridan foydalanish va profilaktikada gender omilini inobatga olish konsepsiyasini yoritgan. *A.M. Qulbekov* yo'l harakati sohasidagi ma'muriy ish yuritishni *“elektronlashtirish”* va raqamli dalillarning (videokamera qaydlari) huquqiy maqomini mustahkamlash, shuningdek, haydovchilarni jazolashning *“ballik tizimi”*ni ilmiy asoslashga harakat qilishgan¹⁰. Xususan, Shvetsiya 1997-yilda *“Vision Zero”* (*Halokatsiz yo'llar*) strategiyasini parlament darajasida qabul qilgan¹¹. Ushbu strategiya shunchaki dastur emas, balki yo'l harakati sohasidagi barcha normativ hujjatlarning asosini tashkil etuvchi qonuniy tamoyildir. Shvetsiya qonunchiligining asosiy xususiyatlari:

tezlik rejimlarini qat'iy standartlashtirish, ya'ni shaharlarda piyoda va avtomobil to'qnashishi mumkin bo'lgan joylarda tezlik 30 km/s bilan cheklangan¹².

yo'l loyihalashdagi xavfsizlik auditi, ya'ni yangi yo'llar faqatgina *“xavfsizlik auditi”*dan o'tgandan so'ng foydalanishga topshiriladi va unda *“2+1”* tipidagi ajratuvchi to'siqlar bo'lishi majburiydir¹³.

haydovchilik madaniyati va javobgarligi, ya'ni alkogol iste'mol qilganlik uchun ruxsat etilgan miqdor juda past

2 Ўша манба: <https://proacademy.uz>

3 Navoiyda mahallalarda xavfsiz muhitni ta'minlash bo'yicha yangi bosqich // <https://gov.uz>

4 Uzbekistan Road Safety Profile 2025 – Asian Transport Observatory (The economic burden of road crashes in Uzbekistan is substantial. Fatalities and serious injuries cost an estimated 2 billion USD in 2021, roughly 3% of the country's GDP. This figure represents a significant portion of the nation's resources, comparable to a substantial share of healthcare expenditure) // <https://asiantransportobservatory.org>

5 Безопасная среда в махаллях: Академия реализует комплексный анализ на основе принципа «научное заключение – рекомендация – результат» // <https://proacademy.uz>

6 Исполнение постановлений Президента: новый этап в обеспечении безопасной среды в махаллях Навои // <https://gov.uz>

7 Отабоев С.М. Ўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашнинг маъмурий-ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш: Юрид. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Тошкент: ЎзР ИИВ Академияси, 2021. 165-б.

8 Рустамбаев М. Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ҳуқуқи курси. 5-том. Махсус қисм. Транспорт воситалари ҳаракати ва улардан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятлар. – Тошкент: ТДЮУ, 2018. 320-б.

9 Исmoilов И. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси: Дарслик. – Тошкент: ЎзР ИИВ Академияси, 2014.450-б.

10 Қулбеков А. М. Совершенствование административной ответственности за правонарушения в области дорожного движения: Дисс. ... канд. юрид. наук (PhD). – Нур-Султан: ЕНУ им. Л.Н. Гумилева, 2019. 174-с.

11 Goodyear, Sarah (20 November 2014). “The Swedish Approach to Road Safety: The Accident Is Not the Major Problem” (Written account of Goodyear's interview with Matts-Åke Belin, traffic safety strategist with the Swedish Transport Administration and one of its key architects of the original Vision Zero program). CityLab. Washington, D.C.: The Atlantic Monthly Group. Retrieved 5 December 2014.

12 Vision Zero – Wikipedia // https://en.wikipedia.org/wiki/Vision_Zero

13 Barriers and Enablers in Implementing the Vision Zero Approach to Road Safety: A Case Study of Haryana, India, with Lessons from Sweden – MDPI // <https://www.mdpi.com/2412-3811/10/12/329>

(02 g/l) va jazo choralari ijtimoiy mavqedan qat'iy nazar muqarrardir¹⁴.

Norvegiya 2024-yilda har million aholiga 16 ta o'lim ko'rsatkichi bilan dunyodagi eng xavfsiz yo'llarga ega davlat deb topildi¹⁵. Buning sababi 2020-yilda "Yo'l harakati to'g'risida"gi qonunga kiritilgan muhim o'zgartirishlardir. Bunga ko'ra:

YTHlarni tekshirish bo'yicha mustaqil komissiya, ya'ni qonunga ko'ra, har bir o'lim bilan bog'liq holat mutaxassislar tomonidan chuqur tahlil qilinishi va yo'l konstruksiyasidagi kamchiliklar aniqlanishi shart.

majburiy avtopsiya, ya'ni YTHda halok bo'lgan haydovchilarning sog'lig'i va psixologik holatini o'rganish uchun majburiy avtopsiya tizimi yo'lga qo'yilgan.

yosh haydovchilar uchun "ikki baravar ball" tizimi, ya'ni Yangi haydovchilik guvohnomasini olgan shaxslar uchun qoidabuzarlik uchun jarima ballari ikki baravar ko'p hisoblanadi. Niderlandiya davlati qonunchiligida "Sustainable Safety" konsepsiyasi asosida yo'llarni klassifikatsiya qilish tizimi mustahkamlangan. Harakatlanish yo'llari uch turga bo'linadi. Bular: kirish yo'llari (30 km/s), taqsimlovchi yo'llar (50–70 km/s) va magistral yo'llar (100–120 km/s). Bu tizim haydovchining adashishi yoki tezlikni asossiz oshirishining oldini oladi¹⁶. Yuqoridagi ilmiy tahlillardan kelib chiqib, yangi O'zbekistonning amaldagi qonunchiligini xalqaro standartlar va yuqorida tahlil qilingan davlatlar tajribasi bilan qiyoslash quyidagi huquqiy bo'shliqlarni aniqlash imkonini bermoqda. Bularga:

birinchidan, statistik ma'lumotlarning nomuvofiqligi va shaffoflik yetishmasligi!

Milliy qonunchilikda YTHlarni qayd etish tizimida jiddiy kamchiliklar mavjud. *Masalan*, agar YTH natijasida inson sog'lig'iga jiddiy zarar yetmasa yoki faqat yengil moddiy zarar bo'lsa, tomonlar kelishuvi asosida voqea ichki ishlar organlarida qayd etilmasligi mumkin¹⁷. Bu esa "xavfli nuqtalar"ni aniqlashda statistik ma'lumotlarning noaniq bo'lishiga olib keladi. Tahlillarga ko'ra, Yaponiyada yiliga 300 mingdan ortiq YTH qayd etilgani holda, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 10 ming atrofida ekanligi voqelikning to'liq aks etmasligidan dalolat beradi¹⁸.

14 Road Safety Country Profile Sweden 2024 – International Transport Forum (ITF) // <https://www.itf-oecd.org/sites/default/files/sweden-road-safety.pdf>

15 Norway wins 2025 ETSC PIN Award for outstanding road safety progress // <https://etsc.eu/norway-wins-2025-etsc-pin-award-for-outstanding-road-safety-progress/>

16 Barriers and Enablers in Implementing the Vision Zero Approach to Road Safety: A Case Study of Haryana, India, with Lessons from Sweden – MDPI // <https://www.mdpi.com/2412-3811/10/12/329>

17 JICA Road Safety Project in Uzbekistan Introduces New Approaches to Data Collection and Reducing Traffic Accidents // <https://www.uzdaily.uz>

18 These road safety profiles were developed by the Asian Transport Observatory in collaboration with the Asia Pacific Road Safety Observatory (APRSO) and the International Road Federation (IRF). This September 2025 edition updates the February 2025 release—prepared for the Global Ministerial Conference on Road Safety in Marrakech—to inform discussions at the Asia-Pacific Regional Road Safety Conference in Manila // <https://asiantransportobservatory.org>

19 Road Safety Performance Review Uzbekistan Road Safety Management – UNECE // https://unece.org/sites/default/files/2024-01/UNECE_NN_1.pdf

20 Barriers and Enablers in Implementing the Vision Zero Approach to Road Safety: A Case Study of Haryana, India, with Lessons from Sweden – MDPI // <https://www.mdpi.com/2412-3811/10/12/329>

21 Road Safety Performance Review Uzbekistan Road Safety Management – UNECE // https://unece.org/sites/default/files/2024-01/UNECE_NN_1.pdf

22 New guidance on safe and inclusive road design published for road engineers and infrastructure designers in Central Asia – iRAP – International Road Assessment Programme // <https://irap.org/2025/06/new-guidance-on-safe-and-inclusive-road-design-published-for-road-engineers-and-infrastructure-designers-in-central-asia/>

23 JICA Road Safety Project in Uzbekistan Introduces New Approaches to Data Collection and Reducing Traffic Accidents - UzDaily.uz // <https://www.uzdaily.uz>

24 improvement of the activities of the road safety service of internal affairs bodies in the prevention of offenses | journal of scientific research, modern views and innovations // <https://spaceknowledge.com/index.php/JOISRMV/article/view/4162>

Ikkinchidan, yo'l infratuzilmasi uchun mas'uliyatning noaniqligi!

Amaldagi qonunchilikda YTH yuz berganda asosiy mas'uliyat haydovchi zimmasiga yuklanadi. Yo'lning nosozligi, loyihalashdagi xatoliklar yoki yoritish tizimining yetishmasligi sabab bo'lgan hollarda yo'l qurilishi va ekspluatatsiyasi uchun mas'ul tashkilotlarning huquqiy javobgarligi mexanizmi zaif rivojlangan¹⁹. Xalqaro "Safe System" standarti esa mas'uliyatni tizim boshqaruvchilari va foydalanuvchilar o'rtasida taqsimlashni talab etadi²⁰.

Uchinchidan, himoyaga muhtoj ishtirokchilar (vulnerable road users) huquqlarining zaifligi!

Qonunchilikda va shaharsozlik normalarida piyodalar, velosipedchilar va skuter haydovchilarining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qat'iy va batafsil talablar mavjud emas²¹. Ko'p hollarda yo'llar avtomobillar harakati uchun qulay qilib loyihalanadi, piyodalar xavfsizligi esa ikkinchi darajali masala bo'lib qolmoqda. Xalqaro standartlar esa piyodalar o'tish joylarida tezlikni majburiy pasaytirish va ularni yoritish bo'yicha qat'iy talablarni belgilaydi²².

To'rtinchidan, zamonaviy texnologiyalar va sug'urta tizimining integratsiyasi!

O'zbekiston qonunchiligida "telematika" va transport vositalarining xavfsizlik darajasiga qarab sug'urta mukofotini belgilash tizimi mavjud emas²³. Rivojlangan davlatlarda haydovchining harakatlanish uslubi (*keskin tormoz berish, tezlikni oshirish*) sug'urta polisining narxiga bevosita ta'sir qiladi va bu esa kuchli profilaktik omil hisoblanadi²⁴. Tadqiqot jarayonida aniqlangan tizimli muammolar va funksional kamchiliklarni bartaraf etish orqali yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning samaradorligini oshirish, inson hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni kuchaytirish hamda sohani xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy amaliyot bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan quyidagi ustuvor yo'nalishlardagi takliflar ilgari suriladi. Bularga:

Birinchidan, "Vision Zero" tamoyili va yo'l auditi institutini "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunga "Yo'l infratuzilmasi xavfsizligini rejalashtirish va auditdan o'tkazish" deb nomlangan yangi 18-moddani

kiritish:

“18-modda. Yo'l infratuzilmasi xavfsizligini rejalashtirish va auditdan o'tkazish

“Yo'l infratuzilmasining xavfsizligini auditdan o'tkazish. Yangi qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llari loyihalari majburiy tartibda xalqaro iRAP standartlari asosida xavfsizlik auditidan o'tkazilishi lozim. Yo'lining xavfsizlik darajasi 5 yulduzli shkalada kamida 3 yulduz ko'rsatkichiga muvofiq bo'lishi shart”

Mazkur taklifning ilmiy asoslantirilganligi shundaki, amaldagi qonunchilikda yo'l xavfsizligi uchun mas'uliyat asosan, haydovchi zimmasiga yuklangan. Mazkur norma “tizimli yondashuv” (System Approach) asosida yo'l loyihalovchilari va yo'l egalari ham huquqiy javobgarligini belgilaydi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi “Ma'muriy javobgarlik to'g'risida”gi kodeksni quyidagi mazmundagi **“Yo'l harakati qoidalarini surunkali ravishda buzganlik uchun jarima ballarini hisoblash va huquqiy oqibatlarini qo'llash tartibi”** deb nomlangan yangi **34²-modda** bilan to'ldirish.

“34²-modda. Yo'l harakati qoidalarini surunkali ravishda buzganlik uchun jarima ballarini hisoblash va huquqiy oqibatlarini qo'llash tartibi Yo'l harakati sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarga nisbatan, ushbu Kodeksning 34-moddasida belgilangan tartibda jazo qo'llash bilan bir qatorda, har bir huquqbuzarlik uchun jarima ballari hisoblab boriladi. Jarima ballari huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasi, sodir etilish sharoiti va oqibatlaridan kelib chiqib, 0,5 ball dan 4 ballgacha miqdorda belgilanadi.

Bir shaxs tomonidan 12 oy davomida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun hisoblangan jarima ballarining umumiy miqdori 12 ballga yetgan taqdirda, ushbu shaxs transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilinadi.

Jarima ballarini hisoblash va hisobdan chiqarish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.”

Mazkur taklifdan kelajakda kutilayotgan natijalar shundaki: a) mamlakatda surunkali qoidabuzarlik sodir etuvchi shaxslarga nisbatan ta'sir choralari qo'llashning shaffof va raqamlashgan mexanizmi yaratiladi; b) yo'llardagi eng xavfli (retsivistik) haydovchilar qatlami avtomatik ravishda separatsiya qilinadi va ularning harakati cheklanadi; v) inspektorning jazo turini tanlashdagi (masalan, jarima yoki ogohlantirish) ixtiyoriyligi kamayadi, chunki ball tizimi algoritmik asosda ishlaydi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan **“Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”**gi Qarorining 78-bandini quyidagi yangi tahrirda bayon etish taklif etiladi. **“Aholi punktlarida transport vositalarining tezligi soatiga 50 kilometr dan, Nukus va Toshkent shaharlarida, viloyatlar va tumanlar markazlarida, shuningdek, shahar tipidagi posyolkalarda esa yo'l sharoitidan kelib chiqib, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarori bilan ayrim uchastkalarda soatiga 30**

kilometr dan oshmasligi kerak. Ta'lim va maktabgacha ta'lim muassasalari, shuningdek istirohat bog'lari va shifoxonalarga tutash yo'l uchastkalarida (kamida 300 metr masofada) tezlik soatiga 30 kilometr dan oshmasligi shart. Ushbu hududlarda tezlikni pasaytiruvchi majburiy muhandislik moslamalari (sun'iy do'ngliklar) o'rnatilishi shart.”

Mazkur taklifning ilmiy asoslanganligi shundaki:

a) kinetik energiya va omon qolish koeffitsiyentiga ko'ra, agar tezlik \$60\$ km/soat bo'lganda YTH sodir bo'lsa, piyodaning o'lim xavfi \$80\%\$ ni tashkil etadi. Tezlik \$50\$ km/soatga tushirilganda esa bu ko'rsatkich \$20\%\$ gacha kamayadi. Tezlik \$30\$ km/soat bo'lganda, piyodaning omon qolish ehtimoli \$90\%-95\%\$ ga yetadi;

b) to'xtash masofasi (Stopping Distance) ga ko'ra, \$60\$ km/soat tezlikda to'xtash masofasi (reaksiya va tormoz yo'li bilan) o'rtacha \$35-40\$ metrni tashkil etsa, \$50\$ km/soatda bu masofa \$25\$ metrgacha qisqaradi. Bu esa haydovchiga to'qnashuvning oldini olish uchun qo'shimcha vaqt va imkoniyat beradi.

To'rtinchidan, “Transport vositalari egalari uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga **“Sug'urta tariflarini belgilash tartibi”** deb nomlangan qo'shimcha yangi **10¹-moddani** kiritish taklif etiladi.

“10¹-modda. “Sug'urta tariflarini belgilash tartibi

Sug'urta tariflarini qo'llashda haydovchining yo'l harakati intizomi va transport vositasining texnik xavfsizlik darajasiga ko'ra quyidagi rag'batlantiruvchi va jazolovchi koeffitsiyentlar qo'llaniladi:

intizom koeffitsienti, ya'ni oxirgi 12 oyda jarima bali 3 dan oshmagan haydovchilar uchun – 0,8 (20% chegirma); jarima bali 9 dan oshganlar uchun – 1,5 (50% ustama).

texnik xavfsizlik koeffitsiyenti, ya'ni avtomobil ishlab chiqaruvchi tomonidan o'rnatilgan faol xavfsizlik tizimlari (ABS, ESC, AEB – avtomatik tormozlash) mavjud bo'lganda – 0,9 (10% chegirma).

telematika koeffitsiyenti, ya'ni masofaviy nazorat qurilmalari (GPS-monitoring) o'rnatilgan va xavfsiz haydash madaniyatini tasdiqlagan yuridik shaxslar uchun – 0,85”.

Mazkur taklifning ilmiy asoslanganligi shundaki, bugungi kunda sug'urta polisining narxi haydovchining qanchalik xavfli haydashiga bog'liq emas. Sug'urta telematikasini joriy etish orqali biz “xavf uchun to'lov” prinsipini kiritamiz. Bu haydovchilarni jarima to'lashdan ko'ra, polis narxini tushirish uchun intizomli bo'lishga ko'proq qiziqtiradi. Shuningdek, xavfsizlik tizimlari mavjudligi uchun imtiyoz berilishi aholi va korxonalarni xavfsizroq, zamonaviy avtomobillarni sotib olishga undaydi, bu esa o'z navbatida, mamlakatdagi umumiy parkining xavfsizlik darajasini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qonunchilikka yo'l infratuzilmasi xavfsizligi audit institutini kiritish va javobgarlikni differentsiyalashgan ballik tizim asosida raqamlashtirish – mamlakatning demografik salohiyatini asrash va YTH natijasida yuzaga keladigan salmoqli iqtisodiy zararlarni (YalMning 3 foizi miqdorida) kamaytirishning strategik sharti hisoblanadi.



Umidbek ZAMONBEKOV,
O'zbekiston Respublikasi IIV
Toshkent mintaqaviy o'quv markazi katta o'qituvchisi, kapitan

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI HUQUQIY ONGI VA MADANIYATINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI YUKSALTIRISH

(sotsiologik tadqiqot asosida)

Annotatsiya: mazkur maqolada rivojlanib borayotgan Yangi O'zbekistonda aholi huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, yoshlar o'rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun zamonaviy usullardan foydalanish, shuningdek, aholi huquqiy ongi va madaniyatini oshirishning samarali mexanizmlari va O'zbekistonda ushbu ilg'or tajribalarni tatbiq qilish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *huquqiy ong, huquqiy madaniyat, profilaktika, QR kod, yoshlar madaniyati, xorij tajribasi, maxsus profilaktika markazlari, huquqiy xizmatlar, huquqiy normalar.*

Аннотация: данной статье разработаны научные предложения по повышению правового сознания населения в развивающемся Новом Узбекистане, использованию современных методов для повышения правовой культуры среди молодежи, а также по созданию эффективных механизмов повышения правового сознания и правовой культуры населения и внедрению передового опыта в Узбекистане.

Ключевые слова: *правовое сознание, правовая культура, профилактика, QR-код, молодежная культура, зарубежный опыт, специализированные профилактические центры, юридические услуги, правовые нормы.*

Annotation: this article develops scientific proposals for increasing the legal awareness of the population in the developing New Uzbekistan, using modern methods to enhance legal culture among youth, as well as creating effective mechanisms for improving the legal awareness and legal culture of the population and implementing advanced practices in Uzbekistan.

Key words: *legal awareness, legal culture, prevention, QR code, youth culture, foreign experience, specialized prevention centers, legal services, legal norms.*

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan chuqur siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa o'zgarishlar nafaqat inson va fuqaroning huquq va erkinliklarining haqiqiy tasdiqlanishiga, bozor munosabatlarining tiklanishiga, xalqaro munosabatlarning kengayishiga va boshqa natijalarga olib keldi, balki kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda, shuningdek, tubdan yangi shoshilinch yechimlarni talab qiluvchi qator murakkab muammolarni hal etishda jiddiy hissa qo'shdi.

Mashhur rus faylasufi I.A.Ilin fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari va jihatlari chuqur o'rgandi. "Armiya davlat mavjudligining elementi sifatida o'zini muntazam ravishda g'alabaga va uning uchun o'limga, davlat maqsadi yo'lida o'ldirishga tarbiyalaydigan uyushgan olomondir. Armiya davlatchilikning jonli ilhomi bilan sug'orilishi kerak. Jangchi – bu fuqarolik darajasi va mavjudligining jamlangan yukini o'z zimmasiga olgan fuqaro: chunki u davlat hokimiyatining jonli timsolidir, davlat irodasining jonli quroli, o'z ishini shaxsiy hayot masalalari bilan bog'lagan vakildir"¹.

I.Ilinning ushbu ta'rifida armiya faqatgina harbiy

kuch sifatida emas, balki davlat hokimiyatining timsoli va yuridik ongni shakllantirishdagi markaziy subyekt sifatida talqin etilgan. Shu nuqtayi nazardan, uning fikrlari zamonaviy huquqshunoslik va falsafa uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

I.Ilin armiyani huquqiy ong va fuqarolik mas'uliyatining jonli timsoli sifatida tavsiflaydi. Ammo ushbu qarashga qarshi chiquvchi ba'zi mualliflar, jumladan, demokratiyani yoqlovchi faylasuflar armiyaning roli haddan tashqari kuchayib ketishi fuqarolik jamiyati va huquqiy ongga tahdid solishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Masalan, J.Lokk yoki J.J.Russo kabi g'arb faylasuflari armiyani fuqarolarning erkinligiga ehtimoliy xavf sifatida baholagan;

I.Ilinning fikricha, harbiy xizmatchi davlat irodasini amalga oshiruvchi "jonli qurol"dir. Bu nuqtayi nazar avtokratiya yoki markazlashgan davlat hokimiyati g'oyalari bilan uyg'un kelsa-da, huquqiy davlat konsepsiyasi uchun ziddiyatli ko'rinishga ega. Zamonaviy huquqiy yondashuvlarda davlat organlari va harbiy kuchlar shaxsiy erkinliklar va huquqlarni ta'minlovchi vosita sifatida talqin qilinadi. Harbiylarning fuqarolik jamiyatidagi roli ko'proq muhofaza funksiyasiga

¹ Ильин И.А. О сущности правосознания. – М., 1994.

qaratilishi lozim; I.Ilinning fuqaro va jangchi rollarini uyg'unlashtirish g'oyasi ham tortishuvlarga sabab bo'lishi mumkin. Jangchi har doim ham fuqarolik qadriyatlarini o'zida mujassam etuvchi shaxs sifatida talqin qilinmaydi. Ba'zi tadqiqotchilar huquqiy ong va harbiy intizom o'rtasidagi tafovutlarni ta'kidlab, harbiy xizmatchilardagi huquqiy bilimlar va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish zaruratini ilgari surmoqda; I.Ilinning «davlatchilikning jonli ilhomi» atamasi nazariy jihatdan diqqatga sazovor bo'lsa-da, amalda bu ilhom qanday namoyon bo'lishi, qanday mexanizmlar orqali fuqarolar va harbiy xizmatchilar ongiga ta'sir qilishiga oid masala ochiq qolmoqda. Bu tushunchani harbiy va davlat o'rtasidagi munosabatlar tizimida aniq yuridik yoki ijtimoiy kategoriyalar orqali mukammalroq yoritish zarur. Huquqiy ong tushunchasining ta'riflariga turlicha qarashlar mavjud. Xususan, N.L.Granat huquqiy voqelikni aks ettirishning quyidagi shakllarini sanab o'tadi: "huquqiy bilimlar, huquqiy munosabatlar, huquq va huquqiy amaliyotni baholash, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatlarda odamlarning faoliyati va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan insoniy qadriyat yo'nalishlari"². N.Granat tomonidan ilgari surilgan huquqiy voqelik shakllari murakkab va turli yondashuvlarni talab qiladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tushunchalarni zamonaviy huquqshunoslikning multi-dissiplinar yondashuvlari asosida qayta ko'rib chiqish va to'ldirish orqali huquqiy voqelikni yanada aniqroq yoritish mumkin.

A.B.Vengerov huquqiy ongni "jamiyat, guruhlar, shaxslarning qonunga, uning tizimi va tuzilishiga individual munosabatini va huquq tizimining boshqa xususiyatlarini ifodalovchi ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan o'zaro bog'liq g'oyalar, his-tuyg'ular majmui"³ deb hisoblaydi. A.Vengerovning huquqiy ongga oid ta'rifi nazariy jihatdan chuqur asoslangan bo'lsada, uning individual va ijtimoiy ong o'rtasidagi muvozanat, ratsional va emotsional elementlarning roli kabi jihatlari yuzasidan turlicha yondashuvlar mavjud. Huquqiy ongning zamonaviy talqinida ushbu nuqtalarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega. A.N.Golovistikova va Y.A.Dmitriyevning so'zlariga ko'ra, huquqiy ong – bu odamlarning o'tmishdagi va amaldagi qonunchilikka bo'lgan kognitiv-baholash munosabati, uni yanada takomillashtirish, qonuniylik, adolat haqidagi g'oyalaridir⁴.

A.N.Golovistikova va Y.A.Dmitriyev huquqiy ongda kognitiv (bilimlar) va baholash (qimmat hukmlar) jihatlariga urg'u beradilar. Lekin tanqidchilar, jumladan, kognitiv psixologiya va huquqiy ong mutaxassislari, ushbu ikki jihat o'rtasidagi aloqani yanada aniqroq

tadqiq qilish zarurligini ta'kidlaydilar. Ularga ko'ra, huquqiy ongda faqat ratsional bilimlar emas, balki inson tajribasi, ijtimoiy ta'sir va emotsional holatlar ham muhim o'rin tutadi. A.N.Golovistikova va Y.A.Dmitriyevning ta'rifida qonuniylik va adolat g'oyalari markaziy o'rin egallaydi. Ammo bu g'oyalarning sub'yektiv va madaniy xususiyatlari turlicha talqin etiladi. Ba'zi tadqiqotchilar, jumladan, huquqiy plyuralizm vakillari, adolat tushunchasining turli jamiyatlarda har xil shakllarda namoyon bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar. A.N.Golovistikova va Y.A.Dmitriyevning huquqiy ongga oid ta'rifi kognitiv va baholash elementlarini qamrab olgan murakkab nazariy tuzilmaga asoslanadi. Biroq huquqiy ongni to'liq anglash uchun uning sub'yektiv, tarixiy va ijtimoiy omillari hamda amaldagi dinamikasini yanada chuqurroq o'rganish zarur. Shu tariqa, huquqiy ongni izohlashdagi turli yondashuvlar huquqiy ongning tuzilishi, uning sub'yektlari, huquqiy munosabatlar va qadriyatlar bilan bog'liqligi masalalarini qayta ko'rib chiqish zaruratini ko'rsatadi. Polemik tahlil shuni anglatadiki, huquqiy ongni ham nazariy, ham amaliy jihatdan kengroq tadqiq qilish orqali uning ijtimoiy va huquqiy jarayonlardagi roli yanada aniqroq ochib berilishi mumkin. Yuqorida muhokama qilingan huquqiy ongning mohiyatini aniqlashning barcha yondashuvlari bu tushunchaning juda murakkab, o'ziga xos va noaniq ekanligini ko'rsatadi. Huquqiy ongning xulq-atvor elementi haqidagi qarashlarga kelsak, O.F.Skakun shunday yozadi: "Huquqiy xulq-atvor – bu huquqiy ongning ixtiyoriy tomoni, bu huquqiy normalarni haqiqiy huquqiy xulq-atvorga aylantirish jarayonidir"⁵.

O.F.Skakunning huquqiy ong va xulq-atvor o'rtasidagi munosabatga oid fikrlari nazariy jihatdan qimmatli bo'lib, huquqiy ongning amaliy xulq-atvorga aylanish jarayonini tushunish uchun asos yaratadi. Biroq, tanqidiy yondashuvlar ushbu jarayonning murakkabligini hisobga olib, xulq-atvorga ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar ta'sirini ham e'tiborga olishni taklif qiladilar. Huquqiy ongning turli elementlarini yanada chuqurroq tadqiq qilish orqali uning xulq-atvordagi rolini kengroq tushunish mumkin.

Qonun normalarini bilishni istamaslik, fuqarolarning o'z mamlakati kelajagiga befarqligi keyinchalik amaldagi qonunlarning qasddan buzilishiga, huquqiy normalarning nafaqat mamlakat fuqarolari tomonidan, balki davlat organlari va mansabdor shaxslar, idoraviy mansublikni pesh qilib ommaviy ravishda bajarilmasligiga olib keladi.

Jumladan, Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlar 2022-yilga nisbatan 5,3 foizga ortgan. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning soni ayrim hududlarda

2 Ильин И.А. О сущности правосознания. – М., 1994..

3 Венгеров А.Б. Теория государства и права: учебник. М., 2007. С. 560.

4 Головистикова, А.Н., Дмитриев, Ю.А. Проблемы теории государства и права: Учебник. - М.: ЭКСМО. 2005.С. 649

5 Теория государства и права / под ред. В. М. Корельского и В. Д. Перевалова. М., 2000. С. 348.

yuqoriligidan qolmoqda.⁶ 2023-yil dekabr oyida biz yoshlarning huquqiy axborotni izlashda duch keladigan muammolarini tizimlashtirishga qaratilgan tadqiqot o'tkazdik. Tadqiqot so'rov anketasi yordamida miqdoriy yondashuv yordamida amalga oshirildi. So'rovda jami 200 dan ortiq subyekt ishtirok etdi – TDYI turli fakultetlari talabalari. So'rov natijasida olingan ma'lumotlarga asoslanib, talabalar huquqiy tizimning keng tarmoqli ekanligi tufayli eng ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirayotganini ko'rish mumkin, ba'zida zarur bo'lgan tegishli huquqiy hujjatni topish juda qiyin (42%). Shuningdek, ayrim huquqiy hujjatlarning to'liq matnlariga kirish cheklanganligi katta muammodir (33%), chunki internetda ham ma'lum bir huquqiy hujjatga bepul kirish har doim ham mumkin emas. Huquqiy axborotni topishda nisbatan kamroq muammolar huquqiy tilda yozilgan normativ-huquqiy hujjatlar matnini tushunish bilan bog'liq (11%). Faqat yuridik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar normativ hujjatlar matnini to'g'ri tushunishlari mumkin, biroq xattoki ular ham ba'zan huquqiy matnlarni sharhlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Eng past darajadagi muammo sifatida ba'zi qonunlarning boshqalarga zidligi (9%) va ko'p sonli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (5%) ko'rsatib o'tilgan. Bu muammolar kamroq darajada bo'lsa ham, baribir ayrim vaqtda qiyinchilik tug'diradi. Shunday qilib, zamonaviy milliy jamiyatimizning huquqiy ongining tizimli markazlashuvi, qonun va huquqni identifikatsiyalashda ifodalangan sovet qonuniyligi shaklini saqlab qolib, huquqiy norma va xatti-harakatlar o'rtasidagi ma'lum masofa borligini namoyon etadi. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi joriy etilgach, yuridik kadrlar tayyorlashga yangicha yondashuvlar paydo bo'ldi. Mamlakatda yuridik ta'lim rivojlanmoqda, bu tabiiy ravishda yuridik kadrlarning huquqiy madaniyati va huquqiy bilimdonligi yuksalishiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir etmoqda. Fukarolik jamiyati va huquqiy davlat – professional huquqiy madaniyat shakllanishini, ilg'or yuridik tafakkur qaror topishini nazarda tutadi. Shu bois, aytish mumkinki, O'zbekistonda huquqiy madaniyat muammosi – jamiyat va davlat rivojlanishining uzviy

va barqarorligi uning hal etilishiga bog'liq. Huquq falsafasi nuqtayi nazaridan, huquqiy madaniyat "huquqiy ongning ma'lum bir rivojlanish darajasini va qonuniylik holatini ifodalaydi, jamiyat fuqarolarining ijtimoiy qarama-qarshiliklarni hal qilishdagi huquqiy layoqati va qobiliyatini tavsiflaydi"⁷.

Yuqoridagi xorijiy tajriba va olimlarning fikrini inobatga olib quyidagi nazariy xulosa, taklif va tavsiyalarni keltirib o'tishimiz mumkin:

– birinchidan, huquqiy ong – bu shaxs yoki jamiyat a'zolarining qonunlarga, huquqiy normalarga va huquqiy amaliyotga nisbatan ongli munosabatini ifodalovchi, huquqiy bilimlar, qadriyatlar, his-tuyg'ular va ijtimoiy xulq-atvorga ta'sir qiluvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayondir.

Huquqiy madaniyat – bu shaxs yoki jamiyatning qonunlar, huquqiy normalar va huquqiy amaliyotga munosabatida namoyon bo'ladigan, huquqiy ong, huquqiy qadriyatlar, qonuniylik va huquqiy faoliyatning uzviy tarkibiy qismlarini qamrab olgan murakkab ijtimoiy-huquqiy holat.

– ikkinchidan, har bir viloyatda yoshlar uchun maxsus profilaktika markazlari tashkil etish, ularga psixologik maslahat va huquqiy yordam ko'rsatish, huquqiy muammolar bo'yicha yoshlar orasida muntazam axborot berish va ogohlantirish tadbirlari o'tkazilishini ta'minlash;

– uchinchidan, huquqiy ma'lumotni izlashni osonlashtirish uchun mobil ilovalar va huquqiy xizmatlarga onlayn platformalarni ishlab chiqish, qonun va huquqiy hujjatlarga kirish uchun maxsus QR-kod tizimini joriy etish;

– to'rtinchidan, ziddiyatli va bir-biriga muvofiq bo'lmagan huquqiy normalarni aniqlash va bartaraf etish uchun qonunchilik monitoringini yo'lga qo'yish, yangi qonun loyihalari jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi uchun yuridik ekspertiza mexanizmini kuchaytirish.

– beshinchidan, davlatning rasmiy veb-saytlarida qonun hujjatlarining soddalashtirilgan va sharhlangan versiyalarini joylashtirish.

6 <https://kknews.uz/uz/184791.html>

7 Данильян. О.Г. Философия права: учебник / О.Г. Данильян. М.: Эксмо. 2006. с.399.

Abduqodir ABDIBOSITOV,

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: abduqodirabdibositov@gmail.com

SINGAPURNING KORRUPSIYADAN HOLI JAMIYAT BARPO ETISH TAJRIBASI VA HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Singapur Respublikasining 1960-yilgi "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunining mazmun-mohiyati, undagi pora sifatidagi moddiy va nomoddiy naf tushunchasi va korrupsiya prezumpsiyasining huquqiy talqini tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda korrupsiyaga qarshi kurashda Singapur tergov organlarining maxsus protsessual vakolatlari, sanksiyalar tizimi hamda qonunning ekstritorial ta'sir doirasining samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *Singapur, korrupsiya, Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni tergov qilish byurosi, korrupsiya prezumpsiyasi, gratification, antikorrupsion strategiya, ekstritorial nazorat.*

Аннотация: в данной статье системно проанализирована суть и значение Закона Республики Сингапур «О предотвращении коррупции» 1960 года, правовая интерпретация понятия материальной и нематериальной выгоды в качестве взятки, а также презумпция коррупции. В исследовании научно обоснована эффективность специальных процессуальных полномочий следственных органов Сингапура, системы санкций и экстраитерриториальной сферы действия закона в борьбе с коррупцией.

Ключевые слова: *Сингапур, коррупция, Бюро по расследованию коррупции, презумпция коррупции, gratification, антикоррупционная стратегия, экстраитерриториальный контроль.*

Annotation: this article provides a systematic analysis of the essence and significance of the Republic of Singapore's Prevention of Corruption Act 1960, the legal interpretation of the concept of material and non-material benefit as a bribe (gratification), and the presumption of corruption. The study scientifically substantiates the effectiveness of the special procedural powers of Singapore's investigative bodies, the system of sanctions, and the extraterritorial scope of the law in the fight against corruption.

Key words: *Singapore, corruption, Corrupt Practices Investigation Bureau, presumption of corruption, gratification, anti-corruption strategy, extraterritorial control.*

Ijtimoiy tarmoqlarda Singapur fenomeni, uning iqtisodiy yuksalishi hamda korrupsiyadan holi jamiyat barpo etgani haqida hayrat bilan so'z yuritish an'anaga aylangan. Ko'pchilik bu muvaffaqiyatni faqat siyosiy iroda yoki aholining yuksak madaniyati bilan bog'laydi. Biroq, ushbu "iqtisodiy mo'jiza" zamirida nafaqat ma'naviy qadriyatlar, balki nihoyatda qat'iy va tizimli huquqiy poydevor yotishi ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Singapur tajribasining real harakatlantiruvchi kuchi – bu nazariy maqtoqlar emas, balki har bir bandi amaliyotda so'zsiz ishlaydigan antikorrupsion qonunchilikdir. Xususan, 1960-yilgi "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonun mamlakatni poraxo'rlik botqog'idan olib chiqqan asosiy huquqiy dastak bo'lib xizmat qilgan.

Singapur korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasining mustahkam poydevori sifatida qabul qilingan Singapur Respublikasining 1960-yil 17-iyundagi "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonuni mamlakat huquqiy tizimida tub burilish yasadi. Ushbu hujjat shunchaki jazolovchi mexanizm emas, balki korrupsiyaning har qanday ko'rinishini ildizi bilan yo'q qilishga qaratilgan tizimli konsepsiya hisoblanadi. S.Y. Obloginning fikricha, mazkur qonunning qabul

qilinishi Singapurdagi antikorrupsiya kompaniyasining boshlang'ich nuqtasi bo'lib, unda sobiq mustamlaka davridan qolgan qonunchilikdagi noaniqliklar va ikki xil ma'no anglatuvchi normalar to'liq bartaraf etilgan [4]. Bundan kelib chiqadiki, korrupsiyaga qarshi samarali kurash birinchi navbatda, huquqiy normaning aniqligi va undagi "huquqiy bo'shliq"larni yopishdan boshlanishi lozim.

Qonunning mazmun - mohiyatini tahlil qilar ekanmiz, birinchi navbatda, "gratification (pora sifatidagi moddiy va nomoddiy naf)" tushunchasiga berilgan keng ko'lamli ta'rifga to'xtalish lozim. Singapur "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunining 2-moddasida ushbu tushuncha nafaqat pul yoki moddiy qimmatliklarni, balki har qanday turdagi xizmat, imtiyoz, mansab, shartnoma, qarzni uzish yoki har qanday intizomiy va jinoiy javobgarlikdan himoya qilishni ham o'z ichiga oladi [1]. Bunday keng ta'rif korrupsiyaning yashirin va nomoddiy shakllarini ham qonun doirasiga olish imkonini beradi. Ta'kidlash joizki, bunday yondashuv amaldorning nafaqat bevosita pul olishini, balki uning turli "xizmatlar almashinuvi" ko'rinishidagi yashirin kelishuvlarini ham fosh etishga xizmat qiladi.

Qonunning o'ziga xos jihatlaridan yana biri "agent"

va "prinsipial" munosabatlarining huquqiy talqinidir. Qonunning 2-moddasiga binoan, agent sifatida nafaqat davlat xizmatchilari, balki ishonib topshirilgan vakillar, vasiylar va hatto subpudratchilar ham tan olinadi. Prinsipial esa ish beruvchi, davlat organi yoki vakillik berilgan har qanday yuridik shaxs bo'lishi mumkin. N.I.Shalikovaning ilmiy xulosalariga ko'ra, Singapur qonunchiligi agent tomonidan o'z prinsipialining manfaatlariga zid ravishda, pora evaziga biror harakatni sodir etishi yoki sodir etmasligini qat'iy jinoyat deb belgilaydi [5]. Demak, bu yerda asosiy urg'u "ishonchni suiiste'mol qilish" faktoriga qaratilgan bo'lib, bu korrupsiyaning axloqiy va huquqiy chegaralarini birlashtiradi.

Shuningdek, Singapur Respublikasining "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunining 5-va 6-moddalari tahlili shuni ko'rsatadiki, qonunning ta'sir doirasi nafaqat davlat sektorini, balki xususiy sektorni ham to'liq qamrab oladi. Subyekt sifatida nafaqat davlat amaldori, balki har qanday jismoniy va yuridik shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin. Fikrimizcha, Singapurning korrupsiyadan holi davlatga aylanishida xususiy sektordagi poraxo'rlikka nisbatan ham xuddi davlat sektori kabi murosasiz munosabatda bo'lingani muhim rol o'ynagan. Zero, korrupsiya zanjirining bir uchi baribir biznes va tijorat manfaatlarini tutashadi.

Demak, 1960-yilgi qonun korrupsiyani tor ma'nodagi "pora olish" chegarasidan chiqarib, uni keng qamrovli ijtimoiy va iqtisodiy illat sifatida tasniflagan. Qonunning tuzilishi shunday mantiqqa asoslanganki, unda javobgarlik subyektlarining aniq belgilanishi va "moddiy rag'batlantirish" tushunchasining har tomonlama qamrab olinishi tergov organlari uchun manipulyatsiya imkoniyatlarini minimallashtiradi. Bu esa o'z navbatida, jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko'rinishi uchun javobgarlik muqarrarlari haqidagi huquqiy ongning shakllanishiga zamin yaratadi.

Singapurning antikorrupsiya modeli muvaffaqiyatining kaliti nafaqat qonunlarning qat'iyligida, balki ushbu qonunlarni ijro etuvchi Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni tergov qilish byurosiga berilgan keng va o'ziga xos protsessual vakolatlardadir. Singapur "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunining 2-qismi Byuroning huquqiy maqomi va uning xodimlarini tayinlash tartibini belgilab beradi [1]. Ushbu Byuroning siyosiy mustaqilligi va bevosita Bosh vazirga bo'ysunishi (ayrim hollarda esa Prezidentning bevosita aralashuvi) unga davlat iyerarxiyasining eng yuqori pog'onalarida ham qo'rqmasdan tergov o'tkazish imkonini beradi. Tergov organining ijroiya hokimiyatining boshqa bo'g'inlaridan ajratilganligi "dastak" va "tanish-bilishchilik" omillarini minimallashtirishga xizmat qiluvchi eng muhim kafolatdir.

Byuro ofitserlarining protsessual vakolatlari odatiy politsiya vakolatlaridan ancha kengligi bilan ajralib turadi. Xususan, Singapur "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunining 15-moddasiga binoan,

Byuro direktori yoki har qanday maxsus tergovchi korrupsiyaga aloqadorlikda gumon qilingan shaxsni sud orderisiz hibsga olish huquqiga ega. M.M. Kojarinning qarashlariga ko'ra, bunday keskin vakolat jinoyat izlarini yo'q qilish yoki gumonlanuvchining yashirinish imkoniyatini keskin cheklaydi [6]. Demak, bundan kelib chiqadiki, korrupsiya kabi tezkorlik talab etadigan jinoyatlar bilan kurashda byurokratik to'siqlarni olib tashlash tergov samaradorligini oshiruvchi asosiy omildir.

Bundan tashqari, qonunning 15-moddasi 2-bandi ofitserlarga hibsga olingan shaxsni tintuv qilish va jinoyat dalili sifatida qaraladigan har qanday ashyoni musodara qilish vakolatini ham beradi. Singapur tajribasida tintuv va olib qo'yish jarayonlari faqat gumonlanuvchi bilan cheklanmaydi. Qonunning 22-moddasiga muvofiq, agar tergovchi kechiktirib bo'lmaydigan holat mavjud deb hisoblasa, u har qanday joyga (xonadon yoki ofis) kirishi va tintuv o'tkazishi mumkin. Ta'kidlash joizki, bunday keng vakolatlar Byuro xodimlari zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklash bilan birga, jinoyatchilar uchun "xavfsiz hudud" tushunchasini yo'qqa chiqaradi.

Mazkur qonunning eng kuchli jihatlaridan biri – moliyaviy sir tushunchasining korrupsiya terгови oldida o'jizligidir. Singapur "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunining 18 va 20-moddalariga ko'ra, Bosh prokuror Byuroga gumonlanuvchining, uning turmush o'rtog'i yoki farzandlarining bank hisoblarini, aksiyalarini va boshqa moliyaviy hujjatlarini tekshirish vakolatini berishi mumkin. Byuro nafaqat amaldorning, balki uning yaqin qarindoshlari va hatto do'stlarining ham mulkiy ahvolini tahlil qilish huquqiga ega. Korrupsiyadan kelgan daromadlarni qarindoshlar nomiga rasmiylashtirish kabi keng tarqalgan sxemalarga qarshi bu eng samarali huquqiy to'siqdir.

Shuningdek, qonunning 21-moddasi Bosh prokurorga har qanday shaxsdan o'ziga tegishli bo'lgan barcha mulklarni sanab o'tgan holda yozma ravishda qasamyod ostida bayonot (sworn statement) berishni talab qilish huquqini beradi. Agar shaxs ma'lumot berishdan bosh tortsa yoki yolg'on ma'lumot bersa, u jinoiy javobgarlikka tortiladi. Demak, Singapur huquqiy tizimida tergov organlari bilan hamkorlik qilish ixtiyoriy emas, balki qat'iy majburiyatdir. Bu esa korrupsiyani tergov qilishda "sukut saqlash huquqi"ning suiiste'mol qilinishiga yo'l qo'ymaydi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni tergov qilish byurosining protsessual vakolatlari Singapurda korrupsiya uchun javobgarlik muqarrarlari ta'minlovchi real mexanizmdir. Byuroning ordersiz hibsga olish, tintuv o'tkazish va bank ma'lumotlariga cheksiz kirish huquqi unga "tishsiz" organ emas, balki davlat apparatini ichkaridan tozalovchi qudratli vosita maqomini beradi. Bunday vakolatlarning qonun bilan mustahkamlanishi va amaliyotda so'zsiz qo'llanilishi Singapur modelining barqarorligini ta'minlab kelmoqda.

Singapur antikorrupsiya tizimining eng bahsli,

ammo shu bilan birga, eng samarali jihatlaridan biri bu korrupsiya bilan bog'liq ishlarda isbotlash yukining taqsimlanishi va aybdorlik prezumpsiyasining o'ziga xos tarzda qo'llanilishidir. Singapur Respublikasining "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunining 8-moddasi korrupsiya prezumpsiyasini belgilab beradi. Ushbu normaga ko'ra, agar davlat organi yoki hukumat departamenti bilan rasmiy aloqada bo'lgan yoki aloqa o'rnatishga intilayotgan shaxs tomonidan davlat xizmatchisiga biror moddiy rag'batlantirish (pora) berilgani yoki xizmatchi tomonidan qabul qilingani isbotlansa, ushbu harakat avtomatik ravishda "korrupsiya maqsadida" sodir etilgan deb hisoblanadi. S.Y. Obloginning fikricha, bunday yondashuv tergov organlarining zimmasidan poraning aynan qaysi aniq xizmat uchun berilganligini isbotlash kabi murakkab vazifani soqit qiladi [4]. Bu mexanizm klassik jinoyat huquqidagi "aybsizlik prezumpsiyasi"dan bir oz chekinish bo'lsa-da, korrupsiya kabi yashirin va isbotlash qiyin bo'lgan illatga qarshi kurashda o'zini to'liq oqlaydi. Zero, davlat xizmatchisi va manfaatdor shaxs o'rtasidagi har qanday shubhali moddiy munosabat davlat manfaatlariga zid deb qaralishi ijtimoiy adolat mezonlariga mos keladi.

Ushbu prezumpsiyaning ishlash tartibi shundan iboratki, bunda ayblanuvchining o'zi olingan mablag' yoki sovg'a korrupsion maqsadda emasligini suda isbotlab berishi shart. Agar u buni isbotlay olmasa, qonunning 8-moddasi asosida aybdor deb topiladi. Bunday qat'iy qoida davlat xizmatchilarini har qanday shubhali sovg'alardan yoki "minnatdorchilik" shakllaridan mutlaqo tiyilishga majbur qiladi. Demak, bundan kelib chiqadiki, Singapur qonunchiligi davlat xizmatchisi uchun "sovg'a va pora" o'rtasidagi nozik chegarani yo'qqa chiqarib, har qanday moddiy manfaatni ta'qiqlangan hudud sifatida belgilab qo'ygan.

Aybdorlikni isbotlashning yana bir o'ziga xos va nihoyatda kuchli mexanizmi Singapur "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunining 24-moddasida mustahkamlangan. Ushbu moddaga ko'ra, agar ayblanuvchining ixtiyorida uning rasmiy daromad manbalariga mutlaqo nomutanosib bo'lgan mablag'lar yoki mulk mavjud bo'lsa va u ushbu boylikning qonuniy kelib chiqishini suda asoslab bera olmasa, bu holat korrupsiyaning bevosita dalili sifatida qabul qilinadi. Boshqaruv vakilining "hashamatli hayot tarzi" va uning rasmiy maoshi o'rtasidagi farq tergov uchun eng asosiy va yetarli indikator hisoblanadi. Bu norma korrupsiya orqali boylik orttirgan shaxslarning yashirin daromadlarini fosh etishda eng samarali usuldir. Chunki mol-mulkni yashirish mumkin bo'lsa-da, hashamatli turmush tarzini doimiy ravishda yashirish imkonsizdir.

Qonunning 24-moddasi 2-bandi ushbu mexanizmi yanada kengaytirib, ayblanuvchining o'ziga tegishli bo'lmagan, ammo uning yaqinlari yoki vakillari nomiga rasmiylashtirilgan mulklarni ham uning o'z mulki sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Tadqiqotlarga asosan,

bunda agar shaxs o'z mablag'larini qarindoshlari orqali "yuvishtga" harakat qilsa, qonun ushbu mulklarni ham nomutanosib boylik sifatida baholaydi [6]. Bundan kelib chiqadiki, Singapur huquqiy tizimida korrupsion daromadlarni oila a'zolari yoki uchinchi shaxslar nomiga o'tkazish orqali javobgarlikdan qochishning imkoni qoldirilmagan. Bu esa o'z navbatida, antikorrupsion tergovning qamrovini nafaqat shaxsning o'ziga, balki uning butun moliyaviy muhitiga yo'naltiradi.

Shuningdek, Singapur "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunining 25-moddasi ham isbotlash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Unga ko'ra, pora bergan shaxsning guvohligi (garchi u ham sherik hisoblansa-da) faqatgina pora bergani uchun ishonchsiz deb topilmaydi. Bu esa korrupsiya zanjirining ishtirokchilaridan birini davlat bilan hamkorlik qilishga va asosiy aybdorni fosh etishga ko'maklashishga undaydi. Fikrimizcha, Singapur qonunchiligidagi ushbu pragmatik yondashuv korrupsiyaning ichki tizimini buzishga va sukut saqlash kelishuvini sindirishga xizmat qiladi.

Demak, qonunning 8- va 24-moddalari Singapur antikorrupsion strategiyasining asosiy mexanizmi hisoblanadi. Korrupsiya prezumpsiyasi va daromadlarning nomutanosibli faktori isbotlash jarayonini soddalashtirib, javobgarlikning muqarrarligini ta'minlaydi. Ushbu mexanizmlar jamiyatda shunday muhit yaratadiki, unda davlat xizmatchisi nafaqat pora olishdan, balki o'zining qonuniy daromadidan ortiqcha har qanday harajat qilishdan ham qo'rqadigan bo'ladi [2]. Xulosa qilib aytganda, Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yengish uchun tergov organlariga nafaqat texnik vakolatlar, balki aybdorlikni isbotlashning mana shunday o'ziga xos va keskin huquqiy dastaklari ham zarurdir.

Singapurning antikorrupsion strategiyasida sanksiyalar tizimi nafaqat jazolash, balki sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatning iqtisodiy jihatdan mutlaqo foydasiz ekanligini ko'rsatishga yo'naltirilgan. 1960-yil 17-iyundagi "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunning 3-qismida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun qat'iy jazo choralari belgilangan. Ushbu qonun doirasidagi jinoyatlar uchun bazaviy jazo 100 000 Singapur dollarigacha jarima yoki 5 yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish (yoki har ikki jazoni bir vaqtda qo'llash) etib belgilangan [1]. Ta'kidlash joizki, bunday yuqori miqdordagi jarimalar korrupsiyaning iqtisodiy "qiymati"ni oshirib yuboradi va shaxsni jinoiy yo'lga kirishdan oldin moddiy zarar haqida jiddiy o'ylashga majbur qiladi.

Qonunchilikda korrupsiyaning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab jazoni og'irlashtiruvchi holatlar ham aniq ko'rsatib o'tilgan. Singapur "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunining 7-, 10-, 11- va 12-moddalariga muvofiq, agar korrupsion harakat davlat shartnomalari, tenderlar, Parlament a'zolari yoki jamoat birlashmalari vakillari bilan bog'liq bo'lsa, ozodlikdan mahrum qilish muddati 7 yilgacha uzaytiriladi.

N.I. Shalikovaning ilmiy xulosalariga ko'ra, davlat manfaatlari va siyosiy institutlar bilan bog'liq bo'lgan poraxo'rlik holatlariga nisbatan jazoning kuchaytirilishi tizimning ichki tozaligini saqlashga xizmat qiladi [5]. Demak, bundan kelib chiqadiki, davlat boshqaruvi va strategik resurslar bilan bog'liq korrupsiyaga nisbatan alohida, qattiqroq sanksiyalar rejimi qo'llanishi Singapur huquqiy siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Singapur sanksiyalar tizimining eng o'ziga xos va majburiy elementi bu iqtisodiy jazoning asosiy jazoga qo'shimcha ravishda qo'llanilishidir. Singapur "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunining 13-moddasiga binoan, sud aybdorni qamoq yoki jarima jazosidan tashqari, u tomonidan olingan poraning summasiga teng bo'lgan miqdorni davlat foydasiga to'lashga majbur qiladi. Ushbu sanksiya konfiskatsiya mexanizmi sifatida ishlaydi va korrupsiya orqali orttirilgan har qanday foydani bekor qiladi. Fikrimizcha, ushbu majburiy iqtisodiy sanksiya jinoyatchiga "pora oldim va qamalib chiqib, qolgan pulni ishlataman" degan mantiq bilan yashashga yo'l qo'ymaydi. Bu mexanizm jinoyat natijasida qo'lga kiritilgan manfaatni tizimli ravishda sug'urib olishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Bundan tashqari, Singapur qonunchiligi korrupsiya bilan kurashda chegara bilmaydigan qat'iy pozitsiyaga ega. Singapur Respublikasining "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunining 37-moddasi qonunning eksterritorial ta'sir doirasini belgilaydi. Ushbu normaga ko'ra, Singapur fuqarosi mamlakat tashqarisida sodir etgan har qanday korrupsion harakati uchun xuddi Singapur ichida jinoyat sodir etgandek javobgarlikka tortiladi. Bu norma Singapur fuqarolarining xalqaro biznes maydonida ham "tozalik" standartini saqlashini ta'minlashga qaratilgan. Demak, Singapur davlati o'z fuqarolarining xorijdagi noqonuniy kelishuvlariga ko'z yummaydi va ushbu qonun fuqaro qayerda bo'lishidan qat'iy nazar uning orqasidan ergashib yuradi. Bu holat davlatning nafaqat ichki, balki tashqi imijini ham korrupsiyadan himoya qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, qonunning 29-, 30- va 31-moddalarida

jinoyatga sheriklik, uni sodir etishga urinish yoki jinoiy til birlashtirish uchun ham asosiy jinoyat bilan bir xil jazo belgilanishi ko'zda tutilgan. Korrupsion zanjirning har qanday bo'g'ini – g'oya berishdan tortib, ijrogacha bir xil darajada xavfli deb baholanadi. Ta'kidlash joizki, Singapur qonunchiligidagi ushbu qat'iylik potensial jinoyatchilarni nafaqat pora olishdan, balki bu haqda reja tuzishdan ham to'xtatib qoluvchi psixologik to'siqdir.

Singapurning sanksiyalar tizimi va uning eksterritorial qo'llanilishi mamlakatda korrupsiyaga nisbatan "nol darajali murosa" muhitini yaratgan. Yuqori miqdordagi jarimalar, majburiy iqtisodiy to'lovlar va fuqarolik maqomi bilan bog'liq global javobgarlik korrupsiyani o'ta xavfli va istiqbolsiz faoliyatga aylantiradi [3]. Mana shunday qat'iy sanksiyalar mexanizmi Singapurning jahondagi eng "toza" davlatlardan biri bo'lib qolishini ta'minlovchi huquqiy qalqon bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Singapurning korrupsiyaga qarshi kurashdagi muvaffaqiyati tasodifiy hodisa emas, balki mukammal ishlangan huquqiy arxitekturaning mahsulidir. Maqolada tahlil qilingan 1960-yilgi qonun normalari shuni ko'rsatadiki, illatni mahv etish uchun faqat targ'ibot-tashviqot yetarli emas, buning uchun tergov organlariga real vakolat beradigan, isbotlash jarayonidagi byurokraziyani parchalaydigan va jinoyatning iqtisodiy jozibadorligini yo'qqa chiqaradigan keskin choralar zarur.

Singapur tajribasining eng muhim jihati – qonunning nafaqat qattiqligida, balki uning ijrosi hech qanday istisnalarsiz, teng qo'llanilishidir. "Korrupsiya prezumpsiyasi", "nomutanosib boylik uchun javobgarlik" va "eksterritorial nazorat" kabi mexanizmlar davlat xizmatchisining ongida korrupsiyani o'ta yuqori xavfli va naf keltirmaydigan faoliyat sifatida muhrlab qo'ygan. Bu model davlat boshqaruvida shaffoflikka erishish nafaqat siyosiy iroda, balki puxta huquqiy detallarga tayanishi kerakligini isbotlovchi universal namunadir. Yakuniy xulosa shundaki, Singapur huquqiy tizimi korrupsiyani jamiyat organizmidagi begona elementga aylantira oldi, bu esa mamlakatning barqaror yuksalishi uchun strategik xavfsizlik kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Singapur Respublikasining 1960-yil 17-iyundagi "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonuni – <https://sso.agc.gov.sg/Act/PCA1960>
2. Ravshanxon Rabbonaxon O'g'li Shodmanov, Xorijiy davlatlarda davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi o'rni va roli // Science and Education. 2023. №5.
3. Buxorova Aziza Ashirali Qizi, Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari // EJLFAS. 2025. №4.
4. Облогин С. Ю. Сингапурская антикоррупционная политика как наиболее удачная модель противодействия коррупции // Экономика и социум. 2018. №1 (44).
5. Шаликова Наталья Ивановна Особенности противодействия коррупции в Сингапуре // Вестник БГУ. 2015. №2-2.
6. Кожарин М. М. Меры по предупреждению коррупции в сингапуре // Вестник науки. 2022. №10 (55).

Muhiddin JO'RAYEV,

polkovnik, yuridik fanlari buyicha falsafa doktori, dotsent

MANFAATLAR TO'QNASHUVI – KORRUPSIYANING ILDIZI

Annotatsiya: ushbu maqolada korruptsiya va manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi, uning jamiyat rivoji hamda mamlakatdagi ichki barqarorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali usullari va aholi ongini shakllantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Maqola ilmiy manbalar asosida yozilgan bo'lib, nazariy va amaliy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *korruptsiya, manfaatlar to'qnashuvi, ichki tahdid, ijtimoiy barqarorlik, qonuniylik.*

Аннотация: в данной статье анализируются понятия коррупции и конфликта интересов, а также их влияние на развитие общества и внутреннюю стабильность страны. Кроме того, рассматриваются эффективные методы борьбы с коррупцией и их роль в формировании общественного сознания. Статья написана на основе научных источников и охватывает как теоретические, так и практические аспекты.

Ключевые слова: *коррупция, конфликт интересов, внутренняя угроза, социальная стабильность, законность.*

Annotation: this article analyzes the concepts of corruption and conflict of interest, as well as their impact on societal development and the country's internal stability. In addition, effective methods of combating corruption and their role in shaping public awareness are examined. The article is based on scientific sources and encompasses both theoretical and practical aspects..

Key words: *corruption, conflict of interest, internal threat, social stability, legality.*

Kirish. Keyingi yillarda korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida mamlakatimizda muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korruptsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rilmogda.

Korruptsiyaga qarshi kurashning og'irligi hamda o'ta murakkabligi shu bilan belgilanadiki, bu jinoyat nafaqat hufyona, balki subyektlar o'rtasida kelishuvga asosan sodir etiladi. Aksariyat hollarda, ushbu holat yuzasidan tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilmaydi. Sababi g'ayriqonuniy kelishuvdan ikkala tomon ham manfaatdor bo'ladi. Hatto pora so'rash holatlari ustidan ham kamdan-kam holatda shikoyat qilinadi. Chunki insonlar korruptsiyaga qarshi kurashish jarayoniga ishonchsizlik bilan qaraydilar. Buning uchun esa milliy va xorijiy tajriba bilan bog'liq bo'lgan muayyan obyektiv va subyektiv asoslar mavjud.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yilning 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasida shunday fikrlarni bildirganlar: "... afsuski, jamiyatimizda korruptsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi. Tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish, kadastr, qurilish, litsenziya, bojxona, bank, davlat xaridlari kabi sohalarda korruptsiyaga duch kelayotgani, Prezident nomiga kelib tushayotgan ko'plab murojaatlar ham, matbuot va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ham yaqqol ko'rsatib turibdi. Korruptsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha

qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korruptsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak"¹ deb ta'kidladilar.

So'nggi yillarda korruptsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Byudjet va Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi, "Elektron hukumat to'g'risida"gi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinganligi shular jumlasidandir. Hozirgi vaqtda jamiyatimizning ko'p sonli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy muammolar markazida korruptsiyaga qarshi kurash muammosi ayniqsa, muhim o'rin egallaydi. Bu hol bir necha omillar bilan belgilanadi:

– birinchidan, aholining turli qatlamlari o'rtasida tengsizlik, tabaqalanish kuchayib borayotgan paytda davlat amaldorlari tomonidan mansab - mavqeini suiiste'mol qilish holatlari davlat organlari va hokimiyat obro'siga putur yetkazadi. Amalga oshirilayotgan islohotlarni, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonlarining obro'sizlanishiga olib keladi;

– ikkinchidan, iqtisodiy mazmuni resurslarni taqsimlash jarayonining deformatsiyalanishidan iborat bo'lgan korruptsiya iqtisodiyotning rivojlanishi va mustahkamlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi;

¹ Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. Xalq so'zi 25.01.2020

– uchinchidan, korrupsiya, boshqa ko'pgina salbiy ijtimoiy hodisalar singari o'zining keng ildiz otishiga zamin yaratadi, ya'ni u bo'lg'usi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tartibga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda, bunda korrupsiya qancha chuqur ildiz otgan bo'lsa, unga qarshi kurashish va uning oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek, korrupsiyaning ba'zi bir sabablari tugatilgan bo'lsa ham, shuncha qiyinlashadi;

– to'rtinchidan, mamlakatdagi korrupsiya darajasi siyosiy omilgina bo'lib qolmasdan, balki qarzlarni berish, chet el investitsiyalarini amalga oshirish shartlari va hokazolarga ta'sir ko'rsatuvchi muhim iqtisodiy omil hisoblanadi.

Shu bois, bugungi kunda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda qonunlarga rioya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi "Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz" mavzusidagi ma'ruzasida "Jamiyatimizda korrupsiyaga, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo albatta, muqarrar ekanligi to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur"², deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunida: manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yohud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat (3-m.) deb belgilab berilgan.

Davlat xizmatchilari o'z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'ymasliklari kerak.

Manfaatlar to'qnashuvi davlat xizmatchilarining shaxsiy manfaatlari ularning o'z xizmat vazifalarini xolisona va beg'araz bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarda paydo bo'ladi.

Davlat xizmatchilarining shaxsiy manfaatdorligi ularning shaxsan o'zi yoki yaqin qarindoshlari, shuningdek, ular yaqin yoki ishbilarmonlik munosabatlarida bo'ladigan boshqa shaxslar uchun har qanday naf ko'rish yoki afzalliklarga ega bo'lishni o'z ichiga oladi.

Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda

davlat xizmatchilari o'z rahbarini darhol xabardor qilishi kerak.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotni olgan rahbar uni tartibga keltirish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rish shart.

Manfaatlar to'qnashuvining ko'rinishlari:

1. Lobbizm (ingliz. lobby – kuluar, koridor) rasmiy vakillar bilan norasmiy shaxslarning o'zaro uchrashib, rasmiy qarorlar qabul qilishdagi siyosiy ta'sirning o'ziga xos turi.

2. Proteksionizm (lot. ko'maklashish) ma'lum bir shaxslarni lavozimga tayinlashga ko'maklashish;

3. Nepotizm (lot. nepos jiyan) qarindosh-urug'chilik, hududiy yoki etnik prinsiplar asosida davlat tuzilmalarida yoki boshqa tuzilmalarda tor guruhchilik manfaatlari bilan ish ko'rish.

4. Rahnamolik, favoritizm (fr. favorit) himoya ostidagi ayrim xodimlarni yaqin olish va qo'llab-quvvatlash.

5. Kronizm (ingliz. hamfikir, tanish-bilishchilik, guruhbozlik) lavozimlarni tanish-bilishchilik asosida do'stlarga berish.

6. Klientelizm (ingl. clientelism, lot. clientela – mijoz) – yuqori lavozimdagi mansabdor shaxs va unga xayrixoh bo'lgan shaxslar (mansabdor shaxslar, tadbirkorlar, siyosiy guruhlar).

7. Pantuflyaj (fran. shippakni almashtirish) – davlat xizmatchisi davlat sektoridan ketib, xususiy sektorga ishga joylashishi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga noaniq, bajarilishi qiyin bo'lgan va (yoki) og'irlashtirilgan talablarni o'z ichiga olgan korrupsiyaviy omillar:

a) huquqni qo'llovchiga tegishli bo'lgan huquqni amalga oshirish uchun unga yuklatiladigan talablarning mavjudligi;

jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini cheklashga qaratilgan va (yoki) yuklatilishi qonun hujjatlari normalari bilan asoslantirilmagan talablarning o'rnatilishi;

bajarish uchun ehtiyoj bo'lmagan majburiyatlarining jismoniy va yuridik shaxslarga yuklatilishi;

jismoniy va yuridik shaxslarga qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan hujjatlar, axborotni taqdim qilish majburiyatining yuklatilishi;

ega bo'layotgan huquqqa muvofiq bo'lmagan alomatlariga (kasbiy, mulkiy, ijtimoiy) muvofiq bo'lish majburiyatlarining mavjudligi;

b) jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan huquqlarni amalga oshirishning qat'iy tartibga solinishining mavjud emasligi;

v) barqaror bo'lmagan, ikki ma'noli tushunchalardan foydalanish yoki qo'llanilayotgan atamalarining tushunchasi, ilmiy asoslantirilishi va ishonchligining mavjud emasligi;

g) huquqiy munosabatlarning bir guruh subyektlariga nisbatan boshqalarni teng bo'lmagan, kamsituvchi ahvolga soluvchi afzalliklarning belgilanishi.

2 Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. J-1. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. 141-b.

Huquqni tartibga solishdagi bo'shliqlar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy omillar:

a) ma'muriy tartib-tamoyillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi, ya'ni organlar tomonidan tegishli harakatlarni bajarish tartibining mavjud emasligi, jumladan:

qarorlarni qabul qiluvchi va qonun hujjatlari talablarini bajaruvchi organing mavjud emasligi;

organing harakatlari va vakolatlarining tartibga solinmaganligi;

vakolatlarni bajarish protsessual tartibining belgilanmaganligi;

organlar tomonidan ma'muriy tartib-taomillarni bajarish uchun asoslarning mavjud emasligi yoki noaniqligi;

qabul qilinayotgan qarorni asoslab berish majburiyatining mavjud emasligi;

amalga oshirilishining aniq mexanizmiga ega bo'lmagan normalarning mavjudligi;

b) organlarning javobgarligi, shuningdek, ularning harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi normalarning mavjud emasligi;

d) organlarning faoliyati ustidan nazorat qilishning shakllari va turlariga ko'rsatmaning mavjud emasligi;

e) organlarning faoliyati to'g'risidagi hamda ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning so'rovlari yuzasidan ma'lumotlarni taqdim qilish tartibi to'g'risidagi axborotni (qonun bilan qo'riqlanadigan sirni tashkil etuvchi axborotlar bundan mustasno) oshkor etishni nazarda tutuvchi normalarning mavjud emasligi;

f) tegishli harakatlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan organi loyihaing mazmunidan belgilashning imkoniyati mavjud emasligi;

g) normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda qoldirish;

h) huquqni qo'llovchilarda huquqlar mavjud bo'lganda majburiyatlarning mavjud emasligi yohud huquqlar mavjud bo'lmaganda majburiyatlarning mavjudligi;

i) tegishli vakolatlar mavjud bo'lmaganda, qonun hujjatlaridagi bo'shliqlarning qonunosti hujjatlari yordamida to'ldirilishi.



Manfaatlar to'qnashuvi qonun hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish orqali ham bartaraf etiladi. Qonun hujjatlarini tayyorlash, muhokama qilish, ekspertizadan o'tkazish va qabul qilish jarayonida fuqarolar va tadbirkorlarning, eng avvalo, davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga, shuningdek, korrupsiya tusidagi huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish darajasi, davlat va jamiyat manfaatlarining ifodalanishi bir so'z bilan aytganda, korrupsion holatlarni oldini olishni taqozo etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishida antikorrupsiyaviy ekspertizaning o'rnini muhim ahamiyatga egadir.

Antikorrupsiyaviy ekspertizaning huquqiy maqomini takomillashtirish yuzasidan bir qancha qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ushbu muhim jarayonni o'tkazish va uning nazariy-amaliy jihatlarini o'rganish hamda ulardan samarali foydalanishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjat loyihasining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish huquqiy asoslari bir qator qonunlarda o'z aksini topgan. Jumladan, "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi qonunida (2006-yil 11-oktyabr) va "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonunida (2012-yil 24-dekabr) normativ-huquqiy hujjat loyihasining ekspertizasi vazifalari hamda normativ-huquqiy hujjat loyihasining huquqiy ekspertizasi tushunchasi belgilab berilgan.

Xalqaro va milliy amaliyotda normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi:

– korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillarni aniqlashga;

– korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan loyihani qabul qilish oqibatlarini umumiy baholashga;

– normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash jarayonida korrupsiya xususiyatiga ega xavflarning yuzaga kelish ehtimolini prognoz qilishga;

– korrupsiyaga sabab bo'lgan, aniqlangan omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga va choralar ko'rishga yo'naltirilgan jarayondan iborat bo'ladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan faoliyatning tegishli yo'nalishlari bo'yicha o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunining 21-moddasiga muvofiq, "davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin



bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi kerak", – deb e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 79-moddasiga binoan: "O'zaro yaqin qarindosh yoki quda-anda bo'lgan shaxslarning (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'il va qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va bolalari), basharti ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo'ysunib yoki uning nazorati ostida xizmat qiladigan bo'lsa, bir davlat korxonasida birga xizmat qilishlari ta'qiqlanadi" – deyilgan.

Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va tartibga

solish quyidagicha amalga oshiriladi:

- xodimning manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha qarorlarni qabul qilish va muhokama qilish jarayonida qatnashishdan ixtiyoriy ravishda voz kechish o'z-o'zini rad etishini tasdiqlash;

- manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun xodimning majburiyatlarini o'zgartirish yoki qayta ko'rib chiqish;

- xodimning shaxsiy manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlardan foydalanishini cheklash;

- xodimni ma'lum bir davlat xarid ishtirokchisi bilan xodim uchun qarorlarni qabul qilish jarayonidan chetlashtirish;

- xodimni manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lmagan mehnat funksiyalarini bajarishni nazarda tutadigan lavozimga o'tkazish;

- xodimni ma'lum bir lavozim, vazifadan ozod etish.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, davlat xizmatchilari o'z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'ymasliklari kerak.

Korrupsiya nafaqat iqtisodiy, balki ichki ma'naviy tahdid sifatida jamiyatning barqarorligini buzadi. Shuning uchun davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashishda ham qonuniy, ham ma'naviy chora-tadbirlarni uyg'unlashtirishi lozim. Maqolada keltirilgan tavsiyalar amalga oshirilsa, jamiyatda axloqiy qadriyatlar mustahkamlanadi va korrupsiya darajasi sezilarli darajada kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyev, Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017. 104-b.
2. Sh.M. Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. 488-b.
3. Sh.M. Mirziyoyev, Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. 692-b.
4. Sh.M. Mirziyoyev, Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. 508-b.
5. Sh.M. Mirziyoyev, Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. 400-b.

Alisher KHIDOYATULLAEV,
PhD in Law Head of Faculty, Law Enforcement
Academy of the Republic of Uzbekistan

COMPARATIVE ANALYSIS OF JUDICIAL ENFORCEMENT MECHANISMS IN CENTRAL ASIA

Annotation: this article examines judicial enforcement mechanisms in Central Asia, focusing on Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan. It analyzes institutional models, digital transformation, and systemic challenges of enforcement proceedings. Particular attention is paid to ongoing academic debates concerning the effectiveness of centralized and mixed enforcement systems. The study argues that enforcement effectiveness depends on a combination of institutional design, governance quality, and technological development.

Key words: *judicial enforcement, enforcement gap, Central Asia, digitalization, enforcement systems, legal reform, rule of law.*

Аннотация: в статье рассматриваются механизмы судебного исполнения в странах Центральной Азии (Узбекистан, Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан и Туркменистан). Анализируются институциональные модели, процессы цифровизации и системные проблемы исполнительного производства. Особое внимание уделяется научной полемике относительно эффективности централизованных и смешанных систем исполнения. Делается вывод о том, что эффективность исполнения зависит от сочетания институциональной структуры, качества государственного управления и уровня технологического развития.

Ключевые слова: *судебное исполнение, разрыв исполнения, Центральная Азия, цифровизация, исполнительное производство, правовая реформа, верховенство права.*

Annotatsiya: maqolada Markaziy Osiyo davlatlarida (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston) sud qarorlarini ijro etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Unda institutsional modellar, raqamlashtirish jarayonlari hamda ijro jarayonidagi tizimli muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, markazlashgan va aralash ijro tizimlarining samaradorligi yuzasidan mavjud ilmiy bahs-munozaralarga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijro samaradorligi institutsional tuzilma, boshqaruv sifati va texnologik rivojlanish darajasiga bog'liq ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: *sud ijrosi, ijrodagi tafovut (enforcement gap), Markaziy Osiyo, raqamlashtirish, ijro tizimlari, huquqiy islohotlar, qonun ustuvorligi.*

Introduction

Judicial enforcement constitutes the final stage of the administration of justice and represents a key indicator of the effectiveness of legal systems. The absence of effective enforcement mechanisms undermines the practical realization of legal rights, weakens legal certainty, and negatively affects investor confidence¹.

In contemporary legal scholarship, however, there is no consensus regarding the primary causes of enforcement inefficiency. One group of scholars considers enforcement failures to be primarily procedural in nature, emphasizing deficiencies in legal regulation and enforcement procedures². Another perspective argues that enforcement problems are fundamentally institutional and structural, rooted in governance weaknesses, lack of incentives, and limited accountability mechanisms.³

This theoretical divergence is particularly relevant in post-Soviet legal systems, including Central Asia, where

enforcement institutions have undergone significant but uneven reform⁴.

The concept of the enforcement gap—the discrepancy between judicial decisions and their actual execution—occupies a central place in modern legal analysis.

From a formal legal perspective, this gap is attributed to insufficient procedural regulation and legal uncertainty. In contrast, institutional scholars argue that enforcement effectiveness depends primarily on organizational capacity, incentives, and governance structures.⁵

A further scholarly debate concerns the classification of enforcement systems. Three principal models are typically identified:

- state-administered systems,
- mixed systems involving public and private actors,
- transitional systems undergoing reform.

Supporters of state-centered models emphasize legality, uniformity, and state accountability. Conversely,

1 World Bank. World Development Report 2024: Governance and the Law. – Washington, DC: World Bank, 2024. – P. 89.

2 Мамасиддиқов М.М. Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. – Тошкент: ТДИУ, 2021. – Б. 245.

3 North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – P. 54.

4 Burxonov A. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini takomillashtirish. – Toshkent: TDYU, 2019. – B. 67.

5 Cappelletti M. The Judicial Process in Comparative Perspective. – Oxford: Clarendon Press, 1989. – P. 132.



proponents of mixed systems highlight efficiency gains resulting from incentive-based mechanisms.

However, critics of privatization argue that mixed systems may lead to:

- unequal access to enforcement,
- prioritization of profitable cases,
- and risks to procedural fairness⁶.

Thus, a key unresolved issue in legal scholarship is whether enforcement should be treated primarily as a public function or as an efficiency-oriented service.

Digitalization: Competing Perspectives

Digitalization has emerged as a critical factor shaping modern enforcement systems.⁷

- According to the dominant view, digital technologies:
- enhance transparency,
 - reduce discretionary decision-making,
 - and improve enforcement efficiency.⁸

However, a growing body of critical scholarship challenges this optimistic perspective. Critics argue that digitalization may:

- introduce algorithmic opacity,
- concentrate institutional power,
- and reduce procedural safeguards.⁹

This debate demonstrates that digitalization should be understood not merely as a technical tool, but as a structural transformation of enforcement systems.

Historical Evolution of Enforcement Systems

Following independence, Central Asian states largely retained Soviet-style enforcement systems characterized by centralized control and weak incentive structures¹⁰.

During the 1990s and early 2000s, enforcement systems were marked by:

- limited institutional capacity,
- excessive caseloads,
- low enforcement rates.

Since the 2010s, however, divergent reform strategies have emerged:

- Uzbekistan adopted a centralized model,
- Kazakhstan implemented a mixed system,
- Kyrgyzstan pursued gradual reform,
- Tajikistan and Turkmenistan retained traditional models.

This divergence provides a basis for comparative institutional analysis.

Comparative Country Analysis with Critical Perspective

Uzbekistan: Centralized Enforcement Model

Uzbekistan introduced a centralized enforcement system supported by digital infrastructure.¹¹

From one perspective, this model demonstrates that centralization can enhance coordination and compliance. However, critics argue that excessive centralization may:

- limit institutional independence,
- concentrate administrative power,
- and weaken accountability mechanisms.

Thus, Uzbekistan's model reflects the broader debate between efficiency and institutional pluralism.

Kazakhstan: Mixed Enforcement System

Kazakhstan's mixed system combines public and private enforcement officers.

Proponents argue that this model improves

6 Reiling D. *Technology for Justice*. 2009

7 Хабибуллаев Д.Ю. Суд қарорлари ижросини таъминлашнинг ҳуқуқий механизми. – Тошкент: ТДЮИ, 2010. – Б. 42.

8 Genn H. *Paths to Justice: What People Do and Think About Going to Law*. – Oxford: Hart Publishing, 1999. – P. 115.

9 Hess B. *European Civil Procedure*. – Munich: C.H. Beck, 2010. – P. 301.

10 Yunusov K. *Legal Systems of Central Asia*. 2014

11 аҳмонкулов Ҳ.Р. Хусусий ҳуқуқ ва ижро тизими. – Тошкент: Адолат, 2005. – Б. 78.

efficiency and recovery rates through incentive-based mechanisms¹². However, critics emphasize:

- inequality of access,
- selective enforcement practices,
- risks of commercialization.

Kyrgyzstan: Transitional Model

Kyrgyzstan represents a transitional system undergoing institutional reform.

Its experience supports the argument that legal transplants are not always directly transferable. Scholars debate whether such reforms lead to genuine institutional change or merely formal adaptation.

Tajikistan and Turkmenistan: Traditional Systems

These countries maintain state-administered systems with limited reform.

While institutional stability may provide predictability, lack of modernization leads to:

- low efficiency,
- limited transparency,
- persistent structural constraints.

Common Challenges and Structural Constraints

Across the region, several systemic challenges persist:

- difficulties in asset tracing,
- weak digital integration,
- limited institutional capacity,

insufficient transparency.

Importantly, these issues should be understood not merely as technical deficiencies, but as manifestations of broader governance problems¹³.

Discussion: Reconciling Competing Approaches

The analysis reveals a fundamental tension between:

- state control (legitimacy)
- market efficiency (incentives)
- digital governance (technology)

As noted in comparative legal scholarship, no single model is universally effective¹⁴.

Conclusion

Judicial enforcement in Central Asia should be understood as a core element of the rule of law rather than a purely procedural function.

The effectiveness of enforcement systems depends on:

- institutional design,
- governance quality,
- and technological capacity.

The main theoretical contribution of this study is the argument that enforcement systems must move beyond rigid models toward integrated and adaptive frameworks, capable of balancing efficiency, accountability, and legal certainty.

12 Шерстюк В.М. Система советского гражданского процессуального права. – Москва: МГУ, 1989. – С. 120.

13 Genn H. Paths to Justice: What People Do and Think About Going to Law. – Oxford: Hart Publishing, 1999. – P. 115.

14 Okoli C. Recognition and Enforcement of Foreign Judgments. 2023.

References

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni. 29.08.2001 y. 258-II-sonli.
3. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2018.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-maydagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5059-sonli Farmoni.
5. Zakon Respubliki Kazaxstan "Ob ispolnitelnom proizvodstve i statuse sudebnix ispolniteley" ot 2 aprelya 2010 goda № 261-IV.

II. Adabiyotlar (Kitoblar va maqolalar)

6. Khidoyatullaev A.T. Comparative analysis of judicial enforcement mechanisms in Central Asia // Theoretical & Applied Science. – 2023. – №12. – P. 45-52.
7. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. (Darslik). – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. – 540 b.
8. Piana D. Judicial Accountabilities in New Democracies: The Case of Central and Eastern Europe. – Routledge, 2010. – 256 p..
9. Yuldashev A.S. Sud hujjatlarini ijro etishning huquqiy mexanizmlari. – Toshkent: Akademiya, 2021. – 210 b.
10. Hess B. European Civil Procedural Law. – Heidelberg: C.F. Müller, 2010.

III. Internet resurslari

11. International Union of Judicial Officers (UIHJ) official website. – URL: <https://www.uhj.com> (murojaat sanasi: 16.04.2024).
12. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro bürosi rasmiy sayti. – URL: <https://mib.uz>.
13. LexUZ – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>.

Pulatbek SHAGILOV,

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi*

JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAHDID SOLUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI MA'MURIY-HUQUQIY CHORALARNING SAMARADORLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida ma'muriy-huquqiy choralarni qo'llash amaliyotining dolzarb muammolari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Jinoyat kodeksining jamoat xavfsizligiga oid normalaridagi huquqiy noaniqliklar, idoralararo muvofiqlashtirish mexanizmlarining nomukammalligi, kadrlar salohiyatining yetarli emasligi hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarining integratsiyalashmaganligi kabi tizimli kamchiliklar aniqlangan. Muallif tomonidan qonunchilikka kiritilishi maqsadga muvofiq bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar, jumladan, mayda bezorilik, adovat qo'zg'atish va kiberbezorilik uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan aniq normalar taklif etilgan. Maqola yakunida jamoat xavfsizligi sohasida ma'muriy-huquqiy mexanizmlarning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar tizimi ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *jamoat xavfsizligi, ma'muriy-huquqiy choralar, ma'muriy javobgarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, mayda bezorilik, kiberbezorilik, idoralararo hamkorlik, raqamli texnologiyalar.*

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of the pressing issues in the practice of applying administrative-legal measures within the system of ensuring public safety in the Republic of Uzbekistan. Within the scope of the research, systemic shortcomings have been identified, such as legal ambiguities in the current Code of Administrative Liability and the Criminal Code concerning public safety norms, the imperfection of interagency coordination mechanisms, insufficient personnel potential, and the lack of integration of information and communication systems. The author proposes specific norms aimed at enhancing responsibility for minor hooliganism, incitement of hostility, and cyber-hooliganism, as changes and additions considered appropriate for inclusion in the legislation. At the end of the article, a system of scientifically based recommendations for increasing the effectiveness of administrative-legal mechanisms in the field of public safety is put forward.

Key words: *public safety, administrative-legal measures, administrative responsibility, prevention of offenses, petty hooliganism, cyber-hooliganism, interagency cooperation, digital technologies.*

Аннотация: в данной статье проводится комплексный анализ актуальных проблем практики применения административно-правовых мер в системе обеспечения общественной безопасности в Республике Узбекистан. В рамках исследования выявлены системные недостатки, такие как правовая неопределённость норм действующих Кодекса об административной ответственности и Уголовного кодекса, касающихся общественной безопасности, несовершенство механизмов межведомственного взаимодействия, недостаточная квалификация кадров, а также неинтегрированность информационно-коммуникационных систем. Автором предложены конкретные нормы, направленные на усиление ответственности за мелкое хулиганство, разжигание вражды и киберхулиганство, которые целесообразно внести в законодательство. В заключении статьи представлена система научно обоснованных рекомендаций по повышению эффективности административно-правовых механизмов в сфере общественной безопасности.

Ключевые слова: *общественная безопасность, административно-правовые меры, административная ответственность, профилактика правонарушений, мелкое хулиганство, киберхулиганство, межведомственное сотрудничество, цифровые технологии.*

Jamoat xavfsizligini ta'minlash har qanday demokratik huquqiy davlat faoliyatining ustuvor strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, u fuqarolarning shaxsiy daxlsizligi, mulkiy manfaatlari, erkinliklari hamda osoyishta hayot tarzini ishonchli himoya qilishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida so'nggi

yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar fonida mazkur sohaga oid qonunchilik bazasini takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini yanada samarali tashkil etish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Zamonaviy bosqichda turli ko'rinishdagi

huquqbuzarliklar, ayniqsa, jamoat joylarida sodir etilayotgan xo'rlavchi va tahdidli harakatlar, ommaviy tadbirlar paytidagi bezorilik holatlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qonuniy talablariga bo'ysunmaslik, shuningdek, jamoat transporti va boshqa ijtimoiy maskanlardagi xatarli xatti-harakatlar sonining ortib borayotgani kuzatilmoqda. Ushbu tendensiyalar nafaqat huquq-tartibot idoralarining bevosita faoliyatiga, balki umuman davlatning huquqiy siyosatiga jiddiy chaqiriq sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday sharoitda ma'muriy-huquqiy choralarning ta'sirchanligi, ularning mustahkam huquqiy asoslari va qo'llanish samaradorligini har tomonlama ilmiy jihatdan tahlil etish obyektiv zaruratga aylanmoqda.

Ma'muriy-huquqiy choralari huquqbuzarliklarni erta bosqichda aniqlash, ularning oldini olish hamda sodir etilgan qilmishlar uchun muqarrar javobgarlik mexanizmlarini joriy etish orqali jamoat xavfsizligini ta'minlashning muhim vositalaridan hisoblanadi. Lekin amaldagi vaziyatni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu choralarni qo'llash jarayonida bir qator huquqiy va tashkiliy tushdagi muammolar muntazam ravishda yuzaga kelmoqda. Xususan, yetakchi huquqshunos olimlar tomonidan qayd etilganidek, ma'muriy javobgarlikka tortish jarayonlarida protsessual kafolatlarining yetarli darajada ta'minlanmaganligi, qonun normalarining turlicha talqin qilinishi amaliyotda nisbatan turli yondashuvlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Professor A.H. Hamidov ta'kidlaganidek, "jamoat xavfsizligiga qarshi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga huquqiy ta'sir ko'rsatishdagi asosiy muammolardan biri — bu ma'muriy choralarning mutanosibligi va huquqiy shakllarining aniq belgilanmaganidir" [1].

Ushbu maqolaning maqsadi jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda ma'muriy-huquqiy choralarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni tizimli tahlil qilish, qonunchilikdagi mavjud bo'shliq va ziddiyatlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda ma'muriy-huquqiy choralari tizimining samaradorligi, avvalo, ularning mustahkam huquqiy asoslari, tizimlilik darajasi hamda amaliyotda qo'llanish mexanizmlarining aniqligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida (MJTK) jamoat xavfsizligiga taalluqli normalarning tizimli joylashtirilganligi hamda ayrim huquqbuzarlik holatlarini to'liq qamrab olmasligi amaliyotda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish bo'yicha ekspert kengashining 2023-yildagi hisobotida haqli ravishda qayd etilganidek, "MJTKdagi jamoat xavfsizligi bilan

bog'liq moddalar ko'p hollarda hayotiy vaziyatlarni to'liq qamrab olmaydi, nomuayyan tushunchalar va tarkiblar qonuniy baholashda turli talqinlarga olib kelmoqda" [2]. Ushbu holatning yaqqol isboti sifatida MJTKning 183-moddasida nazarda tutilgan "mayda bezorilik" tarkibini keltirish mumkin. Mazkur moddada sodir etiladigan harakatlarning huquqiy belgilari, ularning aniq tasnifi hamda kvalifikatsiyasi yetarli darajada aniqlashtirilmagan bo'lib, norma ko'p jihatdan umumiy va noaniq ifodalangan. Bir tomondan, bunday yondashuv sud-tergov amaliyotida turli turmushiy vaziyatlarni qamrab olish imkonini bersa-da, ikkinchi tomondan, ortiqcha erkinlik huquqni qo'llashda bir xillik tamoyiliga putur yetkazishi va subyektiv yondashuvlarning kengayishiga zamin yaratishi mumkin.

Mazkur muammoning amaliy ahamiyatini quyidagi misollar yaqqol namoyon etadi. 2024-yil 23-oktabrda Toshkent shahar Yakkasaroy tumanida fuqaro B.B. tomonidan sodir etilgan jamoat tartibini buzish bilan bog'liq uyatsiz harakatlar uchun sud MJTKning 183-moddasini qo'llagan holda 15 sutka ma'muriy qamoq jazosi tayinlagan. Boshqa bir holatda esa, 2025-yil 13-may kuni Toshkent shahri Uchtepa tumanidagi bolalar maydonchasida voyaga yetmagan qizlarga nisbatan uyatsiz harakatlar sodir etgan fuqaro V.J.ga nisbatan dastlab ma'muriy jazo qo'llanilgan, biroq Bolalar ombudsmanining aralashuvidan so'ng apellyatsiya sudi ishni qo'shimcha tekshiruvga qaytarib, jinoyat ishi qo'zg'atish masalasini prokuraturaga yuborish to'g'risida qaror qabul qilgan. O'xshash harakatlarning turlicha huquqiy baholanishi qonunchilikdagi nomuayyanlikning bevosita oqibati ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, amalda keng qo'llanilayotgan profilaktik bayonnoma, og'zaki ogohlantirish va reydlar natijasidagi qaydlar kabi ma'muriy-huquqiy choralarning huquqiy maqomi ham aniq belgilanmagan. Professor Z.T.Xoliqova bu borada shunday xulosaga keladi: "Ma'muriy ta'sir choralari huquqiy shaklda tartibga solinmas ekan, ularning huquqiy oqibatlari faqat formal va vaqtinchalik tusga ega bo'ladi. Bu esa profilaktika funksiyasini samarasiz qiladi" [3]. Haqiqatan ham, mazkur hujjatlar ko'pincha ichki idoraviy buyruqlar yoki yo'riqnomalar asosida rasmiylashtiriladi va qonun kuchiga ega bo'lmaganligi sababli ularning qonuniyligi va yuridik kuchga egaligi shubha ostida qoladi.

Professor F.Yuldoshev ta'kidlaganidek: "Ma'muriy huquqni qo'llash amaliyotidagi asosiy muammo — huquqiy norma va uslubiy qo'llanmalarining bir xilda qabul qilinmasligi, bu esa huquqiy aniqlik va qonuniylik tamoyillarini buzishga olib keladi" [4]. Shuning uchun muammo faqat kodeks moddalarining nomukammalligida emas, balki ularni to'g'ri izohlash va bir xilda qo'llashni ta'minlaydigan yagona metodik va sud-huquqiy yo'riqnomalarning yo'qligida hamdir.

Jamoat xavfsizligiga oid huquqbuzarliklar

profilaktikasini amalga oshirishda bir qator davlat organlari, jumladan Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, mahalliy kengashlar va prokuratura organlari ishtirok etadi. Biroq ularning o'zaro hamkorlik munosabatlari, vakolatlari doirasi va javobgarlik chegaralari ko'p hollarda aniq belgilanmagan yoki bir-birining ustiga tushadigan vaziyatlar mavjud. Bu esa amaliyotda samarasizlik, mas'uliyatdan qochish, buyruqbozlik va "huquqiy vacuum" kabi salbiy holatlarni yuzaga keltiradi.

Huquqshunos olim H. Yunusov ushbu masala yuzasidan quyidagilarni qayd etadi: "Idoralararo hamkorlik normalari huquqiy jihatdan aniqlashtirilmagan ekani sababli, mahalliy darajada profilaktika tadbirlari nafaqat tizimli emas, balki institutsional hisobotlar orqali rasmiylashtirilmagan. Bu holat huquqiy xavfsizlikni ta'minlashda xatarli pretsedentlar keltirib chiqaradi" [5].

Amaliyotda ko'p uchraydigan holatlardan yana biri — qonun va idoraviy hujjatlar o'rtasidagi huquqiy ixtiloflardir. Masalan, MJTKda belgilangan tartib-taomillar IIV ichki buyruqlarida aks etgan meyorlar bilan mos kelmasligi, profilaktika inspektorlari faoliyatini tartibga soluvchi buyruqlarda fuqarolar huquqlarini cheklovchi noqonuniy qoidalarning mavjudligi muammoni yanada murakkablashtiradi. Tadqiqotchi N.Karimov tomonidan tayyorlangan huquqiy monitoring natijalarida qayd etilishicha, "idoraviy buyruqlar amalda qonunni almashtirib qo'yimoqda" [6]. Bu eng xatarli jihatlardan biridir, chunki qonun ustuvorligi tamoyiliga zid ravishda idoraviy normativ hujjatlar qonundan ustun qo'yilmoqda.

Shu bilan birga, idoralar o'rtasidagi munosabatlarning qonun bilan qat'iy belgilanmaganligi ayrim hollarda ijobiy jihatlariga ham ega bo'lishi mumkin. Qonunning o'ta mayda-chuyda tafsilotlarga kirmaganligi idoralarga vaziyatga tez moslashish va moslashuvchan qarorlar qabul qilish imkonini bergan. Masalan, mahallada ichki ishlar xodimi bilan mahalla raisi o'rtasidagi norasmiy kelishuvlar ko'p hollarda huquqiy tartibga solinmagan vaziyatlarda samarali ish mexanizmi bo'lib xizmat qilgan. Biroq shuni aniqki, huquqiy davlatda qonun ustuvor bo'lishi shart. Shu sababli masalani yechishning to'g'ri yo'li — qonun darajasida asosiy vakolat va mas'uliyat doiralarini aniq belgilab qo'yish, ayni paytda idoralarga bir-biri bilan kelishib ishlash uchun ma'lum darajada amaliy moslashuvchanlik imkoniyatini qoldirishdan iborat.

Ma'muriy-huquqiy choralarning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi yana bir muhim omil — bu huquqni qo'llovchi organlar xodimlarining kasbiy tayyorgarligi va malakasi darajasidir. Joylardagi profilaktika inspektorlari, Milliy gvardiya bo'linmalari yoki jamoatchilik nazorati subyektlari tomonidan ma'muriy jarayon normalariga rioya etilmasligi ko'p hollarda qonun buzilishlarga yoki protsessual xato va kamchiliklarga olib kelmoqda.

Professor D.Qo'chqorov bu borada shunday xulosaga keladi: "Ma'muriy huquqbuzarlikka nisbatan

chora ko'rish jarayonidagi formalizm, mutaxassislar malakasining pastligi profilaktikaning ta'sirchanligini keskin pasaytiradi" [7]. Haqiqatan ham, hozirgi paytda profilaktika inspektorlarining aksariyati oliy yuridik ma'lumotga ega emas, ular asosan ichki ishlar tizimida amaliy tayyorgarlikdan o'tgan xodimlardir. Bu holat bir tomondan muayyan protsessual xatolarga sabab bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ikkinchi tomondan ularning mahalla aholisi bilan doimiy muloqotda bo'lishi, mahalliy ijtimoiy muhitni chuqur bilishi huquqshunoslik nazariyasidan ko'ra amaliyotda ko'proq samara beradigan jihatlardir.

Bunday sharoitda profilaktika inspektori ham yetarli huquqiy bilimga, ham rivojlangan ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Shu bois ularning yuridik savodxonligini oshirish qisqa muddatli malaka oshirish kurslari va qayta tayyorlash dasturlari orqali tizimli asosda tashkil etilishi shart. Har yili qayta attestatsiya va huquqiy tayyorgarlik modullarini joriy etish orqali xodimlarning malakasini barqaror ravishda oshirib borish mumkin. Bu yondashuv "yuridik ma'lumotga ega emaslik" nuqsonini tabiiy ravishda bartaraf etish imkonini beradi.

Huquqni qo'llash amaliyotida samaradorlikka erishish uchun axborot-kommunikatsiya tizimlarining o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Afsuski, hozirgi vaqtda IIV, prokuratura, hokimliklar va sud organlarining ma'lumot bazalari o'zaro bog'lanmagan yoki uzluksiz axborot almashinuvini ta'minlamaydi. Bu holat qayta takrorlanuvchi huquqbuzarliklarni o'z vaqtida fosh etishda sustlikka yoki umuman chora ko'rilmaligiga sabab bo'lmoqda. Masalan, profilaktik ro'yxatda turgan shaxsning boshqa tuman yoki shahardagi huquqbuzarliklari to'g'risidagi ma'lumotlar asosiy bazaga kiritilmasligi holatlari ko'p marta kuzatilgan.

Huquqshunos olim A.Shamsiddinov bu holatni quyidagicha izohlaydi: "Ma'muriy jarayonda axborot tizimlari o'rtasidagi uzilish huquqbuzarliklarni ko'zdan qochirishga olib keladi. Bu holat faqat texnik emas, balki huquqiy tuzilma muammosi hisoblanadi" [8].

Bundan tashqari, mavjud hisobot tizimidagi rasmiyatchilik va samarasiz KPI ko'rsatkichlari ham jiddiy muammo sanaladi. Bugungi kunda profilaktika va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish faoliyati ko'proq statistik natijalarga qarab baholanmoqda. Ko'pincha ish yuritish ko'rsatkichlari (necha nafar profilaktik bayonnoma rasmiylashtirilgani, qancha shaxs ogohlantirilgani) sifat ko'rsatkichlaridan ustun qo'yiladi. Bu esa yuzaga kelgan haqiqiy tahdidlarga emas, balki sun'iy raqamlarga asoslangan yondashuvning shakllanishiga olib kelmoqda. Soha mutaxassislari bu holatni "qonun ustuvorligidan ko'ra, kvotalar ijrosi bo'yicha hisobot berishga asoslangan tizim" deb baholamoqdalar.

Yuqorida bayon etilgan tizimli muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va Jinoyat

kodeksiga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga oid takliflar:

Birinchiidan, MJTK XV bobining nomini mazmunan xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish va huquqbuzarliklarning jamiyat xavfsizligiga bo'lgan haqiqiy tahdidini aniqroq ifoda etish maqsadida "Jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik" tarzida qayta nomlash taklif etiladi. Bu o'zgartirish 2021-yil 29-noyabrda Prezident farmoni bilan tasdiqlangan "Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi"da mazkur sohaning davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilganiga hamda xalqaro amaliyotda "public security" atamasining keng qo'llanishiga asoslanadi.

Ikkinchiidan, MJTKning 183-moddasiga quyidagi mazmundagi uchinchi qismni qo'shish taklif etiladi:

"Axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida inson qadr-qimmatini va ijtimoiy axloqni tahqirlovchi, jamiyatga, davlatga, O'zbekiston Respublikasining rasmiy davlat ramzlariga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga yoki O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi organlarga ochiqdan-ochiq hurmatsizlikni ifodalovchi axborotni tarqatish, agar ushbu harakatlar jinoiy jazolanadigan qilmishni o'z ichiga olmasa, — huquqbuzarlik sodir etish qurolini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi."

Uchinchiidan, MJTKning 184³-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

"184³-modda. Adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish

Milliy, irqiy, etnik, diniy, ma'muriy hududiy kelib chiqishi, shuningdek biror-bir ijtimoiy guruhga mansubligi belgilari bo'yicha insonning yoxud shaxslar guruhining qadr-qimmatini kamsitishga qaratilgan va adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida namoyish etish va tarqatish — materiallarni va ularni tayyorlash hamda tarqatish uchun tegishli vositalarni musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yuz baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi."

2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga oid takliflar:

Birinchiidan, JKning 156-moddasi nomi va birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

"156-modda. Adovat qo'zg'atish

Milliy, irqiy, etnik, diniy, ma'muriy hududiy kelib

chiqishi, shuningdek biror-bir ijtimoiy guruhga mansubligi belgilari bo'yicha insonning yoxud shaxslar guruhining qadr-qimmatini kamsitishga qaratilgan va adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida namoyish etish va tarqatish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi."

Ikkinchiidan, Jinoyat kodeksini quyidagi mazmundagi 277¹-modda bilan to'ldirish taklif etiladi:

"277¹-modda. Kiberbezorilik

Axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida inson qadr-qimmatini va ijtimoiy axloqni tahqirlovchi, jamiyatga, davlatga, O'zbekiston Respublikasining rasmiy davlat ramzlariga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga yoki O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi organlarga ochiqdan-ochiq hurmatsizlikni ifodalovchi axborotni tarqatish, ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa —

bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, —

uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi."

Yuqoridagi qonunchilik takliflari bilan bir qatorda, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda ma'muriy-huquqiy choralarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Yagona axborot tizimini shakllantirish. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasini takomillashtirish orqali IIV, Milliy gvardiya, Prokuratura, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlari axborot resurslarini yagona integratsiyalashgan platformaga birlashtirish majburiyatini qonunchilik darajasida belgilash lozim.

3. Intellektual nazorat tizimlarini keng joriy etish. "Xavfsiz Shahar" platformasi, videokuzatuv va "smart-reaksiya" algoritmlari orqali jamoat xavfsizligiga tahdidni oldindan aniqlash imkoniyatlarini kengaytirish, profilaktika va javobgarlik tadbirlarini avtomatlashtirish

orqali inson omiliga bog'liq subyektiv qarorlar sonini kamaytirish lozim.

3. Fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini kengaytirish. YEXHTning "Community Policing" tamoyiliga mos ravishda, fuqarolarning huquqbuzarliklar profilaktikasida ishtirok etish mexanizmlarini qonunchilikda aniq belgilash, mahallalarda ijtimoiy profilaktika kengashlari tuzish va fuqarolarning monitoringdagi ishtirokini rag'batlantirish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

O'tkazilgan ilmiy-amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbuzarliklarga qarshi ma'muriy-huquqiy choralarni qo'llash amaliyotida qator tizimli kamchiliklar mavjud. Jumladan, ayrim huquqiy mexanizmlarning yetarlicha takomillashmaganligi, turli idoralar o'rtasidagi hamkorlikning sustligi, mutaxassislar salohiyatining cheklanganligi, axborot tizimlari o'rtasida integratsiyaning yetarli darajada yo'lga

qo'yilmagani hamda normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi nomuvofiqliklar ushbu muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda ma'muriy-huquqiy choralarni natijadorligini ta'minlash uchun normativ-huquqiy qoidalarning aniqligi, ularni amalga oshirish mexanizmlarining samarali ishlashi, fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki va zamonaviy raqamli nazorat vositalarining uyg'unlashgan qo'llanishi zarur. Mazkur omillar huquqni qo'llash amaliyotida shaffoflik va qonuniylikni kuchaytirish bilan birga, aholining xavfsizlik tizimiga hamda davlat organlariga bo'lgan ishonchini oshirishga ham xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan qonunchilik o'zgartirishlari va amaliy tavsiyalar kompleksini amalga oshirish orqali O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimining samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini yanada ishonchli himoya qilishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son "Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish bo'yicha ekspert kengashining 2023-yil hisoboti. – Toshkent, 2023. 34-bet.
5. Hamidov A.H. Jamoat xavfsizligini ma'muriy-huquqiy ta'minlash muammolari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022. 118-bet.
6. Xoliqova Z.T. Ma'muriy ta'sir choralarining huquqiy tabiati va ularni takomillashtirish istiqbollari // Huquq va qonun. – 2023. – №4. 56-bet.
7. Yuldoshev F. Ma'muriy huquqni qo'llash amaliyotida qonuniylik va huquqiy aniqlik tamoyillarining ta'minlanishi // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2023. – №2. 89-bet.
8. Yunusov H. Idoralararo hamkorlikning huquqiy asoslari: milliy va xorijiy tajriba. – Toshkent: IIV Akademiyasi, 2023. 145-bet.
9. Karimov N. Idoraviy normativ hujjatlarning qonuniyligi monitoringi natijalari. – Toshkent: Adolat, 2022. 67-bet.
10. Qo'chqorov D. Ma'muriy huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishda kadrlar salohiyatining ahamiyati // Qonun himoyasida. – 2024. – №1. 102-bet.
11. Shamsiddinov A. Axborot texnologiyalari va jamoat xavfsizligi: huquqiy jihatlar. – Toshkent: IIV Akademiyasi, 2023. 178-bet.

Umidjon XAMRAKULOV,

O'zbekiston Respublikasi IIV TQD

Kiberxavfsizlik markazi boshlig'ining o'rinbosari;

Alisherjon ASHURALIYEV,

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti

mustaqil izlanuvchisi (PhD)

KODNI QAYTA ISHLATISH KIBERHUJUMLARINI INTELLEKTUAL YUMSHATISH TIZIMLARINI ISHLAB CHIQISH

Annotatsiya: mazkur maqolada kodni qayta ishlatishga asoslangan kiberhujumlar (ROP/JOP)ni aniqlash va tahlil qilish uchun intellektual yondashuv taklif etilgan. Unda bazaviy bloklardan olingan xususiyatlar (assembly, API, string) hamda LLM yordamida zararli kod joylashuvini aniqlash va breakpoint nuqtalarini avtomatik belgilash ko'zda tutilgan. Shuningdek, GCN va RNN kabi neyron tarmoqlar orqali gadget zanjirlarini tahlil qilish imkoniyatlari ko'rsatilgan. Taklif etilgan usul revers-injenerlik jarayonini tezlashtirish va kiberxavfsizlikni oshirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan yondashuv kiberhujumlarni erta bosqichda aniqlash, ularni tahlil qilish samaradorligini oshirish va kiberxavfsizlik tizimlarini takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *kiberhujumlar, kodni qayta ishlatish (ROP/JOP), kiberxavfsizlik, bazaviy bloklar (BB), nazorat oqimi grafi (CFG), LLM, graf konvolyutsion tarmoqlar (GCN), rekurrent neyron tarmoqlar (RNN).*

Аннотация: в данной статье предлагается интеллектуальный подход к обнаружению и анализу кибератак на основе повторного использования кода (ROP/JOP). Он включает в себя обнаружение мест вредоносного кода и автоматическую установку точек останова с использованием признаков, полученных из базовых блоков (ассемблирование, API, строка) и LLM. Также показаны возможности анализа цепочек гаджетов с использованием нейронных сетей, таких как GCN и RNN. Предложенный метод позволяет ускорить процесс обратного проектирования и повысить кибербезопасность. Предложенный подход имеет важное теоретическое и практическое значение для обнаружения кибератак на ранней стадии, повышения эффективности их анализа и улучшения систем кибербезопасности.

Ключевые слова: *кибератаки, повторное использование кода (ROP/JOP), кибербезопасность, строительные блоки (BB), граф потока управления (CFG), LLM, графовые сверточные сети (GCN), рекуррентные нейронные сети (RNN).*

Annotation: this article proposes an intelligent approach to detecting and analyzing cyberattacks based on code reuse (ROP/JOP). It involves detecting malicious code locations and automatically setting breakpoints using features obtained from basic blocks (assembly, API, string) and LLM. It also shows the possibilities of analyzing gadget chains using neural networks such as GCN and RNN. The proposed method serves to accelerate the reverse engineering process and increase cybersecurity. The proposed approach is of important theoretical and practical importance for detecting cyberattacks at an early stage, increasing the efficiency of their analysis, and improving cybersecurity systems.


Key words: *cyberattacks, code reuse (ROP/JOP), cybersecurity, building blocks (BB), control flow graph (CFG), LLM, graph convolutional networks (GCN), recurrent neural networks (RNN).*

Bugungi zamonaviy jamiyatni dasturiy ta'minotlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dasturiy ta'minotlar kichik smartfonlarning ilovalaridan tortib to yirik korporativ tizimlarga jamiyatning barcha sohalariga, insonlar hayoti va ayniqsa biznesga jadal suratlarda kirib kelmoqda. Ammo dasturiy ta'minotlarning kichik afzalligi ortida undan foydalanish bilan bog'liq potentsial kibertahdidlarni ham inobatga olish lozim bo'ladi[1]. Dasturiy ta'minot kiberxavfsizligining turli jihatlarini buzish foydalanuvchilar va tashkilotlar uchun yirik kiberjinoyatlarning sodir etilishiga sababchi bo'lishi

mumkin[2]. AQSh Milliy standartlar va texnologiyalar instituti ma'lumotlariga ko'ra, har yili yangi zaifliklar va ta'sirlarning (Common Vulnerabilities and Exposures-CVE) tavsiflari chop etiladi (1-rasm) [3, 4]. 2017-yildan beri ketma-ket yettinchi yil davomida biz 40 009 ta CVE nashr etilganiga guvoh bo'ldik, bu 2023-yilga nisbatan 38,83 foizga o'sdi. Bu o'tgan yili chiqarilgan barcha CVElarning 15,32 foizini tashkil etganligini anglatadi.

Koddan qayta foydalanish hujumlarida birinchi maqsad ko'pincha tezkor detektorlarni – imzo bazalari va sandbokslarni – aylanib o'tishdir. Bunday

CVEs ulushi (%)




1- rasm. Yillar kesimida aniqlangan yangi zaifliklarning ulushi (CVE)

aylanib o'tish odatda sandboksdaagi artfaktlarni (muhitni identifikatsiya qiluvchi belgilar) aniqlash orqali amalga oshiriladi va shu yo'l bilan hujum aktivlashuvi kechiktiriladi (2-rasm).


Sandbokslarning «shaffof» bo'lishi (ya'ni ularni haqiqiy mashinadan ajratib bo'lmazlik) bu masalani hal etishning bir yo'li hisoblanadi: agar sandboks haqiqiy muhitdan farqlanmasa, ekspluatatsiyalarning aktivatsiyasi sodir bo'ladi. Lekin amaliyotda to'liq shaffoflikni ta'minlash xarajat va texnik cheklovlarga bog'liq bo'lganligi sababli bu har doim ham amalga oshmasligi mumkin. Shu sababdan koddan qayta foydalanish hujumlari ko'proq revers-injinir qo'lga tushish uchun mo'ljallanadi va bu hujumchilarning ikkinchi maqsadiga – revers tahlilini kechiktirish va qiyinlashtirishga olib keladi. Masalan, gadget zanjirlarini polimorfik usullar bilan maskirovka qilish, kontrol-oqimni fragmentatsiya qilish yoki runtime da dinamik qayta qurish revers-injinirning tizimli tahlilini sekinlashtiradi.

Revers-injener nuqtayi nazaridan esa, ekspluatatsiyani aniqlash hamda gadget zanjirlarining manzilini tezda topish muhim vazifadir: bunday topilgan jihatlar dinamik tahlil davomida ekspluatatsiyani aylanib o'tish yoki yama (patch) qo'llash imkonini beradi. Aslida mavjud tadqiqotlarning ko'pchiligi koddan qayta foydalanish hujumlarini umumiy jihatdan yoki TADA-usullarini deteksiya qilishga e'tibor qaratgan; ammo ularning aksariyatida hujum manbasi (gadgets)ning aniq joyini lokalizatsiya qilish – ya'ni zanjirlarning kod ichidagi manzillarini va tuzilishini aniqlash masalasi – yetarlicha yoritilmagan. Bu esa siz

taklif qilayotgan integratsiyalangan yondashuvlar – ProxyCFI bilan statik/dinamik validatsiya, ROPNN bilan zanjirlarni neyron tarmoq orqali aniqlash va Activation-Alarm orqali modelning ichki holatini monitoring qilish – uchun katta ahamiyatga ega. Bu turdagi qatorlashtirilgan, qatlamli himoyalar revers-



2- rasm. Amaliyotdagi zararli dasturni aniqlash tizimi.



3- rasm. Ish jarayoni

injinirning tahlilini tezlashtirish va hujumchiling ishini qiyinlashtirishga qarshi samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin[5].

2-rasmda ko'rsatilganidek, ushbu tadqiqotning maqsadi umumiy holda TADA (evasive malware) turidagi zararli dasturlarni detekt qilish emas; bundan ko'ra biz revers-injenerlariga tahlil va dinamik debug jarayonida (ya'ni qo'llab-bo'lingan dinamik tahlil) TADAning kod ichidagi aniq joyini tezroq va kam mehnat sarflanib topishda yordam berishga qaratilgan. Aniqroq qilib aytganda, mazkur ish revers-injenerlik jarayonida qo'llaniladigan breakpoint joylarini avtomatik ravishda belgilovchi usulni taklif qiladi. Biroq, TADA implementatsiyasining aniq joyini topish biroz murakkab: birinchidan, u turli xil texnikalarni o'z ichiga oladi – apparat tekshiruvlari (CPU yadrolari, xotira hajmi, PCIe qurilmalari, quvvat imkoniyatlari, ventilyatorlar va h.k.), ishlayotgan jarayonlarni tekshirish, fayl tizimlarini ko'rikdan o'tkazish, foydalanuvchi traslari va hokazo. Ikkinchidan, zararli dasturlar turli texnikalarnigina emas, balki ularni turli implementatsiyalar bilan ham qo'llashi mumkin; masalan, CPU yadro tekshiruvi bir nechta variantini (CPUID, WMI so'rovlari, turli APIlar va h.k.) o'z ichiga olishi mumkin. TADA implementatsiyasining bunday xilma-xilligi deteksiyaning false negative chiqishiga juda ehtiyotkor qiladi[6].

Ish jarayoni ikki asosiy qismdan iborat: bazaviy blok (BB) xususiyatlarini chiqarish va LLMga so'rov yuborish. Asosiy qadamlar 3-rasmda ko'rsatilgan. Zararli namunadan boshlab, birinchi navbatda nazorat oqimi grafi (CFG) tuziladi va idjro fayldan barcha bazaviy bloklar (BB) olinadi. Statik tahlil uchun CFG foydalanilishi mumkin. Bular – mashinalik darajadagi, ko'rsatmalardan tashkil topgan BBlar bo'lib, ulardan uch turdagi xususiyatlar olinadi: assembler (assembly) xususiyatlari, API chaqiriqlari xususiyatlari va matn (string) xususiyatlari. Xususiyatlar olingach, ular promptni tayyorlashda


(prompt engineering) ishlatiladi va so'ngra LLMga yuboriladi; LLMdan har bir bazaviy blokning TADA implementatsiyasiga kirishi yoki dinamik tahlil jarayonida breakpoint o'rnatish uchun muvofiqligi haqida javob so'raldi.

LLMdan foydalanishning asosiy sabablaridan biri shundaki, matn (string) bazaviy blokning ROP/JOP bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi ko'plab izlar (clues) ni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, agar bir bazaviy blok VirtualBox yoki boshqa virtual muhitga oid matnga murojaat qilsa, bu blokning sandboksni tekshirish yoki muhitni identifikatsiya qilish bilan bog'liq bo'lishi va shu orqali ROP/JOP hujumini kechiktirishga yordam berishi mumkin. Shu sababli biz string xususiyatini (string feature) kiritamiz – masalan, 4-rasmda ko'rsatilganidek.

LLMdan foydalanishning asosiy sabablaridan biri shundaki, matn (string) bazaviy blokning ROP/JOP bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi ko'plab izlar (clues) ni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, agar bir bazaviy blok VirtualBox yoki boshqa virtual muhitga oid matnga murojaat qilsa, bu blokning sandboksni tekshirish yoki muhitni identifikatsiya qilish bilan bog'liq bo'lishi va shu orqali ROP/JOP hujumini kechiktirishga yordam berishi mumkin. Shu sababli biz string xususiyatini (string feature) kiritiladi.

Biroq ROP/JOP kontekstida zararli yoki manipulyativ kodni tahlil qilishda statik ravishda matnlarni chiqarish qiyin bo'lishi mumkin, chunki ko'p algoritmlar matnlarni yashirish (obfuscatsiya) ga yoki stekda tuzishga harakat qiladi. Umuman olganda, matnlarni obfuscatsiyalashning asosiy usullari: kodlash (encoding) va matnni stekda tuzish (stack strings). Shu nuqtayi nazardan biz 4 ta holatni hisobga olish zarur: 1) matn ochiq (obfuscatsiya qilinmagan); 2) matn kodlangan; 3) matn stekda tuzilgan; 4) matn kodlangan va stekda tuzilgan.

4-rasm matnni dekodlash (deobfuscation) jarayonining umumiy mantig'ini ko'rsatadi. Avvalo ma'lumot havolasi (data reference) oddiy matnmi



yoki yo'qligini tekshiradi: ya'ni matn oddiy holda saqlanganmi. Agar shunday bo'lsa va ma'lumot havolasi matn bo'lishi ehtimoli yuzaga kelsa, joyida funksiyani emulatsiya qilish (emulation) amalga oshiriladi. Emulyatsiyani bajarish bo'yicha ikki asosiy mezon qo'llanadi: 1) sikl (loop), ayniqsa yagona bazaviy blokdan iborat sikl mavjudmi; va 2) ma'lumot bo'limlaridan (data sections) stekka ma'lumotni uzb-ketma-ket ko'chirayotgan mov ko'rsatmalari (5 tadan ortiq) bor-yo'qligini tekshirish. Bu mezonlarning intuitsiyasi shundaki: kodlangan matnlarni dekodlash odatda sikllarni talab qiladi; stekda yoki stekda kodlangan matnlar uchun esa stekni tuzish maqsadida uzluksiz mov operatsiyalari bo'lishi zarur[7]. Agar ushbu mezonlardan biri qondirilsa, emulyatsiya o'tkaziladi va matnlar qidiriladi.

Matn topilgandan so'ng u avval string feature sifatida ishlatiladi (ilgarigi tarzida) va keyinchalik LLMga yuboriladigan promptni (prompt) tuzishda va ROP/JOP bilan bog'liq BB larni aniqlashda foydalaniladi.

Aslida dastur kodini qayta ishlatishga asoslangan hujumlarni (Code-Reuse Attacks, ROP/JOP) tahlil qilish jarayoni ham yo'naltirilgan atsiklik graf (DAG) sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, chunki har bir bazaviy blok va uning o'tishlari graf tuzilishiga ega. Shu nuqtayi nazardan, bizning tadqiqotda oddiy fidforvard neyron tarmoq bilan cheklanib qolmasdan, yanada murakkab reprezentatsiya o'rganish arxitekturalari qo'llanilishi nazarda tutildi. Xususan, Graf Konvolyutsiyali Tarmoqlar (GCN) va Rekurrent Neyron Tarmoqlar (RNN) kabi modellar vositasida ROP/JOP hujumlaridagi gadget zanjirlarini va ularning aloqalarini o'rganish imkoniyatlari tahlil qilindi.

GCN tarmoqlari graf shaklida ifodalangan bazaviy bloklar orasidagi bog'lanishlardan semantik xususiyatlarni o'rganishi mumkin, bu esa potensial gadget zanjirlarini aniqlashda samarali hisoblanadi. RNN turidagi neyron tarmoq arxitekturalari vaqtga bog'liq ketma-ket ma'lumotlar orasidagi munosabatlarni modellashtirish qobiliyatiga ega. Shu tufayli, ular zanjirli ko'rsatmalarning bajarilish jarayonida ROP va JOP hujumlariga xos dinamik o'zgarishlarni tahlil qilish va aniqlashda yuqori samaradorlik ko'rsatadi.

Shu tariqa, koddan qayta foydalanish hujumlarini intellektual tahlil qilish jarayonida GCN va RNN kabi zamonaviy arxitekturalardan foydalanish himoya tizimlari samaradorligini oshirishi va kiberxavfsizlikni kuchaytirishda muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Graf konvolyutsion tarmoqlar (Graph Convolutional Networks – GCN) an'anaviy 2D tor shaklli ma'lumotlarda (masalan, tasvirlar) qo'llaniladigan konvolyutsiya operatsiyasini noan'anaviy, graf tarzida tuzilgan obyektlarga umumlashtiradi. Graf uchlik orqali ifodalanishi mumkin, bu yerda:

V – grafdagi tugunlar (bizda tugun sifatida apparat sxemasidagi element yoki xavf tahlil qilinuvchi kodning fragmenti xizmat qiladi),

$\mathcal{E}$ – grafdagi qirralar (tugunlar orasidagi bog'lanishlar, masalan, kod bloklari yoki gadgetlar zanjirlari),

$\mathcal{A}$ – qo'shnichilik matritsasi (adjacency matrix), ya'ni tugunlar o'rtasidagi bog'lanishlarning formal ifodasi

Agar $|V| = N$ hisoblansa, unda qo'shnichilik matritsasi $\mathcal{A} \in \mathbb{Q}^{N \times N}$ ko'rinishida $\mathbb{Q} \in \{0,1\}$. Har bir tugun o'z xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu xususiyatlar matritsasi $X \in \mathbb{R}^{N \times k}$ ko'rinishida GCN ga beriladi va u qo'shnichilik matritsasiga qo'shimcha hisoblanadi. Har bir $x_i \in \mathbb{R}^{1 \times k}$ qator tugunning xususiyat vektorini anglatadi.

Soddalashtirish uchun graf va qo'shnichilik matritsasi yo'nalishsiz (undirected) deb hisoblanadi. Bu yondashuv koddan qayta foydalanish hujumlari kontekstida muhim, chunki u gadgetlar orasidagi bog'lanishlarni (masalan, ROP zanjiridagi qaytalar va sakrashlar) formal ravishda tahlil qilishga imkoniyat beradi.

GCN (Graph Convolutional Networks) ning asosiy maqsadi – grafdagi har bir tugun uchun xususiyat (feature) ifodasini o'rganishdir. Ushbu xususiyat ifodalari keyinchalik umumiy graf ifodasiga birlashtiriladi va keyingi klassifikatsiya mexanizmiga uzatiladi. Klassifikatorning vazifasi – kiritilgan grafda zararli trigger yoki koddan qayta foydalanishga oid ROP/JOP zanjiri mavjud yoki yo'qligini aniqlash. Bizning holatimizda klassifikatsiya qatlami GCN payplaynining kengaytmasi sifatida xizmat qiladi va

u oddiy chiziqli klassifikatordan iborat.

Boshqa chuqur o'rganish modellari (masalan, konvolyutsion neyron tarmoqlar va fidforvard tarmoqlar)ga o'xshab, GCN har bir tugunning xususiyat vektorlari x_i uchun yangi ifodani o'rganadi. Kirish grafi $\mathcal{G}$ da har bir tugun uchun graf konvolyutsion qatlam ma'lumotlarni qabul qiladi va yangilangan tugun xususiyat matritsasini chiqaradi (o'lchamlari H bilan bir xil). l -chi konvolyutsion qatlam uchun kirish xususiyat matritsasi quyidagicha belgilanadi: $H^{l-1} \in \mathbb{R}^{N \times h}$. Bu yerda h – yashirin qatlamning o'lchami. H^{l-1} yangilanib, chiqish ifodasi, H^l hosil qilinadi.

$$H^l = X \quad (1)$$

(1) ko'rsatadiki, muayyan kirish grafi uchun GCN'dagi barcha tugunlarning ifodasi (ya'ni birinchi GCN qatlamiga kirish) atribut matritsasi X orqali boshlang'ich qiymatga ega bo'ladi.

Tugun xususiyatlarini tarqatish (Node Feature Propagation): GCN'dagi har bir tugun ga u bilan bog'langan ifodalash vektori $h_i \in \mathbb{R}^{1 \times h}$ mos keladi. Tarmoq tugunlar ifodasini o'z qo'shnilariga uzatish (feature propagation) orqali o'rgatiladi, bu esa tarmoq tuzilishiga ko'ra aniqlanadigan yondoshlik matritsasi $\mathcal{A}$ bilan boshqariladi.

Har bir tugun o'z qo'shnilaridan xususiyat ifodasini qabul qiladi va o'z ifodasini yangilaydi. Yangilash jarayoni qo'shni tugunlardan kelgan xususiyat vektorlarini yig'ish va birlashtirish (aggregation) orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon muayyan f funksiyasi bilan boshqariladi.

$$h_i^l = \frac{1}{d_{i+1}} h_i^{l-1} + \sum_{j \in N(v_i)} \frac{a_{ij}}{\sqrt{(d_i+1)(d_j+1)}} h_j^{l-1} \quad (2)$$

(2) – bu $\mathcal{G}$ grafigidagi tugun uchun xususiyatlarni yig'ish (feature aggregation) funksiyasi $\mathcal{V}_i$ ning sodda shaklidir. Bu holda yig'ish jarayoni tugunining oldingi qatlamdan olingan yashirin holati hamda uning qo'shnilari $N(v_i)$ ning yashirin holatlarining vaznli yig'indisi ko'rinishida amalga oshiriladi.

Agar $D \in \mathbb{R}^{N \times N}$ – $\mathcal{G}$ grafining darajalar matritsasini anglatrsa, u holda $\tilde{D} = D + I$ sifatida o'z-o'zini bog'lashlarni (self-loops) qo'shilgan darajalar matritsasi qilib aniqlaymiz (bu yerda I – D bilan bir xil o'lchamdagi aydentitet matritsa).

Shuningdek, $\tilde{\mathcal{A}} = \mathcal{A} + I$ orqali o'zgartirilgan yondoshlik matritsasini aniqlash mumkin. Endi GCNda tugun ifodalarini yangilash jarayoni matritsaviy shaklda ifodalaniishi mumkin (3).

$$\bar{H}^l = \bar{D}^{-\frac{1}{2}} \mathcal{A} \bar{D}^{-\frac{1}{2}} \quad (3)$$

(3) da ta'riflangan xususiyat tarqatish jarayoni (feature propagation) grafdagi qo'shni tugunlarni o'xshash ifodalarga ega bo'lishga undaydi va shu tariqa siqish (smoothing) ta'sirini ta'minlaydi. GCNdan foydalanish ortidagi asosiy motivatsiya shundaki, agar trigger sxemasi (yoki koddagi zararli gadgetlar zanjiri) sxemaning qolgan qismiga kam

bog'langan, lekin o'z ichida nisbatan zich bog'langan holda ulangan bo'lsa, u holda barcha trigger tugunlar bir-biriga o'xshash, lekin sxemaning qolgan qismidan farq qiluvchi ifodalarga ega bo'ladi.

Noliney xususiyatlar transformatsiyasi: Xususiyatlarni tarqatishdan so'ng, har bir GCN qatlam i da xususiyat matritsasi H^i ning chiziqli kombinatsiyasi o'rganilgan vazn matritsasi $W^i \in \mathbb{R}^{h \times h}$ orqali amalga oshiriladi. Bu chiziqli kombinatsiya keyinchalik (4) da ko'rsatilganidek noliney transformatsiyadan o'tkaziladi.

$$H^l = \text{ReLU}(\bar{H}^l W^l) \quad (4)$$

Graf klassifikatsiyasi: Xususiyatlarni tarqatish va transformatsiya qilish bosqichlari barcha GCN yashirin qatlamlari orqali amalga oshirilgandan so'ng, $H^{final} \in \mathbb{R}^{|V| \times h}$ matritsasi olinadi. Bu matritsa grafdagi $|V|$ tugunlarning ifodalarini aks ettiradi. Keyin bu ifodalar ma'lum transformatsiya funksiyasi $g(H^{final})$ yordamida grafning umumiy ifodasi bo'lgan $h_G \in \mathbb{R}^{1 \times h}$ vektorga aylantiriladi.

Funksiya sifatida oddiy o'rta qiymat bo'yicha agregatsiya (mean-pooling) usulidan foydalaniladi, ammo zarurat bo'lsa, yanada murakkab usullar ham qo'llanilishi mumkin. Yakuniy holatda, ushbu yangi yashirin ifoda $h_G \in \mathbb{R}^{1 \times h}$ sifatida belgilanadi va (5) da ta'riflangan chiziqli klassifikator orqali oxirgi klassifikatsiya amalga oshiriladi.

$$\hat{Y}_G = \text{softmax}(W^G h_G) \quad (5)$$

Har bir yo'naltirilgan graf ni componentlar ketma-ketligi sifatida ko'rib chiqish va graf ifodasini o'rganish uchun ushbu yondashuvdan foydalanish ham hisobga olinadi. Rekurrent neyron tarmoqlar, jumladan gated recurrent units (GRU) va long short-term memory units (LSTM) [8], ko'plab sohalarida ketma-ket ma'lumotlarni modellashda muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Shu sababli, har bir kirish grafi uchun ketma-ket modellash va ifodalash maqsadida rekurrent arxitekturalardan foydalaniladi.

GRU tuzilmasi ikki eshikdan (gate) iborat: reset va update eshiklari. (6) da bu to'liq bayon etilgan.

$$z_t = \sigma(x_t U^z + h_{t-1} W^z)$$

$$r_t = \sigma(x_t U^r + h_{t-1} W^r)$$

$$\tilde{h}_t = \tanh(x_t U^h + (r_t * h_{t-1}) W^h)$$

$$^{(6)} h_t = z_t * \tilde{h}_t + (1 - z_t) * h_{t-1}$$

Reset gate – tarixiy ketma-ketlikdan hozirgi qadamning ifodasiga qancha ma'lumot qo'shilishini boshqaradi, Update gate esa ushbu yangilangan tarixiy ifodani joriy yashirin ifoda (hidden representation) bilan uyg'unlashtiradi.

Rekurrent neyron tarmoq modelida har bir kirish grafi ideal binar daraxt T ga aylantirildi va daraxtning ma'lum chuqurlikdagi barcha tugunlari (root tugunni ham qo'shib) har bir takrorlanish (recurrence) qadamda tarmoqqa uzatildi. Bizning holatimizda



har bir daraxt 9 darajadan iborat bo'lgan va shuning uchun rekurrent tarmoq 9 qadamga ega edi.

Yakuniy yashirin ifoda h^{final} takrorlanish oxirida (7) da ta'riflanganidek, chiziqli klassifikatorga uzatiladi.

$$\hat{Y}_T = softmax(W^T h^{final}) \quad (7)$$


Chuqur o'rganish modellaridan tashqari, triggerlarni aniqlash vazifasida Gradient Boosting Classifier (GBC), Random Forest Classifier (RF) va standart logistik regressiya klassifikatori kabi zamonaviy

klassifikatsiya modellarining samaradorligini ham baholanadi.

Natijada kodni qayta ishlatishga asoslangan kiberhujumlarni aniqlashda intellektual yondashuvlar samarali ekanligini ko'rsatdi. LLM, GCN va RNN kabi usullar yordamida zararli kodni tezroq topish va tahlil qilish imkoniyati oshadi. Bu esa revers-injenerlik jarayonini yengillashtirib, kiberxavfsizlik tizimlari samaradorligini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ensar Sekerning "Cyber Threat Intelligence Understanding Fundamentals", NATO CCD COE - 2025.
2. Yevropa ittifoqi kiberxavfsizlik agentligining "Threat Landscape Report" hisoboti. 2025.
3. Zgurovsky M.Z.; Zaychenko Y.P., The Fundamentals of Computational Intelligence: System Approach; Series: Studies in Computational Intelligence; Springer: Cham, Switzerland, 2017; Volume 652, ISBN 978-3-319-35160-5.
4. Y. Ge, "A two-stage fuzzy logic control method of traffic signal based on traffic urgency degree," Modelling and Simulation in Engineering, vol. 2014, Article ID 694185, 6 pages, 2014.
5. Kondratenko Y.P.; Kozlov O.V.; Gerasin O.S.; Zaporozhets Y.M. Synthesis and research of neuro-fuzzy observer of clamping force for mobile robot automatic control system. In Proceedings of the 2016 IEEE First International Conference on Data 23–27 August 2016; pp. 90–95.
6. Zaripov O.O., Khamrakulov U.Sh., Ashuraliyev A.A.. Methods and Software Tools for Modeling Dynamic Intelligent Systems. International scientific and technical journal Chemical Technology. Control and Management № 2, pp. 81-87, 2022
7. Pozna C.; Minculete N.; Precup R.-E.; Kóczy L.T.; Ballagi A. Signatures: Definitions, operators and applications to fuzzy modeling. Fuzzy Sets Syst. 2012, 201, 86–104.
8. Xamrakulov U.Sh., Ashuraliev A.A., "Neyron tarmoqlari axborotni qayta ishlash vositasi sifatida", UZA ILM-FAN Elektron jurnal 2022-yil iyun oyi soni №6 (32) <https://uza.uz/posts/385584>



Умиджон ТАЛИБАЕВ,
Доцент кафедры
«Обеспечения общественной безопасности»
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан, д.ф.ю.н. (PhD), доцент



Сабина ТУРСУНОВА,
Доцент кафедры
«Обеспечения общественной безопасности»
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан, д.ф.ю.н. (PhD), доцент

РОЛЬ ГИС В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ КРИТИЧЕСКИ ВАЖНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Аннотация: в статье рассматривается роль геоинформационных систем (ГИС) в обеспечении безопасности и устойчивости критически важной инфраструктуры (КИИ) в условиях роста природных, техногенных, террористических и киберугроз. Обосновывается, что значительная часть данных, используемых в сфере публичной безопасности, имеет пространственную привязку, что делает ГИС ключевым инструментом интеграции, анализа и визуализации информации. Раскрываются теоретические основы применения ГИС, включая пространственный и сетевой анализ, выявление критических узлов инфраструктуры, риск-ориентированное моделирование и прогнозирование каскадных эффектов. Особое внимание уделяется прикладным аспектам: картографированию объектов КИИ, мониторингу их состояния в режиме реального времени, межведомственному взаимодействию и повышению проактивности управления рисками. Делается вывод о том, что ГИС формируют фундамент современной стратегии защиты критической инфраструктуры и выступают базовой платформой для внедрения технологий «умной» инфраструктуры, интернета вещей и искусственного интеллекта в сфере общественной безопасности.

Ключевые слова: критически важная инфраструктура; геоинформационные системы; публичная безопасность; пространственный анализ; риск-ориентированное моделирование; мониторинг в реальном времени; каскадные сбои; межведомственное взаимодействие; цифровые карты; устойчивость инфраструктуры.

Annotatsiya: maqolada tabiiy, texnogen, terrorchilik va kibertahdidlar kuchayishi sharoitida muhim infratuzilma (MII) xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda geoinformatsion tizimlarning (GIT) o'rni tahlil qilinadi. Jamoat xavfsizligi sohasida qo'llaniladigan ma'lumotlarning aksariyat qismi fazoviy bog'liqlikka ega ekanligi asoslab berilgan, bu esa GITni axborotni birlashtirish, tahlil etish va tasvirlashning asosiy vositasiga aylantiradi. GITni qo'llashning nazariy asoslari, jumladan, fazoviy va tarmoq tahlili, infratuzilmaning muhim tugunlarini aniqlash, xavfga yo'naltirilgan modellash va kaskadli ta'sirlarni bashorat qilish masalalari yoritib berilgan. Amaliy jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan: MII obyektlarini xaritalash, ularning holatini real vaqt rejimida kuzatish, idoralararo hamkorlikni yo'lga qo'yish va xavflarni boshqarishning faolligini oshirish. GIT muhim infratuzilmani himoya qilishning zamonaviy strategiyasiga asos bo'lib, jamoat xavfsizligi sohasida "aqlli" infratuzilma, narsalar interneti va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun asosiy platformaga aylanmoqda, degan xulosaga kelingan.

Kalit so'zlar: muhim infratuzilma; geoinformatsion tizimlar; jamoat xavfsizligi; fazoviy tahlil; xavfga yo'naltirilgan modellash; real vaqt rejimidagi monitoring; kaskadli uzilishlar; idoralararo hamkorlik; raqamli xaritalar; infratuzilma barqarorligi.

Annotation: the article examines the role of geoinformation systems (GIS) in ensuring the security and stability of critical infrastructure (KII) in the context of growing natural, technological, terrorist, and cyber threats. It is substantiated that a significant portion of data used in public security has spatial connections, making GIS a key tool for integrating, analyzing, and visualizing information. The theoretical foundations of GIS application, including spatial and network analysis, identification of critical infrastructure nodes, risk-oriented modeling, and cascade effect forecasting, are explored. Particular attention is paid to the applied aspects: mapping of CII objects, real-time monitoring of their state, interagency interaction, and increasing the proactivity of risk management. It is concluded that GIS forms the foundation of a modern strategy for protecting critical infrastructure and serves as a basic platform for implementing "smart" infrastructure technologies, the Internet of Things, and artificial intelligence in the field of public safety.

Key words: critical infrastructure; geoinformation systems; public security; spatial analysis; risk-oriented modeling; real-time monitoring; cascade failures; interagency interaction; digital maps; infrastructure sustainability.

Критически важная инфраструктура (КИИ) - это совокупность объектов и систем, от бесперебойной работы которых зависят безопасность, экономика и базовое жизнеобеспечение общества. К таким объектам относятся системы энергетики, транспорта, связи, водоснабжения, здравоохранения и другие жизненно важные отрасли. В современных условиях эти объекты сталкиваются со всё более разнообразными и опасными угрозами - от стихийных бедствий и техногенных аварий до умышленных диверсий, террористических атак и кибератак. Так, число киберинцидентов на инфраструктуру растёт быстрыми темпами: количество кибератак на критически важные объекты выросло на 30% с 2022 г., и только за период с января 2023 года по январь 2024 года было зафиксировано более 420 млн атак (≈13 атак в секунду)¹. Физические угрозы также остаются высокой опасностью: теракты и диверсии способны вызвать каскадные эффекты, выводя из строя взаимосвязанные системы (энергосети, транспорт, связь и пр.) и приводя к масштабным сбоям в работе государства и бизнеса. В этих условиях перед специалистами в области безопасности стоит задача обеспечить устойчивость и защиту КИИ от всего спектра рисков, используя современные технологии.

Геоинформационные системы (ГИС) в данном контексте играют ключевую роль как инструмент интеграции и анализа пространственных данных для целей обеспечения публичной безопасности. По разным оценкам, 80–90% государственных данных имеет географическую привязку - будь то расположение объектов, зон ответственности или инцидентов². Это означает, что для понимания и защиты инфраструктуры критически важно «знать где» происходят события и находятся ресурсы. Современные ГИС позволяют собирать, хранить, отображать на цифровых картах и анализировать данные об объектах инфраструктуры и окружающей обстановке в реальном времени.

Геоинформационная система — это программно-аппаратный комплекс, предназначенный для работы с пространственными, географическими данными. ГИС объединяет возможности сбора данных включая со спутников, дронов и датчиков, их хранения в виде слоев цифровых карт, а также функции анализа и визуализации результатов на карте. С точки зрения критической инфраструктуры ГИС выступает как единая платформа, на которой могут быть отражены местоположение всех ключевых объектов электростанции, подстанции,

больницы, транспортные узлы, линии связи, водопроводные станции и прочее и связей между ними.

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования профессионального патриотизма у будущих сотрудников органов внутренних дел как фундамента их служебной деятельности. Особое внимание уделяется интеграции исторического наследия, внедрению инновационных образовательных технологий и психолого-педагогических механизмов развития идеологического иммунитета, обеспечивающих готовность молодых офицеров к защите национальных интересов в условиях глобальных угроз.

Ключевые слова: патриотическое воспитание, органы внутренних дел, профессиональный патриотизм, историческое наследие, инновационные технологии, идеологический иммунитет, правовая культура.

Annotation: this article examines the theoretical and practical aspects of forming professional patriotism among future internal affairs officers as the foundation of their service activities. Special attention is paid to the integration of historical heritage, the implementation of innovative educational technologies, and the psychological and pedagogical mechanisms for developing ideological immunity, ensuring the readiness of young officers to protect national interests in the face of global threats.

Key words: patriotic education, internal affairs bodies, professional patriotism, historical heritage, innovative technologies, ideological immunity, legal culture.

Annotatsiya: ushbu maqolada kelajakdagi ichki ishlar organlari xodimlarida professional vatanparvarlikni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi, bu esa ularning xizmat faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maxsus e'tibor tarixiy merosni integratsiyalashga, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga va yosh ofitserlarning global xavflar sharoitida milliy manfaatlarni himoya qilishga tayyorligini ta'minlaydigan ideologik immunitetni rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik mexanizmlarga qaratiladi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik tarbiyasi, ichki ishlar organlari, professional vatanparvarlik, tarixiy meros, innovatsion texnologiyalar, ideologik immunitet, huquqiy madaniyat.

В условиях современной глобализации и стремительного развития информационных технологий вопрос воспитания подрастающего поколения в духе преданности своей стране приобретает стратегическое значение. Для будущих сотрудников органов внутренних дел патриотизм является не просто личным чувством, а фундаментом их профессиональной деятельности и моральной ответственности перед обществом. Наряду с формированием боевых навыков, важнейшей задачей образовательного процесса становится развитие высокой духовности и осознание священного долга по защите интересов Родины.

Сегодня система подготовки кадров опирается на богатейшее историческое наследие великих предков, чей героизм служит неоспоримым примером для подражания. Только глубокое уважение к национальным ценностям, традициям и правопорядку позволяет сформировать личность, готовую к самоотверженному служению народу в любых условиях. Таким образом, профессиональный патриотизм выступает гарантом стабильности и безопасности государства.

Теоретическое осмысление патриотизма в деятельности сотрудников органов внутренних дел требует выхода за рамки общебытового понимания этого чувства как простой любви к месту рождения. В системе правоохранительных органов патриотизм трансформируется в фундаментальное профессионально значимое качество. Согласно научным взглядам Л. А. Мельниковой и П. Е. Сулонова, патриотизм в данной сфере не ограничивается эмоциональной привязанностью, а выступает как готовность к выполнению гражданского долга и конституционных обязанностей по защите интересов Родины, что наиболее востребовано именно в полицейской профессии [9]. Такая трактовка позволяет рассматривать профессиональный патриотизм не как абстрактную идею, а как конкретную психологическую установку, определяющую готовность сотрудника к самоотверженности ради безопасности сограждан.

Специфика правоохранительной деятельности накладывает особый отпечаток на структуру этого понятия. А. У. Кулдашев подчеркивает, что патриотизм проявляется в верности служебному долгу, сохране-

нии мира, защите независимости, процветания и национальных интересов [8]. Следовательно, профессиональный патриотизм в системе ОВД – это синтез личной убежденности и нормативно закреплённых обязанностей, где преданность государству становится профессиональным стандартом поведения.

Важным методологическим аспектом является институциональная лояльность. Как отмечают Л. А. Мельникова и П. Е. Суслонов, в профессиональной этике понятие патриотизма конкретизируется через лояльность как верность государству и ведомству [9]. Из этого следует, что для сотрудника ОВД патриотизм неотделим от уважения к государственным институтам и строгого соблюдения иерархии ценностей, где интересы службы и закона стоят выше личных амбиций.

Методология формирования этого качества в Узбекистане опирается на прочную правовую базу. Закон Республики Узбекистан от 16 сентября 2016 года № ЗРУ-407 «Об органах внутренних дел» устанавливает, что деятельность сотрудников базируется на принципах законности, соблюдения и уважения прав, свобод и законных интересов граждан [1]. Кроме того, согласно взглядам А. Ф. Шерматова, патриотизм в современных условиях является основным фактором, определяющим духовный облик сотрудника, и его формирование должно базироваться на национальных и общечеловеческих ценностях [11]. По нашему мнению, это означает, что профессиональный патриотизм служит внутренним фильтром, через который сотрудник пропускает каждое решение, соотнося его с благом народа и буквой закона.

Рассматривая педагогические аспекты, Ф. А. Болтаев указывает, что чувство патриотизма для сотрудника ОВД является основой его социальной ответственности и сопричастности к масштабным реформам, проводимым в стране [3]. Следовательно, теоретический фундамент понятия включает в себя не только знание правовых норм, но и глубокое внутреннее осознание своей роли как защитника общества.

В контексте подготовки кадров в ОВД, как отмечает Л. Ю. Канокова, патриотизм должен стать системным образующим компонентом поведения, превращая присягу из формального ритуала в жизненное кредо [7]. Именно такое глубокое понимание методологических основ позволяет избежать формализма в воспитательной работе и подготовить специалиста, для которого служение отечеству является естественной потребностью личности. Таким образом, профессиональный патриотизм в системе ОВД это целостная система ценностных ориентаций, объединяющая любовь к Родине, профессиональную компетентность и безусловную верность государственному долгу.

Формирование патриотических чувств у будущих сотрудников органов внутренних дел невозможно без опоры на глубокое историческое наследие и опыт предшествующих поколений. В системе ОВД историческая память выступает не просто набором фактов,

а живым инструментом воспитания, который связывает воедино прошлое, настоящее и будущее служения Родине. Согласно научным взглядам А. В. Буховец, преемственность в воспитании патриотизма должна реализовываться через непрерывную связь между поколениями, где опыт ветеранов и традиции службы передаются молодым сотрудникам как высшая ценность [4]. Это означает, что каждый курсант должен ощущать себя частью многовековой истории защиты своего народа, что превращает учебный процесс в акт личного приобщения к героической летописи страны.

Особое место в идеологическом воспитании занимает изучение жизни и деятельности великих предков. Как отмечает в своем исследовании А. У. Кулдашев, обращение к наследию таких мыслителей и полководцев, как Имам Бухари, Амир Тимур и Джалолиддин Мангуберди, является мощным стимулом для формирования национальной гордости [8]. Из этого следует, что подвиги народных героев служат неоспоримым моральным ориентиром для будущих защитников правопорядка. Исторические примеры мужества и самоотверженности создают у курсантов необходимый психологический иммунитет против современных идеологических угроз, заменяя пустые лозунги реальными образцами служения Отечеству.

Важность интеграции исторического компонента в педагогическую практику подчеркивается и в работах Ф. А. Болтаева, который утверждает, что формирование чувства патриотизма у курсантов военизированных учреждений должно базироваться на героических примерах борьбы за независимость [3]. Это положение позволяет сделать вывод, что история является фундаментом, на котором выстраивается профессиональная идентичность сотрудника. Следовательно, знание своих корней и уважение к подвигам предшественников превращают профессиональную деятельность из простого выполнения функциональных обязанностей в почетную миссию по сохранению государственности.

Проблема духовного и нравственного воспитания на основе традиций рассматривается также А. Ф. Шерматовым, который указывает на необходимость использования потенциала «школы наставничества» для передачи духовных ценностей молодым кадрам [11]. Преемственность поколений в системе ОВД проявляется в живом диалоге между опытными сотрудниками и молодежью, где традиции честного и бескорыстного служения становятся основой корпоративной культуры. Таким образом, историческое наследие выступает как связующее звено, обеспечивающее стабильность системы внутренних дел в условиях перемен.

В свою очередь, Б. Т. Бадалова и А. Садирбекова акцентируют внимание на том, что истинный патриотизм всегда базируется на знании истории своей Родины, без которой любовь к стране остается поверхностной [2]. Из этого вытекает, что идеологическое воспитание через историю способствует глубокому осознанию сопричастности к судьбе своего народа.

Изучение истории правоохранительных органов и знакомство с биографиями выдающихся сотрудников прошлых лет позволяют курсантам выстроить целостную картину мира, в которой законность и справедливость являются незыблемыми ценностями.

Воспитательный потенциал истории также рассматривается в работах Ш. М. Жураева, который выделяет задачи по формированию у молодежи чувства долга перед предками [5]. Это означает, что современная подготовка кадров должна опираться на концепцию «от истории к современности», где каждый этап развития государства рассматривается как урок патриотизма. Следовательно, сохранение исторической памяти в системе ОВД становится залогом формирования сотрудника новой формации, обладающего твердыми убеждениями и высокой моральной стойкостью.

Необходимо отметить, что использование исторического наследия и преемственности поколений позволяет создать устойчивую систему ценностей. Согласно взглядам А. Мирзаева, политические и моральные принципы воспитания в духе военного патриотизма наиболее эффективно реализуются именно тогда, когда они подкреплены исторической правдой и примерами реального героизма [10]. Таким образом, преемственность выступает не только как метод обучения, но и как важнейший инструмент обеспечения национальной безопасности, воспитывая поколение сотрудников, преданных идеалам независимости и законности.

Современная система подготовки кадров для органов внутренних дел требует внедрения передовых образовательных методик, способных адаптировать традиционные ценности к вызовам информационной эпохи. Важнейшим инструментом здесь выступает системный подход к организации воспитательного процесса. Согласно научным взглядам А. Мирзаева, наиболее перспективным и эффективным в современных условиях является гуманитарно-кластерный подход [10]. Использование такого кластера позволяет объединить ресурсы образовательных учреждений, правоохранительных органов и общественных организаций для создания единой воспитывающей среды. Следовательно, патриотическое воспитание перестает быть изолированным учебным элементом и превращается в интегрированную систему, где теоретические знания подкрепляются практическим взаимодействием с профессиональным сообществом.

Важной инновацией является внедрение в учебные планы специализированных дисциплин и активных форм обучения. Как отмечает в своем исследовании Ф. А. Болтаев, в Академии МВД Республики Узбекистан для формирования патриотического сознания курсантов активно используются такие предметы, как «История органов внутренних дел» и «Основы патриотизма» [3]. Целенаправленное изучение данных курсов позволяет курсантам не просто получать информацию, а формировать устойчивую внутреннюю позицию. Таким образом, выделение патриотической

подготовки в самостоятельное дидактическое направление обеспечивает академическую глубину и последовательность в формировании профессионального мировоззрения будущего сотрудника.

Практическая реализация инновационных подходов требует также внедрения регулярных воспитательных ритуалов и комплексных мероприятий. По мнению Ф. А. Болтаева, эффективной технологией является проведение еженедельного комплекса мероприятий под названием «День патриотизма» во всей системе органов внутренних дел [3]. Такие регулярные акции способствуют формированию дисциплинированного профессионального сознания и поддерживают высокий уровень эмоциональной вовлеченности личного состава. Отсюда следует, что системное повторение подобных практик превращает внешние требования государства во внутреннюю привычку и профессиональную потребность каждого курсанта.

Инновационность подходов проявляется и в создании специализированной визуально-образовательной среды. Важным элементом воспитательной инфраструктуры в территориальных подразделениях является организация «Уголков патриотизма», направленных на развитие чувства ответственности перед обществом [3]. Визуализация героических образов и достижений страны в повседневном пространстве учебного заведения создает непрерывный фон для неформального обучения. Педагогическая технология здесь заключается в воздействии на подсознание обучающегося через эстетику и символику государственной власти.

Особое внимание в инновационной педагогике ОВД уделяется внедрению глобальных концептуальных идей в образовательный стандарт. Согласно научным взглядам А. Ф. Шерматова, вся воспитательная деятельность должна строиться на базе концептуальной идеи «Служение Родине и народу — наш высший долг!» [11]. Данная идея выступает в роли идеологического ядра, вокруг которого выстраиваются все остальные педагогические технологии. Наличие такой объединяющей цели позволяет гармонизировать процесс обучения, делая его максимально практико-ориентированным и понятным для молодых сотрудников.

Кроме того, инновационные подходы включают в себя использование соревновательных и творческих методов. Как подчеркивает Ш. М. Жураев, эффективными методами являются проведение военно-спортивных состязаний, таких как «Рукопашный бой», «Летний биатлон» и конкурсы «Меткий стрелок», а также написание тематических сочинений [5]. Следовательно, вовлечение курсантов в активную соревновательную деятельность позволяет закрепить патриотические установки через физическое развитие и творческое самовыражение. Таким образом, сочетание жестких нормативных требований Закона Республики Узбекистан «Об органах внутренних дел» с гибкими педагогическими технологиями позволяет подготовить сотрудника, обладающего не только профессиональ-

ными навыками, но и инновационным мышлением, преданным своей стране.

В эпоху нарастающего информационного давления и глобальных вызовов защита сознания молодых сотрудников от деструктивных внешних влияний становится приоритетным вектором образовательной политики. Формирование устойчивого идеологического иммунитета представляет собой сложный психолого-педагогический процесс, направленный на развитие способности критически оценивать поступающую информацию и противостоять чуждым идеям. Согласно научным взглядам А. Мирзаева, в условиях глобализации военно-патриотическое воспитание приобретает глубокий политический смысл, требуя от молодежи не только физической, но и высокой психологической устойчивости к «информационным ударам» [10]. Это свидетельствует о том, что идеологический иммунитет является своего рода «щитом», позволяющим сотруднику сохранять верность присяге даже в условиях интенсивной когнитивной войны. Следовательно, педагогические усилия должны быть сосредоточены на трансформации внешних политических знаний во внутренние убеждения личности.

Важнейшим механизмом укрепления такого иммунитета выступает развитие политико-правовой культуры. Как отмечает в своих трудах А. У. Кулдашев, воспитание должно быть направлено на формирование у сотрудников чувства личной сопричастности к судьбе Родины и ответственности за её безопасность. Осознание значимости своей службы для стабильно-

сти государства является лучшей защитой от радикальных идей. Правовая грамотность, подкрепленная нормами Закона Республики Узбекистан «Об органах внутренних дел», создает четкую систему координат, в которой любые попытки дестабилизации извне получают мгновенный внутренний отпор со стороны дисциплинированного сотрудника.

Кроме того, психологическая устойчивость тесно связана с духовным стержнем личности. По мнению А. Ф. Шерматова, важнейшей задачей является защита молодого поколения от разрушительных идей через воспитание на основе национальных ценностей и менталитета [11]. Идеологический иммунитет невозможен без прочного фундамента традиций и исторической памяти. Следовательно, развитие ответственности за свои поступки и осознание себя наследником великой культуры превращают сотрудника в непоколебимого защитника правопорядка.

В завершение статьи необходимо подчеркнуть, что сочетание высокого профессионализма, глубокого исторического сознания и инновационных технологий обучения позволяет создать целостную систему подготовки кадров. Патриотизм должен стать системным компонентом поведения, определяющим моральный облик сотрудника в глазах народа [6]. Таким образом, формирование устойчивого идеологического иммунитета является залогом воспитания преданного своей стране офицера, готового эффективно выполнять задачи по обеспечению законности и национальной безопасности в условиях любых современных угроз.

Список использованных источников:

1. Закон Республики Узбекистан «Об органах внутренних дел» от 16 сентября 2016 года № ЗРУ-407 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан.
2. Бадалова, Б. Т., Садирбекова, А. Воспитание чувства патриотизма // *Scientific progress*. – 2021. – № 8. – С. 449–452.
3. Болтаев, Ф. А. Педагогические аспекты формирования чувства патриотизма у курсантов военизированных высших образовательных учреждений // *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*. – 2022. – Т. 2, № 2. – С. 180–186.
4. Буховец, А. В. Особенности реализации преемственности в воспитании патриотизма у будущих сотрудников полиции // *Мир науки, культуры, образования*. – 2019. – № 4 (77). – С. 207–209.
5. Жураев, Ш. М. Приоритетные задачи воспитания молодежи в духе военного патриотизма // *Academic research in educational sciences*. – 2020. – № 3. – С. 1081–1086.
6. Канокова, Л. Ю. Особенности формирования чувства патриотизма у курсантов и слушателей учебных заведений МВД России // *Проблемы современного педагогического образования*. – 2021. – № 71-2. – С. 156–158.
7. Канокова, Л. Ю. Патриотизм как основа воспитания сотрудников полиции в России // *Педагогический вестник*. – 2021. – № 20. – С. 17–18.
8. Кулдашев, А. У. Пути воспитания сотрудников органов внутренних дел в духе патриотизма // *Central Asian Journal of Education and Innovation*. – 2024. – Т. 3, № 12. – С. 129–133.
9. Мельникова, Л. А., Сулонов, П. Е. Профессиональный патриотизм как основа патриотического воспитания курсантов образовательных учреждений МВД России // *Перспективы науки и образования*. – 2013. – № 5. – С. 101–103.
10. Мирзаев, А. Основные политические принципы воспитания молодежи в духе военного патриотизма // *Общество и инновации*. – 2021. – № 2/S. – С. 113–117.
11. Шерматов, А. Ф. Некоторые вопросы военно-патриотического и духовно-нравственного воспитания молодых сотрудников // *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*. – 2022. – Т. 2, № 1. – С. 79–88.

Nargiza MIRJALOLOVA,
*Ichki ishlar vazirligi ma'naviy-ma'rifiy ishlar
 va kadrlar bilan ta'minlash departamenti,
 xizmat boshlig'i o'rinbosari*

TIBBIY MADANIYATNING MAZMUNI, MOHIYATI VA YONDASHUVLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada tibbiy madaniyat tushunchasining tarixiy va zamonaviy tamoyillari ochib berilgan. Tibbiy madaniyat jamiyat taraqqiyoti, inson salomatligini muhofaza qilish hamda tibbiy xizmat sifati bilan uzviy bog'liq ijtimoiy-pedagogik fenomen sifatida qaraladi. Klassik nazariyalarda tibbiy madaniyatning axloqiy va deontologik jihatlar ustuvor ahamiyat kasb etgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda uning kommunikativ, aksiologik, texnologik va profilaktik komponentlari keng yoritilgan. Shuningdek, maqolada tibbiy madaniyatni shakllantirishning asosiy omillari va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bayon qilingan. Tadqiqot natijalari tibbiy madaniyatni rivojlantirish inson salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *tibbiy madaniyat, tibbiy etika, deontologiya, zamonaviy tibbiyot, sog'lom turmush tarzi, tibbiy savodxonlik, profilaktika.*

Аннотация: в статье раскрываются исторические и теоретические основы медицинской культуры. Медицинская культура рассматривается как социально-педагогическое явление, неразрывно связанное с развитием общества, защитой здоровья человека и качеством медицинских услуг. В классических теориях приоритет отдавался моральным и деонтологическим аспектам медицинской культуры, тогда как в современных подходах широко рассматриваются ее коммуникативные, аксиологические, технологические и профилактические компоненты. В статье также описаны основные факторы формирования медицинской культуры и приоритетные направления ее развития. Результаты исследования показывают, что развитие медицинской культуры имеет важное значение для поддержания здоровья человека.

Ключевые слова: *медицинская культура, медицинская этика, деонтология, современная медицина, здоровый образ жизни, медицинская грамотность, профилактика.*

Annotation: the article reveals the historical and theoretical foundations of medical culture. Medical culture is considered as a socio-pedagogical phenomenon, inextricably linked with the development of society, the protection of human health and the quality of medical services. Classical theories gave priority to the moral and deontological aspects of medical culture, while modern approaches widely consider its communicative, axiological, technological and preventive components. The article also describes the key factors in the formation of medical culture and priority areas for its development. The results of the study show that the development of medical culture is important for maintaining human health.

Key words: *medical culture, medical ethics, deontology, modern medicine, healthy lifestyle, health literacy, prevention.*

Kirish. Yangi O'zbekistonning taraqqiyoti uchun belgilagan strategiyasida ikki ustuvor masala – jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash hamda aholi sog'ligini muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki tinchlik va sog'lik har bir inson uchun bebaho ne'matdir. Shu bois, bugun aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni yuksaltirish, ularda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish asosiy vazifaga aylangan.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, sog'lom turmush kechirish va uzoq umr ko'rishning 50–55 foizi insonning hayot tarziga, 20 foizi atrof-muhitga, 20 foizi irsiyatga va 8–10 foizi tibbiyotga bog'liq ekan. Demak, uzoq va salomat yashashning asosiy sharti – tibbiy madaniyat va sog'lom turmush tarziga rioya etishdir.

Dunyoda inson salomatligini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda tibbiy madaniyat

tushunchasi muhim o'rin tutadi. Tibbiy madaniyat – bu kasallikni davolash emas, balki uning oldini olish, sog'lom hayot kechirish va jamiyatda sog'liqni qadrlashni o'z ichiga oladi.

Tibbiy madaniyatning tushunchasining nazariy asoslari turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Klassik nazariyalarda bu tushuncha ko'proq axloqiy va insonparvarlik asoslarini belgilab bergan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlar yanada kengayib, kommunikativ, texnologik va profilaktik jihatlar bilan to'ldirdi. Shu nuqtayi nazardan tibbiy madaniyat tushunchasi, uning mazmun, mohiyati va yondashuvlarini tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda "tibbiy madaniyat" atamasidan zamonaviy fan va kundalik hayotda odamlarning ijtimoiy-madaniy hayotining turli hodisalari, jarayonlarini ifodalash uchun tobora ko'proq foydalanilmoqda.

Madaniyat – bu insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasi bo'lib, jamiyatning tarixiy taraqqiyot darajasi, qadriyatlar, an'analar, san'at va turmush tarzi yig'indisidir. U insonlarning o'zaro munosabatlari, bilim saviyasi, axloqiy me'yorlari va atrof-muhitga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Tibbiy madaniyat bu – inson o'z salomatligini o'zi asrashi, salomatligiga mas'uliyatli bo'lish, turli xavfli kasalliklardan saqlanish, ham jismonan, ham ma'nan barkamol bo'lib kamol topishida zarur bo'lgan tibbiy bilimlardan xabardorlik va ularga amal qilishidir. U ilmiy, falsafiy va boshqa turdagi bilimlarni o'ziga singdirib, inson hayotida o'ziga xos tibbiy-falsafiy ongni shakllantiradi. Tibbiy madaniyatning o'ziga xos tomoni shundaki, jamiyat tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichlarida turli o'zgarishlarga uchrab boradi.

Tarixiy tibbiy nazariyalarda tibbiy madaniyat tushunchasi tibbiy etika va deontologiya bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqilgan. Bu yondashuvda shifokor shaxsi, uning axloqiy fazilatlar, bemorga nisbatan insonparvarlik munosabati asosiy o'rinni egallagan. Tibbiy madaniyat konsepsiyasida shifokorning kasbiy burchi, mas'uliyati va ma'naviy kamoloti muhim omil sifatida ko'rsatilgan.

Zamonaviy davrda tibbiy madaniyat tushunchasi yanada keng mazmun kasb etmoqda. Bugungi kunda tibbiy madaniyat nafaqat shifokorning axloqiy sifatlar, balki butun sog'liqni saqlash tizimining madaniy darajasini ham ifoda etadi. Zamonaviy tibbiy madaniyatning muhim jihatlaridan biri – profilaktik yo'nalishdir. Bunda kasalliklarni davolashdan ko'ra, ularning oldini olishga katta e'tibor qaratilgan. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, aholining tibbiy savodxonligini oshirish bu jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy yondashuvlarda patsientga yo'naltirilgan xizmat konsepsiyasi keng qo'llanilmoqda. Bu konsepsiyaga ko'ra, bemor tibbiy xizmat markazida turadi va uning xohishi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy tibbiy madaniyat inson hayoti va sog'lig'ini saqlashga qaratilgan ijtimoiy amaliyotlar, hatto inson mavjudligining so'nggi chegaralari – hayotning paydo bo'lishi va hayotdan biologik o'limga o'tish jarayonlarigacha qo'llaniladi. Tibbiy amaliyotlar inson mavjudligining vaqtinchalik chegaralarini kengaytirish va bu chegaralar doirasida inson hayotining sifatini yaxshilash maqsadida qo'llaniladi.

Tibbiy madaniyatning tarixiy va zamonaviy yondashuvlari

Tibbiy xizmat	Tarixiy an'anaviy	Zamonaviy
yo'nalish	davolash	profilaktika+farovonlik
ijrochi	shifokor	shifokor+bemor ham faol
qamrov	tor (tibbiy)	keng (ijtimoiy, psixologik, texnologik)

Ammo inson hayoti faoliyatida yaxshilik va yomonlikni, foyda va zararni o'zida mujassamlashtirgan, sog'likni tiklaydigan va shu bilan birga, u yoki bu zarar keltiradigan mahsulotlar yaratadi. "...Bu yerda faoliyatning har bir shakli metafizik qarama-qarshilik bilan to'la bo'ladi: yaratilish – halokat, bilim – jaholat, erkin faoliyat – cheklovchi me'yor, yaxshilikka intilish yomonlikka aylanadi"[3].

Tibbiy madaniyatning shakllanishi – bu insonning ma'naviy, moddiy va ijtimoiy faoliyatining murakkab tizimli rivojlanishidir. U bir-biri bilan chambarchas bog'langan axloqiy-aksiologik, gnoseologik, estetik, diniy, falsafiy-antropologik, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va texnologik kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Tibbiyot madaniyatining ma'naviy sohasi, eng avvalo, tibbiy etika va deontologiyaning axloqiy qadriyatlari va me'yorlari, tibbiyot tarixi bilan shakllanadi. Zamonaviy tibbiy madaniyatning asosiy farqlovchi xususiyatlaridan biri bu axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasidir. Bu jarayon jamiyatda inson huquqlarining kengayishi, ilmiy bilimlarning rivojlanishiga mos ravishda axloqiy qadriyatlar mazmunini, ularning inson uchun ahamiyatini qayta ko'rib chiqish erkinligi bilan farqlanadi. Hatto tibbiy madaniyatning axloqiy asosini tashkil etuvchi "hayot yaxshi", "o'lim yomon" kabi axloqiy aksiomalar ham hozirgi kunga kelib hayot sifati, evtanaziya va boshqa tushunchalarga muvofiq qayta ko'rib chiqilmoqda.

Inson aqliy faoliyatining asoslarini o'zgartirishga imkon beradigan biotibbiyot texnologiyalari tibbiy madaniyatning ijtimoiy va ma'naviy tarkibiy qismlariga ta'sir qiladi, chunki ulardan foydalanish asosiy mafkuraviy savollarga – inson hayoti nimadan iborat bo'lishiga, inson boshqalarning (yoki odamlarning katta qismining) hayotiga qanchalik aralashish huquqiga ega ekanligi, "inson faoliyatining buzilishiga yo'l qo'yilmaydimi" degan savollarga javob izlaydi.

Ilmiy bo'lmagan tibbiy bilim va amaliyotlarga, turli xil davolash shakllariga bag'rikenglik, ko'plab ma'naviy, tibbiy-psixologik va boshqa sog'lomlashtirish amaliyotlarining keng tarqalishi jamiyatning ijtimoiy-madaniy muhitida ko'plab noto'g'ri tushunchalar va qarashlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Zamonaviy jamiyatning axborot muhiti tibbiy madaniyatning taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Ijtimoiy axborotlarning juda ko'pligidan uning iste'molchisiga ma'lumotlarning qaysi qismi ortiqcha va qaysi biri muhim va zarur ekanligi noaniqligicha qolmoqda.

Tibbiy madaniyat ko'p qirrali bo'lib, uning targ'ibotchilari nafaqat tibbiyot mutaxassislari, balki jamiyatning boshqa a'zolari bo'lishi mumkinligi bilan farqlanadi. Shuning uchun salomatlikni saqlash, turli kasalliklarga tashxis qo'yish, davolash usullari va vositalari to'g'risidagi bilimlarning yetkazilishiga hissa qo'shadigan barcha shaxslarni tibbiy madaniyat subyekti deb hisoblash maqsadga muvofiq.

Shifo beruvchi (homo sanans) – kasalliklarni

davolash va bemorlarning azobini yengillashtirish, inson salomatligini tiklash va kelajakda kasalliklarning paydo bo'lishining oldini olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs. Bu tushuncha "vrach" so'zining ma'nosidan kengroqdir, chunki odamlarning sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va maxsus usul va usullardan, shu jumladan ilmiy bo'lmagan usullardan foydalanadigan deyarli har bir inson shifokor hisoblanadi. Tabib, hakim, shifokor, vrach zamonaviy tibbiyot madaniyatida ham mavjud bo'lgan "shifo beruvchi shaxs"ning tarixiy turlaridir. Ular bir-biridan ko'plab mezonlar bo'yicha farqlanadi.

Tibbiy madaniyatni yetkazuvchilariga qarab, uning shakllari kasbiy, ommaviy, kundalik, individual va boshqalarga bo'linadi.

Har bir subyekt tibbiy madaniyatning ma'lum bir turini takomillashuviga hissa qo'shadi: shifokorlar va boshqa tibbiyot xodimlari kasbiy (professional) madaniyatga, boshqa ijtimoiy guruhlar vakillari ommaviy va maishiy (kundalik) madaniyatga hissa qo'shadilar va har bir inson bir vaqtning o'zida o'zining shaxsiy tibbiy madaniyatini shakllantiradi.

Kasbiy tibbiy madaniyat

Kasbiy tibbiy madaniyat – bu tibbiyot xodimlarining professional hamjamiyati doirasida mavjud bo'lgan va inson salomatligi va hayotini saqlash va turli kasalliklarga qarshi kurashish maqsadida insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan tibbiy bilimlar, nazariy qarashlar, ijtimoiy amaliyotlar, an'analar va o'ziga xos so'zlashuv – til tizimiga ega bo'lgan insonlardan iborat tibbiy madaniyatining shakli. Ushbu madaniyat shakli tomonidan turli kasalliklarni tashhislash, davolash va oldini olishning yangi biotibbiyot texnologiyalari, usullari va vositalarini yaratishga ilmiy yondashuvlar ishlab chiqiladi. U o'z shakli bo'yicha institutsional bo'lib, tibbiyot ta'limi, sog'liqni saqlash organlari va muassasalari, tibbiy sug'urta va aholini tibbiy-ijtimoiy himoya qilish, ilmiy-tadqiqot muassasalari va boshqalarni qamrab oladi.

Professional tibbiy madaniyatning ko'p asrlar davomida shifokorlar faoliyatini belgilab bergan an'anaviy axloqiy tamoyil va me'yorlar so'nggi o'n yilliklarda jamiyatda liberallashtirish, demokratlashtirish va bag'rikenglik jarayonlarining kuchayishi munosabati bilan qayta ko'rib chiqildi. Bemorlar bilan munosabatlarning yangi tamoyillari va me'yori, inson hayoti va sog'lig'ining qadr-qimmati, o'limga va davolash jarayoniga munosabati haqida yangi tushunchalar belgilanmoqda.

"Zarar qilmaslik" deb atalgan asosiy axloqiy tamoyil, hozirgi zamonda biotibbiyot texnologiyalari, o'ziga xos davolash usullari, diagnostika va reabilitatsiya usullari va vositalarining kashf etilishi bilan bog'liq holda nisbiy tushunchaga aylanib, zarardan foydaning ustunligini tanlash tamoyilida mujassamlashdi. Zamonaviy kasbiy tibbiy madaniyatda tibbiyot xodimlarining faoliyatini kompyuterlashtirilganligi va axborotlashtirilganligi uning

o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'ldi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi tibbiy madaniyat mazmuniga yangi tushunchalarni kiritdi hamda elektron tibbiy kartalar, telemeditsina va onlayn konsultatsiyalar tibbiy xizmat madaniyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida audio va video axborot kanallaridan foydalanib, bir vaqtning o'zida bemorning ahvoli bo'yicha laboratoriya diagnostika tadqiqotlarini obyektiv ma'lumotlar bilan birgalikda yaqin muloqotda bo'lmasdan tibbiy yordam ko'rsatish imkonini berdi. Bemor bilan ushbu turdagi o'zaro bog'lanishning kamchiliklari ham bor, bu ham bo'lsa "virtual muloqot"ning ta'sirida ko'rinadi.

Kasbiy tibbiy madaniyat o'z taraqqiyotining hozirgi bosqichida "dalillarga asoslangan tibbiyot" paradigmasini ham qabul qildi. Kasbiy xatolar darajasini kamaytirish va tibbiy yordam sifatini oshirishga qaratilgan tibbiy faoliyatni tashkil etishning yangi shakli sifatida paydo bo'lgan dalillarga asoslangan tibbiyot bir vaqtning o'zida "nojo'ya ta'sir" sifatida bir qator kamchiliklarga ega. Har bir bemor nafaqat shaxsiy xususiyatlar, balki jisman rivojlanish tuzilishi bo'yicha ham individualdir. Hozirda mavjud xalqaro tasdiqlangan davolash va diagnostika usullaridan shifokor har bir bemor uchun eng qulay va uning sog'lig'i uchun maksimal naf keltiradigan eng maqbul bo'lgan usullarni tanlashi kerak. Shu bilan birga, ilmiy izlanishlar qanchalik keng va ko'p qirrali bo'lmasin, zamonaviy ilmiy va tibbiy bilimlar Tibbiyot fani nazariya va amaliyotining ko'plab savollariga hozir ham javob bera olmaydi, shuning uchun odatda "tibbiyot kuchsiz" deb ataladigan vaziyatlar yuzaga keladi.

Tibbiyot xodimining shaxsiy kasbiy bilimlarini chuqur va to'laqlonligi ham dolzarb masala bo'lib, bemorning unga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamdan qoniqmasligiga sabab bo'lsa, vaziyatning "tibbiyot kuchsiz" dan "shifokorning kasbiy ojizligi" holatiga aylanishiga olib keladi.

Hozirgi zamon tibbiyot madaniyatida tibbiy xizmat ko'rsatish amaliyotining pulli asosda yo'lga qo'yilishi va xususiy tibbiyot amaliyoti tizimining rivojlanishi kasbiy tibbiy madaniyatning o'zgartirilgan shakli – bozor tibbiy madaniyatining shakllanishiga olib keldi. Uning asosiy jihati shuki, inson va u bilan bog'liq turli xil tibbiy manipulyatsiyalarni amalga oshirish "tovarga" aylanishi ro'y berdi. Shu bilan birga, iste'molchi-bemor tegishli tibbiy xizmat uchun to'laydigan ko'plab ma'naviy qadriyatlar ham tovarga aylandi. Hisob-kitob asosida ish yurituvchi har bir davolash maskanida shifokorlar tomonidan amalga oshiriladigan tibbiy xizmatlar tarkibiga e'tibor, g'amxo'rlik, mehribonlik kiritildi. Biroq, jamiyat tomonidan ma'qullangan axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etmay, sirtida ko'r-ko'rona tashqi namoyish etilishi professional axloqiy degradatsiyaga va keyinchalik barcha kasbiy faoliyatning deformatsiyasiga olib kelishi ayon bo'lib bormoqda.

Ommaviy tibbiy madaniyat

Ommaviy tibbiy madaniyat jamiyatning madaniy va tarixiy jihatdan navbatdagi rivojlanish bosqichiga ega bo'lgan xususiyatlarini aks ettiradi. Urbanizatsiya, zamonaviy texnologiyalarni kiritish va inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish o'ziga xos zamonaviy ommaviy tibbiy madaniyatni shakllantiradi. Bosma ommaviy axborot vositalari, televideniye va axborotni elektron vositalari orqali saqlash va uzatish, ya'ni axborot oqimining ta'siri zamonaviy ommaviy madaniyatni vujudga keltirdi.

Bir tomondan, bu kasbiy tibbiy madaniyatning so'nggi ilmiy izlanish va yangiliklarini keng jamoatchilikka ochiq e'lon qiladi, lekin boshqa tomondan, haqiqiy madaniy mahsulni soddalashtirilgan g'oyalar bilan almashtiradi. "Yangi axborot makonida faqat ommaviy talabga ega bo'lgan narsa saqlanib qoladi. Ushbu xususiyatga ommaviy madaniyatning standartlashtirilgan, shablonlashgan mahsulotlari kiritilib, uning iste'molchisi ...inson-massa bo'lib, o'zini hamma kabi his qiladigan va bundan nafaqat tushkunlikka tushmaydigan, balki hammadan farqlanmasligidan xursand bo'ladi..."[1].

Inson erta bolalikdan, mohiyatan tug'ilgan paytdan boshlab ommaviy tibbiy madaniyatga duchor bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa gigiyenik g'amxo'rlik qilish, dastlabki tibbiy muolajalar, oziqlantirish va hokazolar kundalik hayotda keng tarqalgan mavjud ilmiy bilimlarga va inson faoliyatining ilmiy bo'lmagan tushunchalariga muvofiq amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari, tibbiyot va barcha turdagi ta'lim muassasalari, Internet va televideniye'dagi ommaviy axborot vositalari insonni tibbiy madaniyat bilan tanishtiradi. Tibbiy madaniyatning ushbu shakli mazmunan rang-barang bo'lib, moda, reklama, targ'ibot va bir qator ijtimoiy-madaniy hodisalar ta'sirida juda dinamik ravishda o'zgarib turadi.

Jamoat ongini manipulyatsiya qilish uchun tashviqot va reklamadan foydalaniladi. Salomatlik va sog'lom turmush tarzi to'g'risida standartlashtirilgan tushunchalar singdiriladi, turli kasalliklarni ilmiy bo'lmagan davolash va oldini olishning turli yo'llari haqidagi ma'lumot tarqatiladi, hatto, ayrim tibbiy xizmatlardan foydalanishning moda tendensiyalari yaratiladi. Axborot kanali vositasida, subyekt-kommunikator (ilmiy daraja, lavozim va b.) orqali tibbiy ma'lumotlar keng jamoatchilikning ishonch darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ommaviy madaniyatda axborot jarayonlarini boshqarishga yetarlicha e'tibor bermaslik natijasida, "xalq tabobati", "sharq tabobati", "yangi ilmiy" va boshqa davolash usullariga qiziqish uyg'otgan tibbiy moda singari namoyon bo'lmoqda, bu esa pirovardida ko'plab odamlarga zarar yetkazmoqda.

Maishiy tibbiy madaniyat

Maishiy tibbiy madaniyat insonning kundalik hayoti jarayonida hayotiy tajribaga asoslangan holda shakllanadi. Tibbiy madaniyatning ushbu

shakli individual tajribadan kelib chiqib, o'zi boshidan kechirgan kasalliklari davrida sodir bo'lgan hodisa va his-tuyg'ularini, shuningdek, boshqa kasal odamlar bilan muloqot qilish va ularga g'amxo'rlik qilish amaliyotini o'z ichiga oladi. Mikrojamiyat (mikrosotsium) – bu kundalik maishiy madaniyat vujudga keladigan muhit hisoblanadi. Aynan shu yerda tibbiy madaniyat mahsuli avloddan-avlodga uzatiladi. Insonning hayotiy qadriyatlaridan biri sifatida bo'lgan sog'likka munosabat an'analar ma'lum bir mikro-jamiyatning xususiyatlariga qarab shakllanadi. O'z sog'ligiga va kasalligiga bo'lgan munosabat avloddan-avlodga avvalo oilada o'tadi. Kundalik hayoti davomida inson uy sharoitida ham, tibbiy muassasaga yotqizilganda ham bemorga munosabat, uni parvarishlash jarayoni va g'amxo'rlik me'yorlarini o'rganadi.

Ta'lim darajasi va sifati, umumiy madaniyat xususiyatlari, milliy va diniy an'analar, ijtimoiy muhitda hukmron bo'lgan axloqiy me'yorlar shaxsning individual hayotiy qadriyatlar tizimini belgilaydi. Odamlar doimo hayotiy qadriyatlar o'rtasida tanlov qiladilar, ularga erishish va saqlash faol harakatlar va moddiy xarajatlarni talab qiladi. Bir qarashda paradoksal ko'rinadigan salomatlik holati har doim ham insonning hayotiy qadriyatlari ro'yxatining birinchi o'rniga qo'yilmaydi.

Shaxsiy tibbiy madaniyat

Shaxsiy tibbiy madaniyat insonning kasbiy va maishiy madaniyati yig'indisidan vujudga keladi. U turli kasalliklarning paydo bo'lishi, davolash va oldini olish bo'yicha tibbiy bilimlari, kasallikni boshdan kechirish va davolashning subyektiv tajribasini o'z ichiga oladi. Shaxsning axloqiy qadriyatlari, uning ma'naviy negizi qanchalik yuqori bo'lsa, o'z sog'lig'i va hayotini, shuningdek, atrofida g'ayrat salomatligini saqlashga shunchalik e'tiborli bo'ladi.

Tibbiy ma'lumotlar oqimida qolgan inson o'zi uchun erkin ravishda davolash, diagnostika, profilaktika va reabilitatsiya choralarini tanlay oladi. Insonning shaxsiy tibbiy madaniyati hayoti davomida turli kasalliklarni boshdan kechirish orqali shaxsiy tajribasi ta'sirida o'zgarib boradi. Sababi hayotida hech bo'lmaganda biror marotaba kasallikdan aziyat chekmagan yoki xastalik tuyg'usini boshdan kechirmagan odam yo'q. Ajablanarlisi shundaki, inson faqat kasallikni boshdan kechirish orqali sog'liq nima ekanligini anglab yetadi hamda shaxsiy tajribaga ega bo'lgandan so'nggina, u o'z salomatligini saqlash va vujudga kelishi mumkin bo'lgan kasalliklarning oldini olish uchun hayot faoliyatini o'zgartirishni boshlaydi.

Tibbiy madaniyat evolyutsiyasining istiqbollari

Tarixiy taraqqiyot an'analari ta'sirida, tibbiyotning asosiy maqsadi insonning jismoniy salomatligini saqlash edi. Uchinchi ming yillikda ko'zlangan maqsad esa, insonning tibbiy madaniyatga ega bo'lishi uchun – jismoniy, aqliy holati, ijtimoiy va ma'naviyatini qamrab olgan holda har tomonlama sog'lom bo'lmoqligiga

erishishdir.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida zamonaviy biotibbiyot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli inson tanasini nafaqat jismoniy-organik darajada, balki aqliy va ma'naviy hayot darajasida ham sifat jihatidan yaxshilash imkoniyatlari paydo bo'ldi. Jamiyatning zamonaviy ommaviy tibbiy madaniyati hozirgi kunda professional tibbiy madaniyat va individual (shaxsiy) tibbiy madaniyat yig'indisini saqlab qolgan holda, global tibbiy madaniyatning yaxlit tizimiga tobora ko'proq integratsiyalashib bormoqda.

Zamonaviy tibbiy madaniyat evolyutsiyasi jarayonida kasbiy tibbiy madaniyatning axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasi juda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shu va boshqa ko'plab axloqiy-ma'naviy masalalar mamlakatimiz tibbiy madaniyatini yanada rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab beradi. Tibbiy madaniyatning turli shakllarining o'zaro bog'liqligi hozirgi zamonda to'plangan barcha tajribani tahlil qilish, uni tanqidiy qayta ko'rib chiqish va odamlar manfaati uchun yanada samarali foydalanish imkonini beradi. Tibbiy madaniyat darajasi yuqori bo'lgan jamiyatda aholi salomatligi yaxshilanadi, tibbiy xizmat sifati oshadi va sog'lom turmush tarzi keng tarqaladi. Shuning uchun tibbiy madaniyatni shakllantirishda kompleks yondashuvni qo'llash, ta'lim tizimida ushbu masalani kuchaytirish va kadrlarni tayyorlashda madaniy kompetensiyalarga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Globallashuv sharoitida aholining tibbiy savodxonligi va tibbiyot madaniyatining rivojlanish tendensiyalari. – Ilm sarchashmalari, 2018.
2. Tibbiyot ta'limida lingvokulturologiyaning ahamiyati. – Ilmiy jurnal, 2019.
3. Saliyev U.M. (2023). Tibbiy pedagogik deontologiya masalalari. – Farg'ona, 2023.
4. Odilova B.T., Abduraimova Sh.A. (2024). O'zbekistonda nikohdan oldin tibbiy ko'rik: mavjud muammolar va yechimlar. Ilmiy jurnal, 32-36.
5. Жарова М.Н. (2022). Медицинская культура российского общества. Научно-культурологический журнал, №6, 2026, с.87-95.
6. Tibbiyot deontologiyasi. – Ilmiy-ensiklopedik material.
7. Tibbiy etika va deontologiya asoslari. – Toshkent, 2020.
8. Sog'liqni saqlashda madaniyat va kommunikatsiya. – Toshkent, 2021.
9. Zamonaviy tibbiyotda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent, 2022.
10. Tibbiy madaniyat tushunchasining shakllanishi (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Sharq tarix, siyosat va huquq jurnali, 2024.
11. Tibbiy deontologiya va inson tafakkuri integratsiyasi. – Toshkent tibbiyot universiteti repozitoriyasi, 2025.
12. Tibbiy talabalarda etik-deontologik madaniyatni shakllantirish. – Philosophy and Life International Journal, 2024.
13. Jarrohlik amaliyotida tibbiy etika va deontologiya masalalari – Yevraziya tibbiy jurnal, 2024.
14. Tibbiy madaniyat tushunchasi va uning zamonaviy tibbiyotga ta'siri – O'zbekiston ilmiy jurnali, 2024.
15. Tibbiy etika va deontologiyaning zamonaviy muammolari. – Ilmiy maqola, 2024.
16. Хлыстова Н.А. часть 1. Методологический аспект медицинской культура, 2010. – С. 272-273
17. Medical professionalism and ethics. – London, 2019.
18. World Health Organization. Patient-centered care guidelines. – Geneva, 2021.
19. Багдасарьян Н.Г. Культурология: учебник для вузов. – М.: Высшее образование, 2007. – С. 272-273

“Korrupsiyaga qarshi kurash – bu faqat davlat organlarining vazifasi emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari, ayniqsa, ta’lim tizimining ustuvor vazifasidir. Chunki aynan ta’lim orqali halollik va adolat qadriyatlari shakllanadi”.

Shavkat MIRZIYOYEV

Sardor SAKIYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar
vazirligi Malaka oshirish instituti
Ilmiy kotibi
e-mail: sakiyevsardor@gmail.com

ZAMONAVIY TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA RAHBAR FAOLIYATINING KOMPLAYNS NAZORATI: MAZMUNI, AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta’lim muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyatida komplayns nazoratining mazmun-mohiyati, uning ta’lim sifatiga ta’siri va samaradorlik mezonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, komplayns nazorat ko‘pincha tor moliyaviy tekshiruv darajasida qolmoqda, rahbarlarning komplayns kompetensiyasi yetarli emas. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan samaradorlik modeli va amaliy tavsiyalar ta’lim tizimida komplayns madaniyatini joriy etish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: komplayns nazorat, ta’lim menejmenti, rahbar faoliyati, xatarlarni boshqarish, akademik halollik, normativ-huquqiy bazaga rioya etish, samaradorlik.

Аннотация: в данной статье анализируется сущность контроля за соблюдением норм в управленческой деятельности руководителя образовательного учреждения, его влияние на качество образования и критерии эффективности. По результатам исследования, контроль за соблюдением норм часто остается на уровне узкого финансового аудита, а компетенция руководителей в этой области недостаточна. Разработанная автором модель эффективности и практические рекомендации показывают возможности внедрения культуры соблюдения норм в систему образования.

Ключевые слова: контроль за соблюдением норм, управление образованием, управленческая деятельность, управление рисками, академическая честность, соблюдение нормативно-правовой базы, эффективность.

Annotation: this article analyzes the nature of compliance monitoring in the management activities of educational institution leaders, its impact on educational quality, and performance criteria. The study finds that compliance monitoring often remains at the level of a narrow financial audit, and managers' competence in this area is insufficient. The authors effectiveness model and practical recommendations demonstrate the potential for introducing a compliance culture into the education system.

Key words: compliance monitoring, education management, management activities, risk management, academic integrity, regulatory compliance, effectiveness.

Kirish. Jahon miqyosida ta’lim tizimlarida boshqaruvning shaffofligi, javobgarlik va qonuniylik masalalari markaziy o‘rinlardan birini egallamoqda. Xususan, OECD mamlakatlarida ta’lim muassasalarining samaradorligi bevosita ichki nazorat mexanizmlarining mustahkamligi bilan bog‘liq deb baholanadi¹. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar – “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri, “2030-yilgacha bo‘lgan davrda ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”²

– rahbarlarning mas’uliyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va ochiqlikni ta’minlashni ustuvor vazifa qilib belgilagan. Aynan shu nuqtada komplayns nazorat (ingl. compliance control – qonunlar, standartlar va axloqiy me’yorlarga bo‘ysunish) tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2026-yildan boshlab korrupsiyaga qarshi kurashishni kuchaytirish maqsadida davlat organlari va tashkilotlarda ichki nazorat mexanizmlarini, jumladan,

1 OECD. (2022). Education at a Glance 2022: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing.

2 Mirziyoyev, Sh.M. (2019). “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”. Toshkent: O‘zbekiston

komplayns tizimini takomillashtirish bo'yicha yangi yondashuvlar joriy etilishi belgilandi. Xususan, 2026-yil korrupsiyaga qarshi kurashda muhim bosqich sifatida e'tirof etilib, barcha idoralarda shaffoflikni ta'minlash hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida rahbar faoliyatiga oid ichki nazorat ko'pincha moliyaviy tekshiruv yoki hujjatlarni yuzaki rasmiylashtirish darajasida qolmoqda³. Komplayns nazorat esa nafaqat moliyaviy intizom, balki pedagogik etika, kadrlar siyosati, ta'lim sifat standartlari, akademik halollik, ma'lumotlar xavfsizligi va manfaatlar to'qnashuvini ham qamrab oladi. Biroq bugungi kunda:

ta'lim rahbarlarining komplayns funksiyasini amalga oshirishdagi tayyorgarligi;

komplayns nazoratning mazmuni va tarkibiy qismlari bo'yicha yagona ilmiy qarashning yo'qligi;

ushbu nazorat samaradorligini baholash mezonlarining ishlab chiqilmaganligi kabi muammolar mavjud⁴. Xorijiy tajribada (Finlyandiya, Estoniya) komplayns tizimi alohida tarkibiy birlik sifatida faoliyat yuritisa, O'zbekiston sharoitida bu mexanizmlar pilot loyihalar doirasida sinovdan o'tkazilmoqda va ilmiy jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimida rahbar faoliyatidagi komplayns nazoratning mazmunini ochib berish, uning ahamiyatini asoslash va samaradorlik mezonlarini empirik tarzda aniqlashdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

Komplayns nazoratning nazariy asoslarini tizimlashtirish;

Amaliyotdagi holatni diagnostika qilish (so'rov, intervyu, hujjat tahlili);

Samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash va xorijiy tajriba bilan solishtirish;

Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot 2025-yil sentabr–dekabr oylarida o'tkazildi. Unda quyidagi usullar qo'llanildi:

Nazariy tahlil. Komplayns nazoratning ta'lim menejmentidagi konseptual asoslari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun⁵, shuningdek, xorijiy davlatlar (Finlyandiya, Singapur, Estoniya) ta'lim tizimlaridagi komplayns modellari tahlil qilindi.

So'rovnoma. Toshkent shahri va viloyatlardagi 15 ta umumta'lim maktabi, 5 ta akademik litsey va 3 ta oliy ta'lim muassasasi rahbarlari (n=46) hamda

tarkibiy bo'linmalar rahbarlari (n=78) ishtirokida "Ta'limda komplayns nazorat: amaliyot va muammolar" so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma 4 blokdan iborat bo'lib, komplayns tushunchasini bilish, amaldagi nazorat shakllari, komplayns risklar va samaradorlikni baholashga oid savollarni qamrab oldi.

12 ta ta'lim muassasasi direktori bilan yarim tuzilgan intervyu (semi-structured interview) o'tkazilib, ularning komplayns risklarni boshqarish bo'yicha tajribalari, duch kelgan to'siqlar va yechimlar o'rganildi.

Hujjatlarni tahlil qilish: ta'lim muassasalarining ichki nazorat bo'yicha hisobotlari (2022–2025), komplayns buzilish holatlari, shuningdek, xorijiy tajriba namunalari⁶ tahlil etildi.

Statistik tahlil: so'rovnoma natijalari SPSS dasturida qayta ishlanib, tavsifiy statistika (foizlar, o'rtacha qiymatlar) va komplayns nazorat bilan ta'lim sifati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun Pearson korrelyatsiyasi qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari. So'rovnoma natijalariga ko'ra:

Respondentlarning 68 foizi (n=84) ta'lim muassasasida "komplayns nazorat" tushunchasi rasmiy hujjatlarda aks etmaganligini qayd etdi.

72 foiz rahbar (n=33) komplayns nazoratni faqat "moliyaviy tekshiruv" bilan bog'liq deb tushunadi.

Atigi 18 foiz rahbar (n=8) o'z faoliyatida akademik halollik, kadrlar bo'yicha manfaatlar to'qnashuvi va axborot xavfsizligi kabi komplayns tarkibiy qismlarini alohida nazorat qilishini ta'kidladi.

Rahbarlarning 56 foizi (n=26) normativ-huquqiy bazadagi yangi o'zgarishlarni monitoring qilish uchun alohida vaqt ajratmasligini ma'lum qildi.

"Komplayns risklarni qanday baholaysiz?" degan savolga respondentlarning 81 foizi (n=37) "intuitiv tarzda" yoki "tekshiruv kelganda" javobini berdi.

Faqat 14 foiz rahbar (n=6) komplayns risklarni baholashning rasmiy metodikasidan foydalanishini ko'rsatdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, komplayns nazorat elementlari tizimli joriy etilgan 5 ta muassasada (3 ta maktab, 2 ta litsey) so'nggi ikki yil mobaynida quyidagi o'zgarishlar qayd etildi:

Moliyaviy buzilishlar soni 3,5 baravarga kamaygan (2022-yilda 14 holat, 2024-yilda 4 holat);

Xodimlar o'rtasidagi nizolar 40 foizga qisqargan (2022-yilda 25 nizo, 2024-yilda 15 nizo);

O'quvchilar va o'qituvchilar tomonidan "ma'muriyat faoliyatining ochiqqligi" reytingi 2,1 baravarga oshgan (5 ballik tizimda 2,4 ball dan 5,0 ballga yaqin);

Sud va prokuratura organlariga yo'llangan shikoyatlar soni 0 ga tushgan.

Finlyandiya ta'lim tizimida har bir maktabda

3 Sultonov, B. (2023). Ta'lim menejmentida komplayns yondashuv. Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 4, 45–52.

4 IIEP-UNESCO. (2021). Ethics and Corruption in Education: Results from the Expert Survey. – Paris: IIEP.

5 O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. (2017). Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2017-y., 03/17/419/0024-son.

6 Saitov, A. (2023). Raqamli ta'limda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari. Huquqiy tadqiqotlar markazi nashri, 4, 45–53.



“vastuullisuusvalvonta” (mas’uliyat nazorati) bo’yicha alohida kompayns ofitser funksiyasi mavjud. Estoniyada esa rahbarning har yillik faoliyatini baholashda kompayns indikatorlari (moliyaviy intizom, kadrlar siyosati, akademik halollik) majburiy hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida bu mexanizmlar faqat “A’lo” maktablari va “Prezident maktablari” kabi pilot loyihalar doirasida sinovdan o‘tkazilmoqda⁷.

Kompayns nazoratning mavjudligi (mustaqil o‘zgaruvchi) va ta’lim sifati ko‘rsatkichlari (o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, o‘qituvchilar qoniqishi, tashqi shikoyatlar soni) o‘rtasida o‘rtacha musbat korrelyatsiya aniqlandi ($r=0,64$; $p<0,01$). Bu shuni ko‘rsatadiki, kompayns tizimi qanchalik rivojlangan bo‘lsa, ta’lim sifatining subyektiv va obyektiv ko‘rsatkichlari shunchalik yuqori bo‘ladi.

Tahlil va munozara. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim rahbarlari faoliyatida kompayns nazorat ko‘pincha tor ma’noda – faqat davlat moliyaviy nazorati bilan chegaralanadi. Aslida esa kompayns nazorat quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

Normativ kompayns: mehnat qonunchiligi, ta’lim to‘g‘risidagi qonunlar, sanitariya me’yorlari, yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etish.

Etik kompayns: rahbar va xodimlarning axloqiy kodeksi, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, akademik halollik.

Moliyaviy kompayns: byudjet mablag‘larini maqsadli sarflash, davlat xaridlari, grant va homiylik mablag‘larining shaffofligi.

Axborot kompaynsi: o‘quvchilar va xodimlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, ochiq ma’lumotlar portali talablariga rioya etish.

Ushbu tarkibiy qismlarning yaxlit tizim sifatida qaralmagani samaradorlikni pasaytirmoqda. Intervyu davomida rahbarlarning 10 nafari “kompayns talablarini bajarish vaqt talab qiladi, lekin ularning buzilishi keyinchalik ko‘proq vaqt va resurslarni oladi” degan fikrni bildirgan.

Kompayns nazorat ta’lim rahbarining qarorlar qabul qilish madaniyatini o‘zgartiradi. Uning asosiy ahamiyati nafaqat jarimalarni oldini olish, balki:

Ishonch muhitini shakllantirish: ota-onalar, xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlar rahbarning qarorlari qonuniy va adolatli ekanligiga ishonch hosil qiladi;

Xatarlarni boshqarish: kompayns tizimi korrupsiya, noto‘g‘ri kadr qarorlari, moliyaviy yo‘qotishlarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi;

Ta’lim sifatining barqarorligi: standartlarga rioya etish ta’lim jarayonining uzluksizligini va samaradorligini ta’minlaydi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, kompayns nazoratning samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

Rahbarning kompayns madaniyati – agar rahbar qoidalarni “cheklov” emas, balki “himoya” sifatida qabul qilsa, tizim samarali ishlaydi. Intervyu ishtirokchilaridan biri: “Qonunlar bizni himoya qiladi, agar ularni bilmasak, himoyasiz qolamiz” degan fikrni bildirgan.

Avtomatlashtirilgan monitoring – qo‘lda tekshiruvlar emas, balki raqamli platformalar (masalan, Xatarlarni

⁷ Karimova, D. (2024). Maktab direktorining huquqiy madaniyati: muammolar va yechimlar. Pedagogika ilmiy jurnali, 2(3), 112–119.

boshqarish axborot tizimi) orqali real vaqt rejimida nazorat. “A’lo” maktablarida joriy etilgan “Elektron komplayns” tizimi buzilishlarni 70 foizga kamaytirgan.

Xodimlarni o’qitish – komplayns talablari har bir xodimga tushunarli bo’lishi kerak. Tadqiqotda komplayns bo’yicha treninglar o’tkazilgan maktablarda buzilishlar 63 foizga kamaygani aniqlandi. Bu o’z-o’zidan tartib-qoidalarga soat strelkasi kabi amal qilish samaradorligini oshirishi mumkin.

Mustaqil baholash – ichki komplayns auditi va tashqi ekspertiza natijalari rahbar faoliyatini baholashda asosiy mezon bo’lishi lozim.

Ba’zi mutaxassislar komplayns nazoratni “byurokratik yuk” deb hisoblaydi. Ammo tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, tizim to’g’ri qurilgan taqdirda, aksincha, rahbarning vaqtini tejaydi, chunki qaytariladigan tekshiruvlar, nizolar va sud jarayonlari oldi olinadi. Shuningdek, xorijiy tajribalardan farqli ravishda O’zbekistonda komplayns funksiyasi ko’pincha bir xodim (masalan, buxgalter yoki yuriskonsult) zimmasiga yuklanadi. Holbuki, bu alohida tizimli yondashuvni talab qiladi. Finlyandiya va Estoniya tajribalari shuni ko’rsatadiki, komplayns funksiyasini institutsionalizatsiya qilish rahbarga strategik vazifalarga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Xulosa.Zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimida rahbar faoliyatining komplayns nazorati nafaqat qonun buzilishlarining oldini olish vositasi, balki strategik boshqaruvning ajralmas qismidir. Tadqiqot asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

Komplayns nazoratning mazmuni ta’lim

muassasalarida faqat moliyaviy tekshiruv bilan chegaralanmasdan, uni etik, huquqiy, axborot va sifat menejmenti tarkibiy qismlariga kengaytirish zarur.

Rahbarlarning komplayns kompetensiyasi hozirgi kunda yetarli darajada emas; bu borada malaka oshirish tizimini qayta ko’rib chiqish, shuningdek, ta’lim yo’nalishi talabalariga “Ta’limda komplayns” fanini kiritish lozim.

Samaradorlikni oshirishning asosiy yo’nalishlari: raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, ichki komplayns standartlarini ishlab chiqish, xodimlarning huquqiy va kasbiy savodxonligini muntazam oshirib borish va komplayns bo’yicha mas’ul shaxs (yoki bo’lim) faoliyatini yo’lga qo’yishdir.

Amaliy tavsiyalar:

Ta’lim muassasalarida Komplayns xaritasi (risk map) ishlab chiqilsin va har yili yangilanib borilsin;

Vazirlik tomonidan ta’lim muassasasi rahbarining komplayns reytingi joriy etilsin (moliyaviy intizom, akademik halollik, shikoyatlar dinamikasi, ichki audit natijalari asosida);

Barcha ta’lim tashkilotlarida “Komplayns bo’yicha mas’ul shaxs” (yirik muassasalarda alohida lavozim, kichik muassasalarda esa yuriskonsult yoki bosh buxgalter qo’shimcha funktsiya sifatida) faoliyati yo’lga qo’yilsin;

“Akademik halollik” va “Manfaatlar to’qnashuvini deklaratsiyalash” mexanizmlari majburiy holga keltirilsin;

Rahbarlar va xodimlar uchun komplayns bo’yicha majburiy o’quv moduli malaka oshirish dasturlariga kiritish faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirziyoyev, Sh.M. (2019). “2030-yilgacha bo’lgan davrda O’zbekiston Respublikasining ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent: O’zbekiston.
- 2.O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. (2020). Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
- 3.O’zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi Qonuni. (2017). Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2017-y., 03/17/419/0024-son.
- 4.Finnish National Agency for Education. (2023). Administration and Compliance in Basic Education. – Helsinki: FNAE.
- 5.IIEP-UNESCO. (2021). Ethics and Corruption in Education: Results from the Expert Survey. – Paris: IIEP.
- 6.Karimova, D. (2024). Maktab direktorining huquqiy madaniyati: muammolar va yechimlar. Pedagogika ilmiy jurnali, 2(3), 112–119.
- 7.OECD. (2022). Education at a Glance 2022: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing.
- 8.Saitov, A. (2023). Raqamli ta’limda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari. Huquqiy tadqiqotlar markazi nashri, 4, 45–53.
- 9.Sultonov, B. (2023). Ta’lim menejmentida komplayns yondashuv. Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 4, 45–52.

Miraziz RAUFOV,

Sarboon universiteti Filologiya va tillarni o'qitish
kafedrasi mudiri, f.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.

HUQUQSHUNOSLAR UCHUN CHET TILINI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada globallashtiruv davrida huquqshunoslar uchun chet tilini o'qitishning dolzarb muammolari va ularning ilmiy-amaliy yechimlari tahlil qilinadi. Maqolada yuridik tilning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, terminologik aniqlik, murakkab sintaktik tuzilish hamda arxaik leksikaning qo'llanilishi masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, turli huquqiy tizimlar o'rtasidagi tafovutlarning til o'rganishga ta'siri va ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan, jumladan, sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va xatarlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yuridik til, huquqshunoslik, chet tili o'qitish, terminologiya, huquqiy tizimlar, ingliz tili, sun'iy intellekt, metodika, integratsiyalashgan ta'lim.

Аннотация: в данной статье анализируются актуальные проблемы преподавания иностранного языка для юристов в условиях глобализации и предлагаются их научно обоснованные решения. Рассматриваются специфические особенности юридического языка, такие как терминологическая точность, сложная синтаксическая структура и использование архаичной лексики. Также освещается влияние различий между правовыми системами на процесс изучения языка, а также преимущества и риски использования современных технологий, включая искусственный интеллект, в образовательном процессе.

Ключевые слова: юридический язык, юриспруденция, преподавание иностранного языка, терминология, правовые системы, английский язык, искусственный интеллект, методика, интегрированное обучение.

Annotation: this article analyzes the current problems of teaching foreign languages to law students in the era of globalization and proposes scientific and practical solutions. The study examines the specific characteristics of legal language, including terminological precision, complex syntactic structures, and the use of archaic vocabulary. It also explores the impact of differences between legal systems on language learning, as well as the benefits and risks of using modern technologies, such as artificial intelligence, in the educational process.

Key words: legal language, jurisprudence, foreign language teaching, terminology, legal systems, English language, artificial intelligence, methodology, integrated learning.

Bugungi globallashtiruv davrida huquq sohasi milliy chegaralar bilan cheklanib qolmayapti. Xalqaro savdo, migratsiya jarayonlari, transmilliy jinoyatchilik, xalqaro arbitraj va diplomatik aloqalar huquqshunoslardan chet tillarini chuqur bilishni talab qilmoqda. Ayniqsa, ingliz tili xalqaro huquqiy muloqotning asosiy vositasiga aylangan.

Shu bilan birga, huquqshunoslar uchun chet tilini o'qitish oddiy lingvistik jarayon emas, balki murakkab interdisiplinar tizimdir. Bu jarayonda tilshunoslik, huquqshunoslik, madaniyatshunoslik va pedagogika elementlari o'zaro uyg'unlashadi.

Xorijiy olimlardan Peter Tiersma yuridik tilni "maxsus kommunikativ tizim" deb ataydi¹. Bhatia esa yuridik diskursni professional janr sifatida ko'rib chiqadi. O'zbek olimlaridan Sh. Rahmatullayev, N. Karimova, M. Yo'ldoshevlar ham yuridik til va tarjima masalalarini o'rganib, bu yo'nalishda qator muammolar mavjudligini ta'kidlaydilar².

Yuridik til – bu umumxalq tilining maxsus sohaga ixtisoslashgan ko'rinishi bo'lib, u huquqiy

munosabatlarni aniq, izchil va bir ma'noli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Yuridik tilning eng muhim xususiyati – bu aniqlik va bir ma'nolilik hisoblanadi. Huquqiy hujjatlarda har bir so'z aniq bir huquqiy ma'noni anglatishi kerak. Noaniqlik yoki ko'p ma'nolilik huquqiy nizolarga olib kelishi mumkin.

Masalan, ingliz yuridik tilidagi "consideration" termini oddiy tilda "o'ylab ko'rish" degan ma'noni bildirsa, huquq sohasida u "shartnoma tuzishda tomonlarning o'zaro majburiyati yoki qiymat almashinuvi"ni anglatadi. Agar talaba bu farqni tushunmasa, huquqiy matnni noto'g'ri talqin qiladi.

Shuningdek, "offer" – taklif (huquqiy ma'noda aniq shartlarga ega); "acceptance" – qabul qilish (yuridik majburiyatni yuzaga keltiradi). Bu terminlar oddiy so'zlarga o'xshash bo'lsa-da, ularning huquqiy yuklamasi ancha chuqurdir.

O'zbek olimlaridan Sh. Rahmatullayev ham terminologik aniqlik yuridik tilning asosiy talabi ekanligini ta'kidlab, "har bir termin yagona tushunchaga xizmat qilishi lozim" deb yozadi³. D. Mellinkoff yuridik tilni tahlil

1 Tiersma, P. M. (1999). Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, pp. 12–15, 48–52.

2 Rahmatullayev, Sh. (2010). O'zbek tilining izohli lug'ati va terminologiya masalalari. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 45–52-betlar.

3 Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati va terminologiya masalalari. – Toshkent: "Fan", 2010. 45–52-betlar.

qilib, uning eng muhim belgisi sifatida aniqlik bilan birga ortiqcha murakkablikning mavjudligini ta'kidlaydi⁴. Bu jihat yuridik tilni o'qitishda asosiy qiyinchiliklardan biri hisoblanadi.

Yuridik tilning yana bir muhim xususiyati uning murakkab sintaktik tuzilmasidir. Huquqiy matnlar ko'pincha uzun va murakkab gaplardan tashkil topadi. P. Tiersma yuridik matnlarni yuqori darajada strukturallashtirgan nutq turi sifatida tavsiflaydi va ularning sintaktik murakkabligini alohida qayd etadi⁵. Bunday gaplar talabalarda tushunish qiyinchiligini yuzaga keltiradi, chunki ular bir vaqtning o'zida grammatik va huquqiy mazmunni anglashlari kerak. M. Yo'ldoshev yuridik matnlarning sintaktik murakkabligini tahlil qilib, ularda ko'p komponentli gaplar ustunligini ko'rsatadi⁶. Bu esa yuridik tilni o'qitishda maxsus metodik yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Yuridik tilning leksik tarkibi ham o'ziga xos bo'lib, unda arxaiik va rasmiy so'zlar keng qo'llaniladi. Masalan, "hereinafter", "whereas", "thereof" kabi birliklar zamonaviy nutqda kam qo'llanadi, biroq huquqiy matnlarda faol ishlatiladi.

Yuridik tilning yana bir muhim jihati – bu lotin va fransuz tillaridan kirib kelgan terminlarning keng qo'llanilishidir. Masalan, "bona fide", "prima facie", "habeas corpus" kabi iboralar huquqiy matnlarda keng ishlatiladi. Šarčević bunday birliklar huquqiy aniqlikni ta'minlashini ta'kidlaydi⁷. Biroq bu iboralarni tushunish uchun nafaqat til, balki huquqiy bilim ham zarur. Shuningdek, yuridik til standartlashgan iboralarga boy. "Null and void", "cease and desist" kabi iboralar mustaqil so'zlar yig'indisi emas, balki yagona huquqiy ma'noni anglatadi. Tiersma bunday iboralarni yuridik tilning formulaviy xususiyati sifatida ko'rsatadi⁸. Talabalar esa ko'pincha ularni so'zma-so'z tarjima qilishga urinadi, bu esa noto'g'ri talqinga olib keladi.

Yuridik tilning rasmiyligi ham muhim xususiyat hisoblanadi. Unda hissiy ifodalar deyarli qo'llanilmaydi, gaplar qat'iy va neytral shaklda tuziladi. B. Garner yuridik yozuvning murakkab va rasmiy xarakterini ta'kidlab, uni soddalashtirish zarurligini ko'rsatadi⁹.

Huquqshunolar uchun chet tilini o'rganishda eng muhim va murakkab masalalardan biri turli huquqiy tizimlar o'rtasidagi tafovutlarni anglashdir. Til faqat aloqa vositasi emas, balki muayyan huquqiy tizimning ifoda shakli hisoblanadi. Shu sababli bir tilni o'rganish ko'pincha boshqa huquqiy tizimni ham o'zlashtirishni talab qiladi. R. David va J. Brierley huquqiy tizimlarni o'rganib, ularni tarixiy rivojlanishiga ko'ra turli huquq oilalariga ajratadi va har bir tizim o'ziga xos tushunchalar

hamda terminologiyaga ega ekanligini ta'kidlaydi¹⁰.

Eng asosiy tafovutlardan biri romano-german (civil law) va anglo-sakson (common law) huquq tizimlari o'rtasida kuzatiladi. Romano-german tizimida asosiy huquq manbai – normativ-huquqiy hujjatlar, ya'ni kodekslar hisoblanadi. Anglo-sakson tizimida esa sud amaliyoti va precedent muhim o'rin tutadi. Zweigert va Kötz bu farqni izohlar ekan, common law tizimida sud qarorlari huquqning asosiy manbalaridan biri ekanligini ko'rsatadi¹¹. Masalan, "precedent" tushunchasi ingliz huquqida markaziy o'rin tutadi. U avvalgi sud qarorlariga asoslanib keyingi ishlarni hal qilishni anglatadi. Biroq O'zbekiston huquq tizimida precedent majburiy huquq manbai hisoblanmaydi. Shu sababli talabalar bu tushunchani tushunishda qiyinchilikka duch keladi. Tiersma ta'kidlaganidek, huquqiy terminlar ko'pincha faqat o'z tizimi doirasida to'liq ma'noga ega bo'ladi¹².

Yana bir muhim tafovut – huquqiy institutlarning mos kelmasligidir. Masalan, ingliz huquqidagi "trust" instituti o'ziga xos bo'lib, u mulkni boshqarishning maxsus shaklini anglatadi. Romano-german tizimida esa bunday institut to'liq shaklda mavjud emas. Šarčević bu kabi tushunchalarni tarjima qilishda ekvivalent topish qiyinligini ta'kidlaydi va ularni ko'pincha izohli tarzda berish zarurligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, huquqiy tizimlar o'rtasidagi farqlar terminologiyada ham namoyon bo'ladi. Bir xil so'z turli tizimlarda turlicha ma'noni anglatishi mumkin. Masalan, "equity" ingliz huquqida alohida sud tizimi va adolat tamoyiliga asoslangan huquq sohasini bildiradi. Biroq bu tushuncha boshqa huquq tizimlarida aynan shu ma'noda mavjud emas. Bu esa talabalar uchun semantik chalkashliklarni yuzaga keltiradi.

Amaliyotda eng ko'p uchraydigan kamchiliklardan biri – umumiy ingliz tili darsliklaridan foydalanishdir. Masalan, talabalarga "contract", "law", "court" kabi so'zlar o'rgatiladi, lekin ular real huquqiy kontekstda qanday ishlatilishi tushuntirilmaydi. Natijada talaba "contract" so'zini "shartnoma" deb tarjima qiladi, ammo shartnoma tuzilishi, bandlari yoki yuridik mazmuni haqida tasavvurga ega bo'lmaydi.

Yana bir muhim muammo – nazariy yondashuvning ustunligidir. Darslarda ko'pincha so'z yodlash, tarjima qilish, matnni o'qish bilan cheklaniladi. Ammo talabalar real huquqiy vaziyatlarda tilni qo'llash imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Masalan, sud jarayoni, muzokara yoki shartnoma tuzish kabi amaliy mashg'ulotlar yetarli darajada tashkil etilmaydi.

Yana bir kamchilik – autentik materiallardan kam

4 Mellinkoff, D. The Language of the Law. – Boston: Little, Brown and Company, 1963. p. 21, pp. 67–68.

5 Tiersma, P. M. Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, 1999. p. 51, p. 75.

6 Yo'ldoshev, M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Fan, 2008. 87-bet.

7 Šarčević, S. New Approach to Legal Translation. – The Hague: Kluwer Law International, 1997. p. 13, p. 31.

8 Tiersma, P. M. Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, 1999. P. 51, p. 75.

9 Garner, B. A. Legal Writing in Plain English. – Chicago: University of Chicago Press, 2013. pp. 5–6.

10 David, R., Brierley, J. Major Legal Systems in the World Today. – London: Stevens & Sons, 1985. p. 20.

11 Zweigert, K., Kötz, H. An Introduction to Comparative Law. – Oxford: Oxford University Press, 1998. p. 34.

12 Tiersma, P. M. Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, 1999. p. 112.

foydalanishdir. Ko'pincha soddalashtirilgan yoki sun'iy matnlar bilan ishlanadi. Holbuki, real yuridik hujjatlar (shartnomalar, sud qarorlari, qonun matnlari) bilan ishlash talabalarni haqiqiy muhitga tayyorlaydi.

Yana bir muhim kamchilik – til va huquq integratsiyasining yetishmasligidir. Darslarda til alohida, huquq alohida o'rgatiladi. Natijada talaba tilni biladi, lekin huquqiy mazmunni tushunmaydi yoki huquqni biladi, lekin chet tilida ifodalay olmaydi. Bu esa yuridik kommunikatsiyada jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Yuridik tilni o'qitish o'qituvchidan ikki yo'nalishda bilim talab qiladi: tilshunoslik va huquqshunoslik. Amaliyotda esa bu ikki kompetensiya ko'pincha bir shaxsda to'liq shakllanmagan bo'ladi. Ko'p hollarda chet tili o'qituvchilari ingliz tilini yaxshi biladi, lekin huquqiy bilimga ega bo'lishmaydi. Natijada ular terminlarni to'g'ri tushuntira olmaydi. Masalan, "liability" so'zi odatda, "javobgarlik" deb tarjima qilinadi. Ammo civil liability, criminal liability, strict liability turlari mavjud bo'lib, ularning har biri turli huquqiy mazmunga ega. Agar o'qituvchi bu farqlarni tushuntirib bera olmasa, talaba noto'g'ri tushuncha bilan qoladi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosidagi tarjima vositalari yuridik matnlarni tez tushunishga yordam beradi. Talaba murakkab huquqiy matnni dastlab tarjima qilib, umumiy mazmunini anglab oladi. Bu ayniqsa, boshlang'ich bosqichda foydali hisoblanadi. Biroq bu yerda jiddiy muammo mavjud. Talabalar ko'pincha sun'iy intellekt tarjimasiga haddan tashqari tayanib qoladi. Masalan, "consideration" termini avtomatik tarzda "ko'rib chiqish" deb tarjima qilinishi mumkin, bu esa huquqiy ma'noni noto'g'ri talqin qilishga olib keladi. Natijada talaba terminning asl mazmunini tushunmaydi.

Shuningdek, sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanishni o'rgatish zarur. Talabalar tarjimani tekshirish, xatolarni aniqlash, kontekstni tushunish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Masalan, talaba tarjimani oladi, uni asl matn bilan solishtiradi, xatoni topadi, to'g'ri variantni ishlab chiqadi.

Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yuridik til o'zining terminologik aniqligi, murakkab sintaktik tuzilmasi, arxaik va rasmiy leksikasi hamda tarixiy shakllanganligi bilan boshqa til turlaridan tubdan farq qiladi. Bu xususiyatlar esa uni o'qitish jarayonini murakkablashtiradi. Ayniqsa, huquqiy terminlarning ko'p hollarda faqat muayyan huquqiy tizim doirasida to'liq ma'no kasb etishi talabalarda tushunish qiyinchiliklarini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, turli huquqiy tizimlar o'rtasidagi tafovutlar ham yuridik tilni o'rganishda muhim omil hisoblanadi. Huquqiy tizimlari o'rtasidagi farqlar terminologiya, huquqiy institutlar va tafakkur darajasida sezilarli bo'lib, ularni hisobga olmasdan turib chet tilidagi huquqiy matnlarni to'g'ri anglash qiyin.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun yuridik tilni o'qitishda integratsiyalashtirilgan va amaliy yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish zarur. Xususan, autentik materiallardan foydalanish, case study va moot court kabi interaktiv metodlarni keng qo'llash, o'qituvchilarning malakasini oshirish hamda til va huquq bilimlarini uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, huquqshunoslar uchun chet tilini samarali o'qitish faqat lingvistik bilim berish bilan cheklanmaydi, balki huquqiy tafakkurni shakllantirishni ham talab qiladi. Faqat shu yondashuv asosida xalqaro huquqiy maydonda erkin faoliyat yurita oladigan, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bhatia, V. K. Analyzing Genre: Language Use in Professional Settings. – London: Longman, 1993. p. 102, p. 104.
2. David, R., Brierley, J. Major Legal Systems in the World Today. – London: Stevens & Sons, 1985. p. 20.
3. Garner, B. A. Legal Writing in Plain English. – Chicago: University of Chicago Press, 2013. pp. 5–6.
4. Hutchinson, T., Waters, A. English for Specific Purposes. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. p. 19.
5. Karimova, N. Yuridik tarjima masalalari. – Toshkent: Fan, 2015. 54-bet, 58-bet.
6. Mellinkoff, D. The Language of the Law. – Boston: Little, Brown and Company, 1963. p. 21, pp. 67–68.
7. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. 112-bet.
8. Šarčević, S. New Approach to Legal Translation. – The Hague: Kluwer Law International, 1997. p. 13, p. 31, p. 237.
9. Tiersma, P. M. Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, 1999. p. 51, p. 75, p. 112.
10. Yo'ldoshev, M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Fan, 2008. 87-bet, 92-bet.
11. Zweigert, K., Kötz, H. An Introduction to Comparative Law. – Oxford: Oxford University Press, 1998. p. 34.

Ziyoda KAMALOVA,
*Sarbo'n universiteti Filologiya va tillarni
 o'qitish kafedrasida katta o'qituvchisi*

CHET TILINI O'QITISHDA KO'P MA'NOLI SO'ZLARNI O'RGATISHNING LINGVISTIK VA PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya: mazkur ilmiy maqolada chet tilini o'qitish jarayonida ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning lingvistik va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Polisemiya fenomenining til tizimidagi o'rni, uning semantik va kognitiv asoslari yoritiladi. Shuningdek, ko'p ma'noli so'zlarni o'rganishda yuzaga keladigan muammolar – kontekstni tushunmaslik, interferensiya, leksik chalkashliklar va ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy metodlar, jumladan, kontekstual, kognitiv va kommunikativ yondashuvlar asosida samarali o'qitish strategiyalari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: polisemiya, ko'p ma'noli so'zlar, leksik kompetensiya, interferensiya, semantika, kontekst, chet tilini o'qitish.

Аннотация: в статье рассматриваются лингвистические и педагогические аспекты обучения многозначным словам в процессе преподавания иностранного языка. Анализируются семантическая природа многозначности, когнитивные основы и проблемы, возникающие при их усвоении. Особое внимание уделяется таким трудностям, как интерференция, непонимание контекста и лексические ошибки. Предлагаются эффективные методические подходы на основе коммуникативной и когнитивной парадигмы.

Ключевые слова: многозначность, лексика, интерференция, семантика, иностранный язык, методика.

Annotation: this article explores the linguistic and pedagogical challenges of teaching polysemous words in foreign language learning. It examines the semantic and cognitive nature of polysemy and identifies key difficulties such as lexical interference, contextual misunderstanding, and ambiguity. The study proposes effective teaching strategies based on communicative and cognitive approaches to improve lexical competence.

Key words: polysemy, lexical competence, semantics, interference, foreign language teaching.

Zamonaviy tilshunoslik va pedagogika nuqtai nazaridan qaraganda, chet tilini o'rganishda leksik kompetensiya muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, ko'p ma'noli so'zlar (polisemiya) til o'rganishda eng murakkab leksik hodisalardan biri hisoblanadi. Polisemiya – bu bir so'zning bir-biriga yaqin yoki bog'liq bo'lgan bir nechta ma'nolarga ega bo'lishidir. Masalan, ingliz tilidagi "head" so'zi "bosh", "rahbar", "yuqori qism" kabi bir nechta ma'nolarni anglatadi.

Ko'p ma'noli so'zlarni o'rganish til o'rganuvchilar uchun muhim, chunki ular kundalik nutqda va professional kommunikatsiyada keng qo'llaniladi. Biroq, bu jarayon ko'plab muammolar bilan bog'liq bo'lib, ularni o'rganish va samarali o'qitish metodlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

Polisemiya va omonimlikni farqlash tilshunoslikdagi eng muhim masalalardan biridir. Omonimlikda so'zlarning shakli bir xil bo'lsa-da, ularning ma'nolari o'rtasida hech qanday mantiqiy aloqa yo'q (masalan, bank – daryo qirg'og'i va bank – moliya muassasasi). Polisemiya esa ma'nolar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'ladi. J. Lyons ta'kidlaganidek, ko'p ma'nolilikda so'zning markaziy (prototipik) ma'nosi va undan kelib chiqqan hosila ma'nolari mavjud [1, b. 146]. Masalan, "head" so'zining birlamchi ma'nosi tana qismi bo'lsa, "head of department" (kafedra mudiri) ma'nosi iyerarxik yuqorilik mantiqi asosida rivojlangan.

Polisemiya asosan, ikki xil lingvistik jarayon asosida

yuzaga keladi:

a) Metaforik ko'chish: bu o'xshashlik asosida ma'no ko'chishidir. Masalan, tana a'zosi bo'lgan "leg" (oyoq) so'zining "leg of the table" (stolning oyog'i) ma'nosida qo'llanilishi funksional va vizual o'xshashlik natijasidir. G. Lakoff va M. Johnson o'zlarining kognitiv nazariyasida polisemiyaning inson tafakkurining metaforik tabiatiga bog'laydilar [3, b. 112].

b) Metonimik ko'chish: bu narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik (yaqinlik) asosida ma'no ko'chishidir. Masalan, "The White House issued a statement" deganda, bino emas, balki unda ishlaydigan ma'muriyat nazarda tutiladi.

Ko'p ma'noli so'zlarning lingvistik mohiyatini tushuntirishda markaziy (asosiy) va periferik (ikkilamchi) ma'nolar iyerarxiyasi muhim ahamiyatga ega.

Tilshunoslikda bu hodisa so'z ma'nolarining ichki tizimi va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Har bir ko'p ma'noli so'z odatda, bitta asosiy, ya'ni nominativ (to'g'ridan to'g'ri) ma'noga ega bo'ladi. Ushbu markaziy ma'no real borliqdagi predmet yoki hodisani bevosita ifodalaydi va boshqa barcha ma'nolar uchun semantik asos vazifasini bajaradi.

Periferik ma'nolar esa ushbu markaziy ma'nodan turli semantik jarayonlar – metafora, metonimiya, umumlashtirish yoki toraytirish orqali hosil bo'ladi. Bunday ma'nolar ko'pincha ko'chma yoki abstrakt



xarakterga ega bo'lib, kontekstga bog'liq holda namoyon bo'ladi. J. Jalolovning ta'kidlashicha, ko'p ma'noli so'zlar o'quvchi ongida ma'lum bir "leksik tizim" yoki "ma'no tarmog'i" sifatida shakllanadi, biroq o'quvchilar ko'pincha faqat markaziy ma'noni faol ravishda qo'llaydi, periferik ma'nolar esa passiv darajada qolib ketadi [4, b. 112].

Masalan, ingliz tilidagi "open" so'zini olaylik. Uning markaziy ma'nosi "ochmoq" (masalan, eshikni ochish) hisoblanadi. Biroq ushbu so'z turli kontekstlarda yangi, periferik ma'nolarni kasb etadi: "open a bank account" (hisob raqami ochmoq), "open a discussion" (muhokamani boshlamoq), "open opportunities" (imkoniyatlar yaratmoq). Bu ma'nolar bir-biri bilan semantik jihatdan bog'liq bo'lsa-da, ularning har biri alohida kontekstual sharoitda aktualizatsiya qilinadi. Shu jihatdan, markaziy va periferik ma'nolar iyerarxiyasi til o'rganuvchilar uchun muhim didaktik ahamiyatga ega. Agar o'qitish jarayonida faqat markaziy ma'noga e'tibor qaratilsa, talabalar real nutqdagi ko'chma va kengaygan ma'nolarni tushinishda qiynaladi. Shu sababli ko'p ma'noli so'zlarni o'qitishda ularning semantik tizimini bosqichma-bosqich ochib berish zarur.

Polisemiya hodisasining yana bir muhim lingvistik xususiyati – uning kontekst bilan uzviy bog'liqligidir. Ko'p ma'noli so'zlar o'z ma'nosini faqat nutq jarayonida, ya'ni muayyan kontekst ichida to'liq namoyon qiladi. Til birliklari alohida holda emas, balki boshqa so'zlar bilan birikib, ma'lum semantik maydonni hosil qiladi.

D. Cruse ta'kidlaganidek, ko'p ma'noli so'zning qaysi ma'noda qo'llanayotganini aniqlashda uning kollokatsiyalari, ya'ni boshqa so'zlar bilan birga kelish xususiyati hal qiluvchi rol o'ynaydi [2, b. 86]. Masalan, "run" fe'li turli kontekstlarda turlicha ma'noni anglatadi: "run a company" (kompaniyani boshqarmoq), "run fast" (tez yugurmoq), "run a program" (dastur ishga tushirmoq). Bu yerda aynan kontekst so'zning qaysi ma'nosi faollashayotganini belgilaydi. Kontekstual yondashuvning yana bir muhim jihati – u semantik noaniqlikni bartaraf etadi. Agar so'z alohida o'rgatilsa,

uning ma'nosi noaniq bo'lib qoladi. Ammo gap yoki matn ichida u aniq semantik funksiyani bajaradi. Shu sababli zamonaviy metodikada so'zlarni alohida emas, balki matn va nutq kontekstida o'rgatish muhim deb hisoblanadi.

Ko'p ma'noli so'zlarni (polisemiya) chet tilini o'qitish jarayonida o'rgatish bir qator murakkab pedagogik muammolar bilan bog'liq. Ushbu muammolar tilning semantik tabiatidan kelib chiqib, talabalar tomonidan leksik birliklarni to'liq va to'g'ri o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi.

Birinchi muammo – so'zlarni alohida o'rgatishdir. Amaliyotda ko'plab darsliklar va o'qituvchilar yangi so'zlarni alohida, kontekstdan tashqarida taqdim etadi. Natijada talaba so'zning faqat bitta, odatda, markaziy ma'nosini o'zlashtiradi, biroq uning boshqa ma'nolari haqida tasavvur hosil qilmaydi. Harmer ta'kidlaganidek, leksik birliklarni samarali o'rganish uchun ularni real nutq kontekstida berish zarur [5, b. 229].

Ikkinchi muammo – talabalarning semantik umumlashtirish qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Ko'p ma'noli so'zlarning turli ma'nolari o'rtasidagi bog'liqlikni anglash uchun kognitiv fikrlash talab etiladi. Biroq talabalar ko'pincha har bir ma'noni alohida birlik sifatida qabul qiladi va ularni o'zaro bog'lay olmaydi. Bu esa leksik tizimni fragmentar tarzda o'zlashtirishga olib keladi.

Uchinchi muammo – interferensiya va tarjima asosidagi yondashuv. Talabalar ko'p ma'noli so'zlarni ona tiliga bevosita tarjima qilishga harakat qiladi. Natijada noto'g'ri moslashuvlar yuzaga keladi. Odlin interferensiyani til o'rganishda keng tarqalgan muammo sifatida ko'rsatadi [6, b. 27].

To'rtinchi muammo – so'z birikmalarini yetarli darajada o'rgatmaslik. Ko'p ma'noli so'zlar ko'pincha ma'lum bir so'zlar bilan birikib kelganda aniq ma'noni anglatadi. Agar bu birikmalar o'rgatilmasa, talaba so'zning to'g'ri ma'nosini tanlashda qiynaladi.

Beshinchi muammo – o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi bilan bog'liq. Ba'zi hollarda o'qituvchilar polisemiya fenomenining lingvistik mohiyatini yetarli



darajada tushuntirib bera olmaydi yoki uni tizimli ravishda o'rgatmaydi. Jalolov fikricha, zamonaviy o'qituvchi leksik birliklarni o'rgatishda kommunikativ va kognitiv yondashuvlarni uyg'unlashtira olishi lozim [4, b. 112].

Ko'p ma'noli so'zlarni samarali o'rgatish uchun zamonaviy metodik yondashuvlarga asoslangan strategiyalarni qo'llash zarur. Ushbu strategiyalar talabalarning leksik kompetensiyasini chuqur va tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Birinchiidan, kontekstual yondashuv muhim hisoblanadi. So'zlar alohida emas, balki gap, dialog va matn ichida o'rgatilishi kerak. Bu talabalarga so'zning turli ma'nolarini real nutq jarayonida anglash imkonini beradi. Nation ta'kidlashicha, kontekst asosida o'rganilgan so'zlar uzoq muddat xotirada mustahkam saqlanadi [7, b. 98].

Ikkinchiidan, kognitiv yondashuvdan foydalanish samarali hisoblanadi. Bu yondashuvda so'z ma'nolari o'rtasidagi bog'liqlik metafora, assotsiatsiya va semantik xaritalar orqali tushuntiriladi. Masalan, bir so'zning barcha ma'nolari "ma'no tarmog'i" shaklida ko'rsatilsa, talaba ularni yaxshiroq tushunadi.

Uchinchiidan, birikmalarni o'rgatish muhim

ahamiyatga ega. So'zning qaysi ma'noda ishlatilishi ko'pincha uning boshqa so'zlar bilan bog'lanishiga bog'liq. Shu sababli "make a decision", "run a business", "open an account" kabi birikmalarni tizimli o'rgatish zarur.

To'rtinchidan, kommunikativ mashqlar va interaktiv metodlarni qo'llash samarali natija beradi. Rolli o'yinlar, muhokamalar va dialoglar orqali talabalar ko'p ma'noli so'zlarni amaliyotda qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Bu esa ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

Beshinchidan, vizual vositalardan foydalanish tavsiya etiladi. Diagrammalar, jadval va semantik xaritalar yordamida so'z ma'nolarini grafik tarzda ko'rsatish talabaning tushunishini osonlashtiradi.

Oltinchidan, bosqichma-bosqich o'qitish tamoyiliga amal qilish lozim. Avval markaziy ma'no, so'ngra periferik ma'nolar o'rgatiladi. Bu yondashuv talabaning semantik tizimni izchil shakllantirishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ko'p ma'noli so'zlarni o'qitishda samarali natijaga erishish uchun kontekstual, kognitiv va kommunikativ yondashuvlarni integratsiya qilish zarur. To'g'ri tashkil etilgan pedagogik strategiyalar talabalar tomonidan leksik birliklarning chuqur va ongli o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lyons, J. Semantics. Vol. 1. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. 371 p. (Maqolada [1, b. 146] uchun).
2. Cruse, D. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. 310 p. (Maqolada [2, b. 86] uchun).
3. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. 242 p. (Maqolada [3, b. 112] uchun).
4. Jalolov, J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. 432-b. (Maqolada [6, b. 112] va pedagogik qismidagi [3, b. 112] uchun).
5. Harmer, J. How to Teach English. – London: Longman, 2007. 288 p. (Maqolada pedagogik qismidagi [1, b. 229] uchun).
6. Odlin, T. Language Transfer: Cross-linguistic Influence in Language Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. 210 p. (Maqolada pedagogik qismidagi [2, b. 27] uchun).
7. Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. 477 p. (Maqolada strategiya qismidagi [4, b. 98] uchun).
8. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge University Press, 2003. 496 p.
9. Palmer, F. R. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. 221 p.
10. Aitchison, J. Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon. – Oxford: Blackwell, 2003. 312 p.

Shaxloxon KAMALOVA,
*Sarbo'n universiteti Filologiya va tillarni
 o'qitish kafedrasi katta o'qituvchisi*

TALABALARNING OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning lingvodidaktik jihatlarini tahlil qilinadi. SI asosidagi vositalarning afzalliklari, ularning ta'lim jarayoniga integratsiyasi, shuningdek, yuzaga keladigan muammolar — texnologik, pedagogik va psixologik omillar yoritiladi. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish uchun samarali metodik yechimlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, og'zaki nutq, kommunikativ kompetensiya, til o'qitish, raqamli texnologiyalar.*

Аннотация: в статье рассматриваются возможности использования искусственного интеллекта в развитии устной речи студентов. Анализируются преимущества ИИ-технологий, а также проблемы их применения в образовательном процессе. Предлагаются методические решения для повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, устная речь, коммуникативная компетенция, обучение языкам.*

Annotation: this article examines the role of artificial intelligence in developing students' speaking skills. It highlights the benefits and challenges of integrating AI tools into language education and proposes effective pedagogical solutions to enhance communicative competence.

Key words: *artificial intelligence, speaking skills, communicative competence, language teaching.*

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt (SI)dan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, chet tillarini o'qitishda SI vositalari talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Og'zaki nutq — bu kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u talaffuz, leksik boylik, grammatik to'g'rilik va nutq tezligini o'z ichiga oladi.

An'anaviy darslarda barcha talabalarga yetarli darajada nutqiy amaliyot berish qiyin. Shu nuqtai nazardan, SI asosidagi platformalar (masalan, chat-botlar, nutqni aniqlash tizimlari, virtual suhbatdoshlar) til o'rganish jarayonini individuallashtirish va intensivlashtirish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari til o'rganishda interaktiv va moslashuvchan muhit yaratadi. Ular talabaning nutqini tahlil qilib, darhol fikr-mulohaza (feedback) berish imkoniyatiga ega. Masalan, nutqni aniqlash tizimlari talaffuzdagi xatolarni aniqlaydi va ularni tuzatishga yordam beradi.

Shuningdek, SI asosidagi virtual suhbat tizimlari talabalarga real kommunikativ vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi. Bu esa talabaning nutqiy ishonchini oshiradi va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlaydi.

Sun'iy intellektdan (SI) talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishda foydalanish katta imkoniyatlar yaratadi, biroq amaliyotda bu jarayon bir qator aniq muammolar bilan to'qnash keladi. Ushbu muammolarni real dars jarayonlari misolida ko'rib chiqish va ularga aniq yechimlar taklif etish metodik jihatdan muhimdir.

Birinchi muammo — texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi. Masalan, ayrim auditoriyalarda internet tezligi past bo'lgani sababli talaba nutqni aniqlash dasturida (speech recognition) gapiradi, lekin tizim

uni qayta ishlay olmaydi yoki xatolik beradi. Natijada talaba mashqni yakunlay olmaydi va qiziqishi pasayadi. Yechim: bunday holatda o'qituvchi darsni to'liq onlayn vositaga bog'lab qo'ymasligi kerak. Masalan, darsni quyidagicha tashkil etish mumkin: talabalar avval uyda SI ilovasi orqali (masalan, talaffuz mashqlari) ishlaydi, auditoriyada esa juftlikda dialog bajaradi. Bundan tashqari, offline ishlaydigan audio yozib olish ilovalari (voice recorder) orqali talaba nutqini yozib, keyin o'qituvchi bilan tahlil qilish mumkin.

Ikkinchi muammo — SI tizimlarining nutqni noto'g'ri tushunishi. Masalan, talaba "I think this law is important" deb aytadi, lekin noto'g'ri talaffuz sabab tizim "sink" deb qabul qiladi va xato deb belgilaydi. Bu esa talabaning ishonchini pasaytiradi.

Yechim: bunday vaziyatda o'qituvchi SI natijasini yakuniy haqiqat sifatida qabul qilmasligi kerak. Amaliy yechim sifatida:

talabalar bir gapni 2–3 marta takrorlab yozadi;

keyin o'qituvchi yoki guruh bilan tekshiriladi;

to'g'ri variant audio namuna bilan solishtiriladi. Masalan, "think–sink" juftligi ustida maxsus fonetik mashq o'tkaziladi.

Uchinchi muammo — pedagogik integratsiyaning sustligi. Ko'pincha o'qituvchi SI ni faqat "qo'shimcha mashq" sifatida beradi. Masalan, talaba ilovada gapiradi, lekin bu mashq dars maqsadi bilan bog'lanmaydi.

Yechim: SI aniq dars bosqichiga bog'lanishi kerak. Masalan:

Pre-task: talaba SI orqali yangi so'zlarni talaffuz qiladi (masalan, "contract, agreement, clause")

While-task: talaba juftlikda "lawyer–client" dialogini bajaradi

Post-task: SI orqali nutq yozilib, tahlil qilinadi. Bu yerda SI darsning ajralmas qismiga aylanadi.

To'rtinchi muammo – talabalarning sustlashishi. Masalan, talaba SI dan "Describe your city" savoliga tayyor javob olib, uni o'qib beradi. Bu esa real nutq ko'nikmasini rivojlantirmaydi.

Yechim: topshiriqni shunday o'zgartirish kerakki, tayyor javob ishlatib bo'lmasin. Masalan, "O'zing yashaydigan hududdagi muammoni ayt va yechim taklif qil" yoki "Bugungi dars haqida fikringni bildir". Bunday topshiriqlarda talaba shaxsiy fikr bildiradi va SI yordam bera olmaydi. Shuningdek, "no reading, only speaking" qoidasi joriy qilinadi.

Beshinchi muammo – nutqning sun'yligi. Masalan, SI bilan dialog quyidagicha bo'ladi:

— What is your name?

— My name is Ali.

Bu juda oddiy va real hayotdan uzoq.

Yechim: SI mashqlarini real vaziyat bilan boyitish kerak. Masalan:

"Siz advokatsiz, mijoz sizga murojaat qildi – muammoni tushuntiring"

"Interview scenario: siz ishga kirmoqchisiz". Shundan keyin talabalar bir-biri bilan shu vaziyatni jonli bajaradi. SI esa faqat tayyorgarlik vositasi bo'ladi.

Oltinchi muammo – psixologik to'siqlar. Masalan, ayrim talabalar mikrofon orqali gapirishdan uyaladi yoki "xato qilib qo'yaman" deb qo'rqadi.

Yechim: buni bosqichma-bosqich hal qilish kerak:

Avval individual yozib olish (talaba o'zi yozadi, hech kim eshitmaydi)

Keyin kichik guruhda gapirish

So'ng umumiy auditoriyada chiqish. Masalan, darsda "record → listen → improve → present" modeli qo'llaniladi.

Yettinchi muammo – feedbackning cheklanganligi. SI odatda, "good pronunciation" yoki "incorrect word" kabi yuzaki baho beradi.

Yechim: kengaytirilgan baholash tizimi qo'llanadi:

SI: talaffuz va grammatikani tekshiradi

O'qituvchi: mazmun va mantiqni baholaydi

Talabalar: bir-biriga fikr bildiradi. Masalan, har bir nutqdan keyin 3 savol beriladi:

Gap tushunarli bo'ldimi?

Qaysi joy yaxshi edi?

Qaysi joyni yaxshilash mumkin?

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy til o'qitish metodikasida shunchaki yordamchi vosita emas, balki talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan innovatsion resursdir. Pedagogik jarayonda SI vositalaridan foydalanish talabalarga o'z nutqini erkin va mustaqil ravishda mashq qilish, talaffuzdagi xatolarni darhol tuzatish hamda real kommunikativ vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi.

Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiyaning samaradorligi uning mavjudligi bilan emas, balki dars jarayoniga qanchalik to'g'ri integratsiya qilinganligi bilan belgilanadi. Texnik infratuzilmadagi kamchiliklar, nutqni aniqlashdagi xatolar va talabalarda yuzaga keladigan psixologik to'siqlar kabi muammolar tizimli yondashuvni talab etadi. Ushbu muammolarning yechimi sifatida taklif etilgan aralash ta'lim (blended learning) modeli, kontekstual yondashuv va o'qituvchi – talaba – texnologiya uchligining uyg'unligi til o'rgatishda yuqori natijalarga erishishning garovidir.

Sun'iy intellektning asosiy vazifasi o'qituvchining o'rnini bosish emas, balki uning metodik imkoniyatlarini kengaytirish va darsni individuallashtirishdan iborat.

Kelajakda sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'qitish tizimlarini rivojlantirish va ularni yuridik ingliz tili kabi maxsus sohalarga moslashtirish chet tili o'qitish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. To'g'ri tanlangan strategiya va aniq metodika orqali sun'iy intellekt talabalarning nafaqat til bilishi, balki o'z fikrini erkin va ravon bayon eta oladigan kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim pedagogik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Russell, S., Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th edition. – Pearson, 2021. 1166 p.
2. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. 4th edition. – London: Longman, 2007. 448 p.
3. Nation, I. S. P., Newton, J. Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. – New York: Routledge, 2009. 205 p.
4. Chapelle, C. A. Computer Applications in Second Language Acquisition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. 215 p.
5. Godwin-Jones, R. Emerging Technologies: Chatbots and Hybrid Intelligence. // Language Learning & Technology. 2019. – Vol. 23, Issue 2. pp. 16–27.
6. Richards, J. C., Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. 410 p.
7. Jalolov, J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. 432-b.
8. Levy, M., Stockwell, G. CALL Dimensions: Options and Issues in Computer Assisted Language Learning. – New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. 304 p.
9. Kukul'ska-Hulme, A. Language Learning in the Age of Artificial Intelligence. // WorldCALL: Sustainability and Computer-Assisted Language Learning. 2019. pp. 1–12.
10. Sattorov, Sh. Chet tili o'qitishda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2020. 180-b.
11. Warschauer, M., Healey, D. Computers and Language Learning: An Overview. // Language Teaching. 1998. – No. 31. pp. 57–71.

Mavluda SHUHRATOVA,
Sarbo'n universiteti Filologiya va tillarni
o'qitish kafedrasida o'qituvchisi

CHET TILINI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA O'RGATISHDA RASMLI LUG'ATLARDAN FOYDALANISH: XORIJ VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda rasmlilug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Rasmlilug'atlarning bolalarning kognitiv rivojlanishi, vizual tafakkuri va leksik kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, Buyuk Britaniya, AQSh va Yaponiya kabi davlatlar tajribasi hamda O'zbekistondagi amaliyot solishtirilib, mavjud muammolar va ularning yechimlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, rasmlilug'atlardan kontekstual va kommunikativ yondashuv asosida foydalanish boshlang'ich bosqichda til o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: *rasmlilug'at, boshlang'ich ta'lim, leksik kompetensiya, vizual metod, chet tilini o'qitish.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические и практические аспекты использования иллюстрированных словарей при обучении иностранному языку учащихся начальных классов. Обосновывается роль иллюстрированных словарей в развитии когнитивных способностей, визуального мышления и формировании лексической компетенции у детей. Также проводится сравнительный анализ зарубежного опыта (Великобритания, США, Япония) и практики в Узбекистане, выявляются существующие проблемы и предлагаются пути их решения. Результаты исследования показывают, что использование иллюстрированных словарей на основе коммуникативного и контекстуального подходов значительно повышает эффективность обучения.

Ключевые слова: *иллюстрированный словарь, начальное образование, лексическая компетенция, визуальный метод, обучение языкам.*

Annotation: this article examines the theoretical and practical aspects of using picture dictionaries in teaching foreign languages to primary school students. It highlights the role of picture dictionaries in developing children's cognitive abilities, visual thinking, and lexical competence. The study also compares international practices (the UK, the USA, and Japan) with the experience of Uzbekistan, identifying existing challenges and possible solutions. The findings indicate that the use of picture dictionaries within communicative and contextual approaches significantly improves the effectiveness of language learning at the primary level.

Key words: *picture dictionary, primary education, lexical competence, visual method, language teaching.*

Zamonaviy ta'lim tizimida chet tillarini o'qitish jarayoni tobora erta bosqichlardan boshlanmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'rgatish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik yo'nalishlardan biriga aylangan. Bu yoshdagi o'quvchilarning psixologik va kognitiv xususiyatlari ularni til o'rganishga nihoyatda moyil qiladi. Ular yangi axborotni tez qabul qiladi, taqlid qilish qobiliyati yuqori bo'ladi va vizual materiallarga kuchli qiziqish bildiradi.

Shu nuqtai nazardan, an'anaviy tarjimaga asoslangan metodlardan ko'ra, vizual va kommunikativ yondashuvlar samaraliroq hisoblanadi. Rasmlilug'atlar ana shunday samarali vositalardan biri bo'lib, ular til o'rganish jarayonida ko'rish va eshitish kanallarini bir vaqtda faollashtiradi. Bu esa o'quvchilarning leksik birliklarni chuqurroq va mustahkamroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich bosqichda til o'rganishda asosiy e'tibor so'z boyligini shakllantirishga qaratiladi. Chunki leksik baza yetarli bo'lmasa, nutqiy

kompetensiyani rivojlantirish qiyinlashadi. Nationning fikricha, tilni o'rganishda lug'at boyligi kommunikativ kompetensiyaning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi [1, b. 98]. Rasmlilug'atlar esa aynan shu leksik bazani shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, rasmlilug'atlar bolalarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Bola rasmga qarab so'z ma'nosini anglashga harakat qiladi va bu jarayonda tarjimaga kamroq murojaat qiladi. Natijada, tilni to'g'ridan to'g'ri o'zlashtirish mexanizmi shakllanadi.

Rasmlilug'atlardan foydalanish bir qator lingvistik va pedagogik nazariyalarga asoslanadi. Avvalo, bu metod kognitiv tilshunoslik va psixolingvistika tamoyillariga tayanadi. Piaget nazariyasiga ko'ra, boshlang'ich yoshdagi bolalar konkret operatsion tafakkur bosqichida bo'lib, ular abstrakt tushunchalardan ko'ra konkret tasvirlar orqali bilimni samaraliroq o'zlashtiradi [2, b. 54]. Shu sababli rasmlilug'atlar bu yoshdagi o'quvchilar uchun eng mos vosita hisoblanadi.

Ikkinchidan, rasmlilugʻatlar dual coding (ikki kodlash) nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga koʻra, maʼlumot vizual (rasm) va verbal (soʻz) shaklda bir vaqtda berilganda, u xotirada mustahkamroq saqlanadi. Masalan, bola “tree” soʻzini eshitibgina emas, balki daraxt rasmini koʻrib ham oʻrganadi. Bu esa ikki xil kod orqali xotirada mustahkam iz qoldiradi.

Uchinchidan, rasmlilugʻatlar kommunikativ yondashuvga mos keladi. Yaʼni ular faqat soʻz yodlashga emas, balki ularni nutqda qoʻllashga xizmat qiladi. Masalan, rasm asosida gap tuzish, savol-javob qilish kabi mashqlar orqali oʻquvchi soʻzni faol ishlata boshlaydi.

Rasmlilugʻatlarning lingvodidaktik ahamiyati quyidagilarda namoyon boʻladi:

tarjimasiz oʻrganish imkonini yaratadi;

soʻz va obraz oʻrtasida bevosita bogʻlanish hosil qiladi;

leksik birliklarning kontekstda oʻzlashtirilishini taʼminlaydi;

nutqiy faoliyatni faollashtiradi.

Masalan, “run” soʻzi turli rasmlar orqali (yugurayotgan bola, ishlayotgan mashina) berilganda, oʻquvchi uning bir nechta maʼnosini kontekst asosida tushuna boshlaydi.

Xorijiy mamlakatlarda boshlangʻich sinf oʻquvchilariga chet tilini oʻrgatishda rasmlilugʻatlardan foydalanish ilmiy asoslangan va tizimli yoʻlga qoʻyilgan. Bu jarayon asosan, kommunikativ yondashuv, multimodal oʻqitish va kognitiv rivojlanish nazariyalariga tayanadi.

Buyuk Britaniya tajribasida rasmlilugʻatlar boshlangʻich taʼlim dasturining ajralmas qismi hisoblanadi. Xususan, “Oxford Picture Dictionary” va “Cambridge Visual Vocabulary in Use” kabi resurslar keng qoʻllaniladi. Ushbu lugʻatlar tematik asosda tuzilgan boʻlib, har bir mavzu (masalan, “Food”, “School”, “Family”) doirasida soʻzlar rasm, talaffuz va kontekstual misollar bilan beriladi. Harmerning taʼkidlashicha, “vizual materiallar boshlangʻich bosqichda til oʻrganishda eng samarali vositalardan biri boʻlib, ular oʻquvchilarning eʼtiborini jalb qiladi va eslab qolishni osonlashtiradi” [1, p. 134]. Shu sababli Britaniya maktablarida rasmlilugʻatlar nafaqat soʻz oʻrganish, balki gap tuzish va kommunikativ mashqlar uchun ham faol qoʻllaniladi.

AQSh taʼlim tizimida rasmlilugʻatlar koʻpincha multimodal va raqamli formatda taqdim etiladi. Yaʼni rasm bilan bir qatorda audio (talaffuz), video (harakat) va interaktiv mashqlar ham mavjud boʻladi. Natoning fikricha, “soʻz boyligini samarali oʻzlashtirish uchun oʻquvchi soʻzni turli kontekstlarda va turli shakllarda uchratishi zarur” [2, p. 102]. Shu bois AQShda rasmlilugʻatlar faqat statik material emas, balki interaktiv platformalar (masalan, ESL ilovalari) orqali qoʻllaniladi. Masalan, oʻquvchi “run” soʻzini oʻrganayotganda, u rasmni koʻradi, talaffuzni eshitadi va video orqali

harakatni kuzatadi. Bu esa vizual, eshitish va kinestetik kanallarni birgalikda faollashtiradi.

Yaponiya tajribasida rasmlilugʻatlar oʻyin texnologiyalari bilan integratsiya qilingan. Boshlangʻich sinflarda “flashcard” tizimi keng qoʻllanilib, unda rasm va soʻz kartochkalari orqali oʻquvchilar musobaqa tarzida soʻzlarni oʻrganadi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, oʻyin asosida tashkil etilgan darslar oʻquvchilarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi va ularning nutqiy faolligini kuchaytiradi [3, p. 67]. Masalan, oʻqituvchi rasmni koʻrsatadi va oʻquvchilar tezda uning inglizcha nomini aytishi kerak boʻladi. Bu jarayon tezkor fikrlash va xotirani rivojlantiradi.

Janubiy Koreyada esa rasmlilugʻatlar mobil texnologiyalar bilan uygʻunlashtirilgan. Maxsus ilovalar orqali oʻquvchilar har bir soʻzni rasm, audio va oddiy gap bilan birgalikda oʻrganadi. Kukulska-Hulme taʼkidlaganidek, “raqamli vositalar til oʻrganishda individuallashtirilgan yondashuvni taʼminlaydi va oʻquvchiga oʻz tezligida oʻrganish imkonini beradi” [4, p. 5]. Bu esa ayniqsa, boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun qulaydir.

Umuman olganda, xorijiy tajriba quyidagi muhim xulosalarni koʻrsatadi:

– rasmlilugʻatlar tizimli va metodik asosda qoʻllaniladi;

– ular multimodal (rasm + audio + video) shaklda taqdim etiladi;

– oʻyin va kommunikativ metodlar bilan integratsiya qilinadi;

raqamli texnologiyalar bilan uygʻunlashtiriladi.

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlar tajribasi rasmlilugʻatlardan samarali foydalanish uchun ularni oddiy koʻrgazmali vosita sifatida emas, balki kompleks oʻqitish tizimining bir qismi sifatida qoʻllash zarurligini koʻrsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, boshlangʻich sinf oʻquvchilariga chet tilini oʻrgatishda rasmlilugʻatlardan foydalanish shunchaki koʻrgazmali



vosita emas, balki tilni o'zlashtirish samaradorligini oshiruvchi kuchli metodik resursdir. Bolalarning yosh xususiyatlari, xususan, vizual tafakkurining ustunligi va dunyoni obrazlar orqali idrok etishi rasmi lug'atlarni til o'rganishning dastlabki bosqichida eng maqbul vositaga aylantiradi.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, Buyuk Britaniya, AQSh va Yaponiya kabi davlatlarda rasmi lug'atlar multimodal (audio va video bilan uyg'unlashgan) hamda interaktiv formatda qo'llaniladi. Bu mamlakatlarda rasmi lug'atlar faqat so'z yodlash uchun emas, balki kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, ya'ni o'rganilgan leksikani nutqiy vaziyatlarga integratsiya qilish uchun xizmat qiladi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham ushbu vositalardan foydalanish ko'lami kengaymoqda, biroq ularni metodik jihatdan to'g'ri qo'llash, ya'ni rasmni kontekst, audio va harakat (TPR) bilan boyitish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, rasmi lug'atlardan foydalanish o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi, dars jarayonidagi zerikish va qo'rquvni bartaraf etadi



hamda so'zlarning xotirada uzoq muddat saqlanishini ta'minlaydi. Kelajakda yurtimizda milliy darsliklar bilan uyg'unlashgan, o'quvchilarning madaniy va ijtimoiy muhitiga moslashtirilgan raqamli va interaktiv rasmi lug'atlarni ishlab chiqish hamda o'qituvchilarning ushbu vositalar bilan ishlash malakasini oshirish metodik jihatdan ustuvor vazifa bo'lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. 477 p.
2. Piaget, J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1969. 186 p.
3. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. 4th edition. – London: Longman, 2007. 448 p.
4. Wright, A. Pictures for Language Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. 218 p.
5. Kukulska-Hulme, A. Language Learning and Technology. 2019. pp. 5–12.
6. Jalolov, J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. 432-b.
7. Oxford Picture Dictionary. – Oxford University Press, 2010. 300 p.
8. Yo'ldoshev, J. G., Usmonov, S. A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. 132-b.
9. Krashen, S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon, 1982. 202 p.
10. Richards, J. C., Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. 410 p.

Ayzada ARZIEVA,
Sarbo'n universiteti Filologiya va tillarni o'qitish
kafedrası o'qituvchisi

CHET TILINI BILISH DARAJASINI ANIQLOVCHI IMTIHONLARGA TAYYORGARLIK KO'RISHNING SAMARALI METODLARI VA ULARNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada xalqaro (IELTS, TOEFL) va milliy (CEFR) tizimlardagi chet tilini bilish darajasini aniqlovchi imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishning eng samarali metodlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida "Scaffolding", "Task-based Learning" va "Washback effect" kabi pedagogik konsepsiyalarning imtihon natijalariga ta'siri o'rganilgan. Maqolada tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy misollar va ilmiy asoslangan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: IELTS, TOEFL, CEFR, washback effect, scaffolding, task-based learning, o'qitish metodikasi, akademik ko'nikmalar, baholash mezonlari.

Аннотация: в данной статье научно анализируются наиболее эффективные методы подготовки к международным (IELTS, TOEFL) и национальным (CEFR) экзаменам по определению уровня владения иностранным языком. В ходе исследования изучается влияние таких педагогических концепций, как «Scaffolding», «Task-based Learning» и «Washback effect» на результаты экзаменов. В статье приведены практические примеры и научно обоснованные рекомендации по развитию навыков аудирования, чтения, письма и говорения.

Ключевые слова: IELTS, TOEFL, CEFR, washback effect, scaffolding, task-based learning, методика преподавания, академические навыки, критерии оценки.

Annotation: this article scientifically analyzes the most effective methods of preparation for international (IELTS, TOEFL) and national (CEFR) examinations determining the level of foreign language proficiency. The study examines the impact of pedagogical concepts such as "Scaffolding", "Task-based Learning", and the "Washback effect" on exam results. The article provides practical examples and scientifically based recommendations for developing listening, reading, writing, and speaking skills.

Key words: IELTS, TOEFL, CEFR, washback effect, scaffolding, task-based learning, teaching methodology, academic skills, assessment criteria.

Bugungi globallashuv davrida chet tilini bilish darajasini aniqlovchi xalqaro sertifikatlar (IELTS, TOEFL, TestDaF, DALF) nafaqat ta'lim olish, balki, professional faoliyat yuritishning ham ajralmas qismiga aylandi. Xususan, O'zbekiston ta'lim tizimida ham CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) standartlari asosida bilimlarni baholash tizimi keng joriy etilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida natijaviylik va xalqaro moslikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'rganuvchilar tilni umumiy bilish darajasi yetarli bo'lishiga qaramay, imtihonlarda kutilgan natijani qo'lga kiritmaydilar. Bu holat, avvalo, imtihon formatining o'ziga xosligi, vaqt bosimi, stress omili hamda metodik tayyorgarlikning yetarli emasligi bilan izohlanadi. Ya'ni tilni bilish va imtihondan yuqori ball olish ikki xil kompetensiyani talab qiladi.

Peter Skehan va Rod Ellis ta'kidlaganidek, imtihon topshirish jarayoni strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va vazifaga yo'naltirilgan faoliyatni talab qiladi [1]. Shu bois "washback effect", ya'ni imtihonning o'qitish jarayoniga ta'siri muhim pedagogik omil sifatida

qaraladi. Agar ta'lim jarayoni imtihon talablariga mos ravishda tashkil etilsa, natijalar sezilarli darajada yaxshilanadi.

Scaffolding yondashuvi Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi g'oyasiga tayanadi, ya'ni o'rganuvchi mustaqil bajara olmaydigan vazifani malakali yordam bilan bajaradi va yordam asta-sekin kamaytiriladi.





Imtihon tayyorgarligida scaffolding ayniqsa yozish va gapirish uchun samarali, chunki mazkur bo'limlarda baholash mezonlari ko'p komponentli va subyektivlik xavfi yuqoriroq.

Masalan, yozish bo'limi topshirig'ida o'rganuvchi birinchi haftada faqat reja tuzishga e'tibor beradi: tezis, ikki asosiy dalil, qarshi fikr va xulosa. Ikkinchi haftada o'qituvchi model paragraf beradi va o'rganuvchi shu model bo'yicha bitta paragraf yozadi. Uchinchi haftada model olib tashlanadi, faqat tekshirib chiqish qoladi, ya'ni "tezis bormi?", "har paragrafda dalil–izoh–misol bormi?", "bog'lovchi vositalar me'yorida mi?" tarzida talabgor yozma nutqni tekshirib chiqadi. Shu tartib o'rganuvchiga murakkab vazifani boshqariladigan kichik bo'laklarga ajratib o'zlashtirish imkonini beradi.

Task-Based Language Teaching (TBLT) tilni vazifani bajarish jarayonida o'rgatishni asosiy prinsip sifatida oladi. Ellis task-based yondashuvda vazifa "ma'noga yo'naltirilgan", "natija"ga ega, va o'rganuvchi til vositalarini aynan shu natijaga erishish uchun ishlatishini ta'kidlaydi. Imtihon topshiriqlari aynan vazifa tabiatiga ega bo'lgani sabab, TBLT imtihonga tayyorgarlikda mos yondashuv hisoblanadi.

Misol sifatida o'qib tushunish bo'yicha "True/False/Not Given" kabi formatlarda o'rganuvchiga "ha/yo'q"ni topish emas, balki dalilni tekshirish vazifasi beriladi: har bir gap uchun matndan tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi dalil topish, topilmasa "Not Given" mezonini qo'llash. Bu vazifa o'rganuvchining matn bilan ishlash strategiyasini va "dalil" tushunchasini rivojlantiradi.

Tinglab tushunish bo'yicha asosiy muammo ko'pincha "hammasini tushunish" talabi bilan bog'liq: o'rganuvchi har bir so'zni ushlashga urinadi va natijada asosiy g'oyani yo'qotadi. Vandergrift va Goh metakognitiv yondashuvni taklif qiladi: tinglashdan oldin rejalashtirish, tinglash vaqtida nazorat qilish, tinglashdan keyin baholash va strategiyani tuzatish. Imtihonlarda esa bu yondashuv "savolga yo'naltirilgan tinglash" bilan birlashadi.

Amaliy model quyidagicha bo'lishi mumkin: audio qo'yilishidan oldin o'rganuvchi savollarni ko'zdan

kechiradi, kalit so'zlarni ajratadi va javobning grammatik shaklini taxmin qiladi (son, ot, fe'l, sana). Tinglash vaqtida u "kalit signal so'zlar"ga e'tibor beradi: however, because, compared to, the main reason, in contrast. Tinglashdan so'ng talabgor javoblarni quyidagicha tekshiradi va xato sababini aniqlaydi: "kalit so'zni eshitmadimmi?", "sinonimni tushundimmi?", "chalg'ituvchi so'zlarga aldanib qoldimmi?".

Talaffuz va tezkor qayta ishlashni mustahkamlash uchun shadowing (audio bilan birga takrorlash) ishlatiladi. Bu usul tinglash va og'zaki nutq o'rtasidagi bog'lanishni kuchaytiradi, biroq u "tushunish"dan ajralib qolmasligi uchun shadowingdan so'ng mazmunni qisqa qayta hikoya qilish yoki 3–5 ta asosiy fikrni yozib berish vazifasi qo'shilishi maqsadga muvofiq.

O'qib tushunish bo'limi tayyorgarligida "skimming" va "scanning" ko'p tilga olinadi, ammo imtihon amaliyotida bundan ham muhimroq jihat bor: savol turiga mos o'qish strategiyasini tanlash. Grabe o'qib tushunishni ko'p darajali jarayon sifatida tushuntiradi, ya'ni tezkor umumiy anglash, selektiv qidiruv va chuqur tahlil bosqichlari turli vazifalarda turlicha ulushga ega bo'ladi.

Masalan, "matching headings" formatida avval paragrafning mavzu gapini topish va umumiy g'oyani ajratish ustun bo'ladi; "multiple choice"da esa dalilni solishtirish va variantlar orasidagi farqni ko'rish zarur; "sentence completion"da birikmalar va grammatik moslik muhim. Shuning uchun tayyorgarlikda o'rganuvchi har bir savol turini alohida "strategiya protokoli" bilan o'rganadi: nima o'qiladi, nimaga e'tibor qilinadi, dalil qanday tekshiriladi, javob qanday tasdiqlanadi.

Amaliy mashq sifatida "dalil xaritasi" usuli qo'llanadi: o'rganuvchi har bir javob uchun matndan bir jumla yoki birikmani "dalil" sifatida ajratib yozadi. Bu usul taxminiy javoblardan (guessing) voz kechishga, matn asosida ishlashga o'rgatadi.

Yozuv bo'limi bo'yicha ko'p uchraydigan xato – "murakkab grammatika ishlatsam, yuqori ball olaman" degan noto'g'ri tasavvur. Imtihon yozuvi ko'pincha grammatik "murakkablik"dan ko'ra argumentning ravshanligi, mantiqiy oqim va tilning aniqligi orqali yuqori baholanadi. Hyland akademik yozuvni o'rgatishda janr va auditoriya talabi, argumentatsiya, bog'lovchi vositalar hamda leksik tanlovning tizimli o'rgatilishini asoslaydi. Shuning uchun writing tayyorgarligi "mavzu bo'yicha ko'p yozish" emas, "mezonga mos yozish" bo'lishi kerak.

Amaliy yondashuvlardan biri PEEL (Point–Explanation–Example–Link) mantig'idir, ya'ni paragrafda bitta fikr (point) qo'yiladi, izoh (explanation) bilan ochiladi, misol (example) bilan isbotlanadi va keyingi fikrga bog'lovchi jumla (link) bilan ulanadi. Bu usul o'rganuvchiga paragraf ichida "mantiqiy bo'shliq" qoldirmaslikni o'rgatadi. Leksik jihatdan esa maqsad "qiyin so'z ishlatish" emas, "aniq va mos so'z" tanlashdir. Masalan, "beneficial/advantageous" kabi sinonimlar

faqat kontekstga mos bo'lsa, natija beradi, aks holda "lexical resource" mezoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Gapirish bo'limida ko'p o'rganuvchilar "xato qilmaslik"ka haddan tashqari e'tibor beradi va natijada ravonlik pasayadi. Kommunikativ metodika gapirishni "xatosiz grammatik konstruksiya" emas, "maqsadli muloqot" sifatida ko'radi. Shu sababli gapirish tayyorgarligi uch yo'nalishda olib boriladi: ravonlik, mazmunini rivojlantirish va aniqlikni bosqichma-bosqich kuchaytirish.

Amaliy metodlardan biri "recording and self-correction": o'rganuvchi 2–3 daqiqalik javobini yozib oladi, keyin yozma tahlil qilib, 3 turdagi xatoni ajratadi: (1) grammatik, (2) leksik, (3) talaffuz/intonatsiya. Shundan so'ng u ayni mavzuni qayta gapiradi, lekin bu safar "bitta asosiy xato turi"ni tuzatishga urg'u beradi. Bu yondashuv o'rganuvchida o'z nutqini tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Til baholash bo'yicha Hughes test tayyorgarligida format va vaqt omilini mashq qilish zarurligini ta'kidlaydi: o'rganuvchi testni "bilimni ko'rsatish rejimi"da topshirishi uchun test sharoiti tanish bo'lishi kerak. Shu ma'noda tayyorgarlikda kamida quyidagi uch komponent doimiy mashq qilinadi:

- vaqt bilan ishlash (time-on-task),
- savol turiga mos strategiya,

– xatolarni boshqarish (xato turlarini aniqlash va kamaytirish).

Psixologik jihatdan esa imtihon stressi ko'pincha "noaniqlik"dan kelib chiqadi: o'rganuvchi mezonni bilmaydi, qanday baholanayotganini tushunmaydi, shuning uchun tayyorgarlik "ko'p ishlash" bo'lib qoladi, "to'g'ri ishlash"ga aylanmaydi. Washback doirasida mezonlarning oshkoraligi va muntazam feedback stressni pasaytiradigan omil sifatida ko'riladi [3], [4].

Xalqaro til imtihonlariga tayyorgarlik umumiy til o'rganishdan farqli ravishda strategik, mezonlarga yo'naltirilgan va tizimli boshqariladigan jarayondir. Muvaffaqiyatli natija diagnostika asosida maqsad qo'yish, scaffolding orqali murakkab topshiriqlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, task-based yondashuv bilan imtihon formatini real til vazifasiga aylantirish hamda ko'nikmalar kesimida aniq strategiyalarni shakllantirish orqali ta'minlanadi. Washback effect nazariyasi dars mazmuni va imtihon talablari o'rtasidagi uyg'unlikni taqozo etadi: mezonlar oshkor bo'lsa, feedback muntazam bo'lsa va monitoring yo'lga qo'yilsa, tayyorgarlik "ko'p mashq"dan "sifatli o'sish"ga aylanadi. Shunday yondashuv o'rganuvchiga nafaqat imtihondan yuqori natija olish, balki akademik va professional muloqotda ham barqaror til kompetensiyasini namoyon etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bachman, L. F., Palmer, A. S. Language Testing in Practice: Designing and Developing Useful Language Tests. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
2. Brown, H. D. Language Assessment: Principles and Classroom Practices. – White Plains, NY: Pearson Education, 2004.
3. Alderson, J. C., Wall, D. "Does Washback Exist?" Applied Linguistics, 1993.
4. Green, A. IELTS Washback in Context: Preparation for Academic Writing in Higher Education. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007.
5. Hughes, A. Testing for Language Teachers. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
6. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
7. Ellis, R. Task-based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
8. Grabe, W. Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
9. Vandergrift, L., Goh, C. C. M. Teaching and Learning Second Language Listening: Metacognition in Action. – New York: Routledge, 2012.
10. Hyland, K. Second Language Writing. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
11. Richards, J. C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
12. Skehan, P. A Cognitive Approach to Language Learning. – Oxford: Oxford University Press, 1998.

Komiljon EGAMBERDIYEV,
Sarboon universiteti Filologiya va tillarni o'qitish
kafedrası o'qituvchisi

YURIST TALABALARGA CHET TILINI O'QITISHDA ROLI O'YINLARNING ROLI

Annotatsiya: mazkur maqolada yuridik yo'nalishdagi talabalar uchun chet tilini, xususan ingliz tilini o'qitishda roli o'yinlar (role-play) metodining ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda roli o'yinlarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, kasbiy nutqni shakllantirish va talabalarning motivatsiyasini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, moot court, muzokara, mijoz bilan suhbat kabi roli vaziyatlar asosida o'qitish metodikasi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Xorijiy olimlarning qarashlari asosida ushbu metodning pedagogik afzalliklari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: roli o'yin, yuridik ingliz tili, kommunikativ metod, moot court, kasbiy kompetensiya, ESP, interaktiv o'qitish.

Аннотация: в статье рассматривается роль ролевых игр в обучении иностранному языку студентов-юристов. Анализируется влияние метода role-play на развитие коммуникативной компетенции, формирование профессиональной речи и повышение мотивации обучающихся. Особое внимание уделяется таким формам, как судебные процессы (moot court), переговоры и общение с клиентом. На основе научных исследований раскрываются педагогические преимущества данного метода.

Ключевые слова: ролевая игра, юридический английский, коммуникативный метод, moot court, профессиональная компетенция, ESP.

Annotation: this article explores the role of role-play in teaching foreign languages to law students. It examines how role-play contributes to the development of communicative competence, professional language skills, and student motivation. Particular attention is given to activities such as moot courts, negotiations, and client interviews. Based on scholarly perspectives, the pedagogical benefits of this method are highlighted.

Key words: role-play, Legal English, communicative approach, moot court, professional competence, ESP.

Bugungi kunda yuridik ta'lim tizimida chet tilini, ayniqsa ingliz tilini o'qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro huquqiy munosabatlarning kengayishi natijasida yuristlardan yuqori darajadagi kommunikativ va professional til kompetensiyasi talab qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan, an'anaviy grammatika asosidagi o'qitish metodlari yetarli samara bermay, zamonaviy interaktiv metodlarga ehtiyoj ortmoqda.

Rolli o'yinlar (role-play) chet tilini o'qitish metodikasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu metodning nazariy asoslari bir qator ilmiy yondashuvlar, xususan kommunikativ til o'qitish (Communicative Language Teaching), sotsiokonstruktivizm va tajribaviy o'rganish nazariyalariga tayanadi.

Avvalo, roli o'yinlarning asosini kommunikativ yondashuv tashkil etadi. D. Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya tushunchasiga ko'ra, tilni o'rganish faqat grammatik bilimlarni egallash bilan cheklanmay, balki uni ijtimoiy kontekstda to'g'ri qo'llashni ham o'z ichiga oladi [1, b. 281]. Shu nuqtai nazardan, roli o'yinlar talabalarni real hayotga yaqin kommunikativ vaziyatlarga jalb etib, ularning nutqiy faoliyatini faollashtiradi. J. Harmer ham roli o'yinlar orqali "haqiqiy muloqotga yaqin sharoit" yaratilishini ta'kidlaydi [2, b. 274].

Rolli o'yinlarning nazariy asoslarini tushuntirishda

L. S. Vygotskiyning sotsiokonstruktivistik nazariyasi ham muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, bilim ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi talabaning boshqalar bilan hamkorlikda murakkab vazifalarni bajarish orqali bilimini oshirishini asoslaydi [3, b. 86]. Rolli o'yinlar aynan shu hamkorlik muhitini yaratib, talabalarni faol o'rganish jarayoniga jalb etadi.

Bundan tashqari, roli o'yinlar D. Kolb tomonidan ishlab chiqilgan tajribaviy o'rganish nazariyasiga ham mos keladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bilim tajriba orqali egallanadi va refleksiya jarayonida mustahkamlanadi [4, b. 41]. Rolli o'yinlarda talabalar ma'lum vaziyatni boshdan kechiradi, uni tahlil qiladi va kelgusida qo'llash uchun xulosa chiqaradi. Bu esa chuqur va barqaror bilim shakllanishiga olib keladi.

Lingvistik nuqtai nazardan, roli o'yinlar professional diskursni o'zlashtirishda samarali vosita hisoblanadi. V. K. Bhatia professional janrlarni o'rganishda ularning kommunikativ maqsadi va strukturaviy xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi [5, b. 137]. Yuridik ta'limda roli o'yinlar orqali talabalar sud nutqi, muzokara va huquqiy muloqot kabi diskurs shakllarini amaliy ravishda o'zlashtiradi.

Mahalliy olimlardan J. Jalolov ham chet tilini o'qitishda interaktiv metodlarning, jumladan, roli o'yinlarning ahamiyatini alohida ta'kidlab, ularning

talabalarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligini qayd etadi [6, b. 112]. Yuridik yo'nalishdagi talabalarga chet tilini o'qitishda rolli o'yinlar turli shakllarda tashkil etilib, har biri muayyan kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu turlar nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki talabalarning huquqiy tafakkuri, argumentatsiya qobiliyati va professional muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Eng muhim rolli o'yin turlaridan biri – moot court (sud jarayoni simulyatsiyasi) hisoblanadi. Bu metod yuridik ta'limda keng qo'llanilib, talabalar sud jarayonini realga yaqin sharoitda jonlantiradi. Talabalar sudya, advokat, prokuror, guvoh kabi rollarni bajaradi va muayyan ish bo'yicha dalillarni keltiradi, qarshi tomon fikrini rad etadi hamda huquqiy asosda qaror chiqaradi. Moot court talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish, huquqiy terminologiyani to'g'ri qo'llash va mantiqiy fikrlashini kuchaytirishda muhim vosita hisoblanadi. R. Haigh bu metodni yuridik ingliz tilini o'qitishdagi eng samarali amaliy yondashuvlardan biri sifatida baholaydi [1, b. 67].

Ikkinchi muhim tur – mijoz bilan suhbat (client interview role-play)dir. Bu jarayonda talaba yurist rolini bajarib, mijozdan muammo haqida ma'lumot oladi, aniqlashtiruvchi savollar beradi va huquqiy maslahat beradi. Ushbu tur, ayniqsa, tinglab tushunish (listening) va savol berish (questioning) ko'nikmalarini rivojlantirishda muhimdir. Bundan tashqari, talabalar professional etikani saqlash, sodda va tushunarli tilda gapirish hamda mijoz bilan ishonchli aloqa o'rnatishni o'rganadi. Hyland ta'kidlaganidek, bunday vaziyatlar akademik bilimni real

professional muloqotga ko'chirishda muhim ahamiyatga ega [2, b. 210].

Uchinchi tur – muzokara (negotiation role-play) hisoblanadi. Yuridik amaliyotda muzokaralar, ayniqsa shartnoma tuzish va nizolarni hal qilishda muhim o'rin tutadi. Ushbu rolli o'yinda talabalar qarama-qarshi tomonlar sifatida ishtirok etib, o'z manfaatlarini himoya qiladi va kelishuvga erishishga harakat qiladi. Bu jarayon ularning strategik fikrlashini, murosa qilish qobiliyatini va diplomatik nutqini rivojlantiradi. Fisher va Ury muzokaralarda samarali kommunikatsiya va manfaatlarga asoslangan yondashuv muhimligini ta'kidlaydi [3, b. 98].

To'rtinchi tur – huquqiy muhokama (legal discussion role-play) bo'lib, bunda talabalar qonun loyihalari, sud qarorlari yoki huquqiy muammolarni muhokama qiladi. Ushbu tur akademik nutqni rivojlantirish, fikrni asoslash va dalillar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalar o'z fikrini aniq ifodalash, boshqalarning fikrini tahlil qilish va bahs madaniyatini o'rganadi.

Beshinchi tur – mediatsiya (mediation simulation) hisoblanadi. Bu rolli o'yinda talabalar vositachi sifatida nizoli tomonlar o'rtasida kelishuvga erishishga yordam beradi. Mediatsiya jarayoni talabada neytrallikni saqlash, muammoni har ikki tomon nuqtai nazaridan ko'ra olish va konfliktlarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy huquqiy amaliyotda juda muhim kompetensiyalardan biridir.

Yana bir muhim tur – huquqiy hujjatlarni tayyorlash va taqdim etish (legal drafting and presentation role-play)dir. Bu yerda talabalar shartnoma, da'vo arizasi yoki boshqa hujjatlarni tuzadi va ularni himoya qiladi.



Ushbu tur yozma va og'zaki nutqni integratsiyalashgan holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, rolli o'yinlarning ushbu turlari yuridik ta'limda kompleks pedagogik tizimni shakllantiradi. Ular talabalarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, real kasbiy vaziyatlarda tilni erkin qo'llash va professional kompetensiyani rivojlantirish imkonini beradi.

Yuridik yo'nalishdagi talabalarga chet tilini, xususan, ingliz tilini rolli o'yinlar asosida o'qitishda bir qator muammolar yuzaga keladi. Ushbu muammolarni aniqlash va ularni samarali hal etish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Birinchi muammo — talabalarning til darajasining yetarli emasligidir. Ko'plab hollarda talabalar umumiy ingliz tilini yetarli darajada bilmasdan turib yuridik ingliz tilini o'rganishga kirishadi. Natijada rolli o'yinlar jarayonida ular o'z fikrini erkin ifoda eta olmaydi. Hutchinson va Waters ta'kidlashicha, maxsus maqsadlar uchun til o'qitishda o'quvchining boshlang'ich til darajasi muhim omil hisoblanadi [1, b. 19]. Ushbu muammoni hal etish uchun rolli o'yinlardan oldin tayyorlov bosqichini tashkil etish, ya'ni zarur leksik va grammatik birliklarni oldindan o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi muammo — talabalarning psixologik to'siqlari, ya'ni uyatchanlik va nutqiy ishonchsizlikdir. Ko'plab talabalar omma oldida gapirishdan cho'chiydi yoki xato qilishdan qo'rqadi. Bu esa ularning rolli o'yinlarda faol ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi. Harmer fikricha, o'qituvchi darsda qulay va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishi orqali bu muammoni kamaytirishi mumkin [2, b. 276]. Shu sababli kichik guruhlarda ishlash, ijobiy rag'batlantirish va xatolarga tolerant yondashuv muhim hisoblanadi.

Uchinchi muammo — autentik materiallarning yetishmasligi yoki noto'g'ri tanlanishidir. Yuridik ingliz tili murakkab bo'lgani sababli real huquqiy matnlar talabalar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Bhatia professional

diskursni o'rganishda materiallarni talabaning darajasiga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi [3, b. 137]. Shuning uchun o'qituvchi soddalashtirilgan, ammo real hayotga yaqin materiallardan foydalanishi lozim.

To'rtinchi muammo — vaqt va tashkiliy cheklolardir. Rolli o'yinlar ko'p vaqt talab qiladigan metod bo'lib, ularni samarali tashkil etish uchun puxta reja zarur. Ko'pincha dars vaqti yetarli bo'lmagani sababli rolli o'yinlar yuzaki o'tkaziladi. Bu muammoni hal qilish uchun rolli o'yinlarni bosqichma-bosqich tashkil etish, ayrim tayyorgarlik ishlarini uy vazifasi sifatida berish tavsiya etiladi.

Beshinchi muammo — o'qituvchining metodik va kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq. Yuridik ingliz tilini o'qitishda pedagog nafaqat tilni, balki huquqiy kontekstni ham tushunishi zarur. Jalolov interaktiv metodlardan samarali foydalanish uchun o'qituvchining metodik kompetensiyasi yuqori bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [4, b. 112]. Shu sababli o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish muhimdir.

Yechimlar nuqtai nazaridan, rolli o'yinlarni samarali tashkil etish uchun bir necha metodik yondashuvlar tavsiya etiladi. Birinchidan, darsni uch bosqichda tashkil etish: tayyorgarlik (pre-task), asosiy faoliyat (while-task) va tahlil (post-task). Ellis bu modelning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda samarali ekanligini qayd etadi [5, b. 244]. Ikkinchidan, autentik va yarim autentik materiallardan foydalanish talabalarni real kasbiy muhitga yaqinlashtiradi. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar, masalan, video simulyatsiyalar va onlayn platformalardan foydalanish rolli o'yinlarni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Xulosa qilib aytganda, rolli o'yinlarni qo'llash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tizimli yondashuv orqali bartaraf etish mumkin. To'g'ri tashkil etilgan rolli o'yinlar yuridik yo'nalishdagi talabalarning til va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hymes, D. On Communicative Competence. — Oxford: Oxford University Press, 1972. 269–293 pp.
2. Harmer, J. How to Teach English. — London: Longman, 2007. 288 p.
3. Vygotsky, L. Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. 159 p.
4. Kolb, D. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. — New Jersey: Prentice Hall, 1984. 256 p.
5. Bhatia, V. K. Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. — London: Longman, 1993. 246 p.
6. Jalolov, J. Chet til o'qitish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2012. 432-b.
7. Haigh, R. Legal English. — London: Routledge, 2004. 312 p.
8. Hyland, K. English for Academic Purposes: An Advanced Resource Book. — London: Routledge, 2006. 340 p.
9. Mellinkoff, D. The Language of the Law. — Boston: Little, Brown and Company, 1963. 526 p.
10. Zweigert, K., Kötz, H. An Introduction to Comparative Law. — Oxford: Oxford University Press, 1998. 714 p.
11. Yo'ldoshev, M. Matn lingvistikasi. — Toshkent: Fan, 2008. 160-b.
12. Karimova, N. Yuridik tarjima masalalari. — Toshkent: Fan, 2015. 120-b.



Feruza ZAKIROVA,
O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish
instituti mustaqil tadqiqotchisi
f.zakirova@mail.ru

UDK:614.5.613.

TIBBIYOT PEDAGOGIKASINI TASHKIL ETISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada tibbiyot pedagogikasini tashkil etishning metodik asoslari yoritilgan. Tibbiyot pedagogikasi inson salomatligi tamoyillariga asoslanib ta'lim jarayonini rejalashtiradi, sog'lom hayot tarzini ta'lim berish orqali rag'batlantiradi Tibbiyot pedagogikasining metodologiyasi inson salomatligini ilgari suruvchi tizimli, ko'p qirrali va faol ta'lim yondashuvlarini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: tibbiy pedagogika, psixologiya, fiziologiya, integratsion yondashuv, individual yondashuv, reabilitatsiya.

Аннотация: в данной статье рассматриваются методологические основы организации медицинской педагогики. Медицинская педагогика планирует образовательный процесс на основе принципов здоровья человека, пропагандирует здоровый образ жизни посредством обучения. Методология медицинской педагогики включает в себя систематические, многогранные и активные образовательные подходы, способствующие укреплению здоровья человека.

Ключевые слова: медицинская педагогика, психология, физиология, интегративный подход, индивидуальный подход, реабилитация.

Annotation: this article discusses the methodological foundations of the organization of medical pedagogy. Medical pedagogy plans the educational process based on the principles of human health, promotes a healthy lifestyle through education. The methodology of medical pedagogy includes systematic, multifaceted and active educational approaches that promote human health.

Key words: medical pedagogy, psychology, physiology, integrative approach, individual approach, rehabilitation.

Kirish / Введение / Abstract.

Tibbiyot pedagogikasi insonni o'rganishda uning salomatligini saqlash va mustahkamlash tamoyillari asosida ta'lim beradi. Ushbu fan tibbiyotning asosiy funksiyalaridan biri bo'lgan inson salomatligini himoya qilish, kasalliklarning oldini olish va reabilitatsiya qilish jarayonlarini pedagogik yondashuv bilan uyg'unlashtiradi. Tibbiyot pedagogikasining asosiy jihatlari inson salomatligi nuqtayi nazaridan ta'lim-tarbiya jarayoni salomatlikni saqlashga yo'naltirib, bu jarayon ilmiy asoslangan tibbiy bilimlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Kasalliklarning oldini olish borasida tibbiyot pedagogikasi ta'limda profilaktika bo'yicha ko'nikmalarni berish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bilan shug'ullanadi. Reabilitatsiya jarayonini, ya'ni kasalliklardan so'ng tiklanish nazariyasi va amaliyotini ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalashtirib, sog'lomlashtiruvchi pedagogik ta'sirni ta'minlaydi. Tibbiyotning pedagogik ta'lim bilan uyg'unligi ta'limda nafaqat tibbiy, balki pedagogik bilim va metodlarni qo'llash kabi insonning jismoniy va ruhiy holatini yaxshilashga yo'naltirilgan kompleks yondashuvni shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili va metod (литература и метод / materials and methods)

Tibbiyot pedagogikasining rivojlanishi va evolyutsiyasida boshqa fanlar bilan aloqalarini asoslar

ekanmiz, uning biologiya va anatomiya bilan aloqalari inson organizmining tuzilishi va faoliyatini tushunishda tibbiy pedagogikaning asosini tashkil etib, sog'liqni saqlash va tarbiyalash jarayonlarini aniq va samarali tashkil etishga yordam bersa, psixologiya bilan aloqasi insonning ruhiy holati, kognitiv funksiyalari va motivatsiyasini o'rganish orqali ta'lim jarayonining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali tarbiya usullarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tibbiyot pedagogikasining sotsiologiya fani bilan aloqalari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, madaniyat va san'atning ta'limga ta'siri kabi tibbiy pedagogikaning ijtimoiy kontekstini yaratib, tarbiya va sog'lomlikni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Tibbiyot pedagogikasi pedagogikaning umumiy qonun-qoidalari hamda ta'lim metodlarini o'z ichiga olib, tibbiyotda o'qitish jarayonini tizimli tashkil qilish imkonini beradi [1].

Tibbiyot pedagogikasining rivojlanishi u bilan bog'liq boshqa fanlar bilan integratsiyasi orqali ilmiy asosli, samarali va zamonaviy ta'lim tizimini yaratishga xizmat qiladi. Tibbiyot pedagogikasining turli fanlar bilan o'zaro aloqalari uning strategiyasi va metodologiyasini boyitib, inson salomatligini mustahkamlashga yo'naltirilgan kompleks yondashuvni shakllantiradi.

Tibbiyot pedagogikasi inson salomatligi tamoyillariga asoslanib ta'lim jarayonini rejalashtiradi, sog'lom hayot tarzini ta'lim berish orqali rag'batlantiradi, shuningdek,

kasalliklardan so'ng reabilitatsiya jarayonini samarali amalga oshirishga ko'maklashadi.

Tibbiyot pedagogikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- insonning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlashni ta'minlash uchun ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish;

- kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktika pedagogikasi asoslarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- kasalliklardan so'ng reabilitatsiya jarayonini pedagogik yondashuv orqali qo'llab-quvvatlash;

- sog'lom turmush tarzini shakllantirish, unda gigiyena, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va stressni boshqarish ko'nikmalarini targ'ib etish;

- ta'lim jarayonida sog'lomlashtiruvchi muhit yaratish va uni rivojlantirish;

- tibbiy-pedagogik diagnostika va nazorat usullarini qo'llash orqali o'quvchilarning salomatlik holatini monitoring qilish;

- pedagogik va tibbiy bilimlarni uyg'unlashtirib, sog'lom hayot faoliyati uchun zarur ko'nikmalarni berib borishdan iborat [2].

Ushbu vazifalar tibbiyot pedagogikasining inson sog'ligini himoya qilish va ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin egallaydi.

Tibbiyot pedagogikasi tibbiy bilimlar bilan pedagogik ta'lim-usullarni bog'lovchi muhim tizimdir. Tibbiyot pedagogikasining metodologik asoslari bir necha muhim tamoyillarga va ilmiy yondashuvlarga tayanadi. Bular:

Birinchidan – integratsion yondashuv, bunda tibbiyot pedagogikasi tibbiyot va pedagogika fanlarining umumnazariy bilimlarini birlashtirib, sog'lomlashtirish

va ta'lim jarayonlarini uyg'unlashtirishga asoslanadi. Bunday yondashuv kasalliklar profilaktikasi, reabilitatsiya va shaxsiy rivojlanishni birgalikda olib borishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan – biopsixosotsial modellash, bunda inson salomatligi biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllantiriladi. Aynan shu sababli tibbiyot pedagogikasining metodologiyasi ushbu omillarni kompleks o'rganishga va ularga mos ta'lim usullarini ishlab chiqishga asoslanadi.

Uchinchidan – faol o'qitish tamoyili, unga ko'ra bemorlar va sog'lom odamlarni o'z salomatligini saqlashda faol ishtirok etishga o'rgatish, salomatlikni mustahkamlashda individual javobgarlikni rivojlantirishga urg'u beriladi.

To'rtinchidan – tibbiy salomatlik konsepsiyasining kengaytirilgan tushunchasini qo'llash orqali sog'lomlik tamoyili ilgari surilib, faqat kasallikning yo'qligi emas, balki fizik, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati ham e'tiborga olinish ta'minlanadi.

Beshinchidan – profilaktik va reabilitatsion yondashuvlar orqali kasalliklarni oldini olish va tiklanishni ta'minlash jarayonlarini ta'lim bilan uyg'unlashtirish tibbiyot pedagogikasi metodologiyasining asosini tashkil etadi [3]. Tibbiyot pedagogikasining metodologiyasi inson salomatligini ilgari suruvchi tizimli, ko'p qirrali va faol ta'lim yondashuvlarini o'z ichiga oladi.

Natijalar (результаты / results)

Tibbiyot pedagogikasi fanining dastlabki g'oyalari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan. Bu davrda tibbiyot va pedagogika sohalarida yuzaga kelgan ijtimoiy va ilmiy o'zgarishlar asosiy rol o'ynagan. Tibbiyot pedagogikasining kelib chiqishiga gigiyena va profilaktika, psixologiya va pedagogika reabilitatsiya,



sog'lomlashtirish kabi sohalarning rivojlanishi sabab bo'lgan. Natijada, tibbiyot pedagogikasiga oid dastlabki g'oyalar sog'liqni saqlash va ta'limni birlashtirib insonlarning yashash sifatini yaxshilashga qaratilgan kompleks yondashuv sifatida rivojlangan. Tibbiyot pedagogikasining hozirgi bosqichi zamonaviy tibbiyot va ta'lim tizimidagi boshqa fanlarning integratsiyasi, ilg'or texnologiyalar va ilmiy yondashuvlar asosida rivojlanib bormoqda.

Muhokama (обсуждение / discussion)

Bugungi zamonaviy yondashuvlar tibbiyot pedagogikasining quyidagi asosiy jihatlarini yuzaga keltirmoqda:

1. Individual yondashuvning kuchayishi. Ushbu yondashuv orqali har bir bemor yoki sog'lomlashtirilayotgan shaxsning individual psixologik va tibbiy xususiyatlari inobatga olinadi. Tibbiy ta'lim jarayoni shaxsga moslashtirilib, bemorning imkoniyat va ehtiyojlariga yo'naltiriladi;

2. Interdisiplinar yondashuv. Bu yondashuv orqali tibbiyot pedagogikasining psixologiya, sotsiologiya, fiziologiya, tibbiyot va pedagogika sohalari birlashtirilib, kompleks sog'lomlashtirish va reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqadi;

3. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi. Bunda kompyuter dasturlari, virtual reallik, sun'iy intellekt masofaviy ta'lim va boshqa zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanilgan holda tibbiy pedagogikaning samaradorligi oshirib boriladi;

4. Profilaktika va sog'lomlashtirishga alohida e'tibor qaratish orqali kasalliklarning oldini olish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va jamiyatdagi salomatlikni oshirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar tibbiy ta'limga singdirib boriladi;

5. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim orqali tibbiy xodimlar, pedagoglar va sog'lomlashtirish bo'yicha mutaxassislarni doimiy ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni olishlari uchun uzluksiz malaka oshirib borishlari ta'minlanadi;

6. Yangi ilmiy tadqiqotlar va metodikalarni qo'llash tibbiy pedagogikaning zamonaviy nazariy asoslari va metodikasini takomillashtirib, ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini muntazam ravishda takomillashtirib borish choralari ko'riladi [4].

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish va oldini olish choralari o'rgatish tibbiy pedagogikaning ajralmas qismi bo'lib, inson salomatligini mustahkamlashga qaratilgan o'ziga xos konsepsiyalarni taqdim etadi [5].

Xulosa (заклучение / conclusion)

Hozirgi kunda tibbiyot pedagogikasi sog'liqni saqlash tizimida ta'lim va reabilitatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish orqali aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilib kelmoqda.

Tibbiyot pedagogikasi orqali tibbiyot xodimlarini malakali tayyorlash, yangi ilmiy yutuqlar va zamonaviy diagnostika, davolash usullarini o'rganish samarali tarzda amalga oshiriladi. Kasallikdan keyingi tiklanish va reabilitatsiya dasturlari samarali tashkil etilishi natijasida bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga imkon yaratiladi. Pedagogika vositasida aholi orasida sog'lom turmush tarzi va oldini olish choralari bo'yicha ta'lim beriladi, bu esa sog'lom jamiyat shakllanishiga hissa qo'shadi. Tibbiyot pedagogikasi yangi ilmiy tadqiqotlarni klinik amaliyotga tez va samarali tatbiq etishga yordam beradi. Umuman olganda tibbiyot pedagogikasi nafaqat tibbiyot xodimlarini tayyorlash, balki butun jamiyatning sog'lomligini ta'minlashda muhim yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Васильева, Е.Ю. Педагогика в клинической практике врача: учебное пособие / Е.Ю.Васильева, М.Ю. Гайкина, Т.В.Тагаева. – Архангельск: Изд-во Северного государственного медицинского университета, 2017. 118 с.
2. Романцов М.Г., Мельникова И.Ю. Инновации в медицинском образовании посредством внедрения педагогических технологий // Успехи современного естествознания. 2015. – № 2. М.: – С. 189-194;
3. Педагогика в медицине: учебное пособие для студентов учреждений высш. проф. образования / Н.В. Кудрявая, Е.М. Уколова, Н.Б. Смирнова, Е.А. Волошина, К.В. Зорин; под ред. Н.В. Кудрявой. - 2-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2012. 320 с.
4. И.В.Новгородцева. Педагогика в медицине: учебное пособие для студентов медицинских вузов: – 4-е изд. – Москва: ФЛИНТА, 2022. 106 с.
5. Педагогические основания профессиональной деятельности современного врача: автореф. дис. ... канд. пед. наук: / Куликов Сергей Иванович. – Калининград: Балтийский федеральный ун-т им. И. Канта, 2011. 24 с.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

AXBOROTNOMASI

**Ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy va
siyosiy-huquqiy jurnal**

№ 1 (17) 2026

